

"O'zbekiston temir yo'llari" DATK  
Toshkent temir yo'l muhandislari instituti

Shodimetov X.M., Abduqayumov B.N., Xolboyev O'.N.

## INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

barcha ta'lim yo'nalishlari I-bosqich bakalavriat talabalari uchun  
o'quv qo'llanma



Toshkent - 2012

Informatika va axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma.  
**X.M. Shodimetov, B.N. Abduqayumov, O'.N. Xolboyev** ToshTYMI, T.:  
2012, 162 b.

O'quv qo'llanma ToshTYMI barcha ta'lim yo'nalishlarida tahlil  
olayotgan 1-bosqich bakalavriat talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib,  
"Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'zlashtirishlariga yordam  
beradi. Qo'llanmada "Informatika va axborot texnologiyalari" fani  
predmeti, kompyuterlar, Delphida dasturlash asoslari, differensial va  
integralarni taqrifiy hisoblash algoritmlari va dasturlari, ofis dasturlari,  
internet, HTML asoslari misollar yordamida batafsil tushuntirilgan.

O'quv qo'llanma institutning O'quv-uslubiy komissiyasi tomonidan  
nashrga tavsiya etilgan.

**Taqrizchilar:** J.S. Abdullayev – bosh mutaxassis;  
N.A. Asqarov – iq.f.n., dots.

**Informatika** – axborotlarning tuzilishi va xossalari haqidagi, shuningdek, axborotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash usullari hamda vositalari haqidagi tabiiy fundamental fandir.

"Informatika" so'zi "informatsiya" (axborot) va "avtomatika" so'zlaridan hosil qilingan bo'lib, "axborotlar bilan avtomatik ishlash" ma'nosini beradi. Informatikaning asosiy obyekti axborot (informatsiya) hisoblanadi.

"Informatsiya" so'zi lotincha "*informatio*" so'zidan olingan bo'lib, tu-shuntirish, bayon qilish ma'nolarini anglatadi. Informatika fani ma'lumotlarni elektron hisoblash va qayta ishlash qurilmalarining rivojlanishi natijasida XX asming ikkinchi yarmida vujudga kelgan bo'lib (1960 yillarning boshlarida fransuz tilida "*informatique*" termini paydo bo'lgan), kompyuterlar bu fanning texnik vositasi hisoblanadi.

### Kompyuter (EHM) larning qisqacha tarixi

XVII asrda Shikkard, Paskal, Leybnislar tomonidan dastlabki hisoblash mashinalari yaratildi: 1623 yilda Vilgelm Shikkard birinchi qo'shish amallini bajaradigan hisoblash mashinasini yaratdi; 1642 yilda fransuz olimi Blez Paskal yaratgan *jamlash mashinasi* birinchi hisoblash mashinasi deb qabul qilingan va 50 nusxada ishlab chiqarilgan. Paskal mashinasi faqat qo'shish va ayirish amallarini bajara olgan; 1671-1674 yillarda Leybnis to'rtta arifmetik amallarni ham bajara oladigan *arifmometr* yaratdi.

1820-1830 yillarda ingлиз олими Ch. Bebbidj barcha arifmetik operatsiyalarni bajaradigan, turli masalalarni mustaqil yechadigan va tushunadigan *analitik mashina* loyihasini ishlab chiqdi. Uning g'oyasi bo'yicha mashina hisoblash jarayonida mutlaqo inson ishtirokisiz maxsus dasturlar asosida ishlashi ko'zda tutilgan edi. Bu mashinaning birinchi maketi 1834 yilda yaratildi. Ammo moddiy va texnik ta'minot yetarli bo'lmasligi uchun Bebbidjga mashinani yaratish nasib etmadidi. Shunga qaramay uning mashinasi dastur asosida ishlaydigan dunyodagi birinchi analitik mashina edi va bu murakkab masalalarni yechadigan matematik mashinalarning paydo bo'lishiga asos soldi.

XIX asr oxirlarida elektrik qurilmalarning paydo bo'lishi va elektronika sohasining rivojlanishi natijasida hisoblash qurilmalarining elektr-mekanika bosqichi boshlandi. 1887 yilda German Xollerit birinchi bo'lib elektrmekanik relelar asosida oddiy hisoblashlarni avtomatik bajaradigan mashina – *tabulyator* yaratdi. 1897 yilda Xollerit **Tabulating Machine Company** firmasiga asos soldi. Keyinchalik bu firma kompyuterlar ishlab chiqarish bo'yicha butun dunyoga mashur **IBM** (International Business

Machines) korporatsiyasiga aylantirildi.

1930 yillarda dastur yordamida boshqariladigan releli (elektrmexanik) hisoblash mashinalari yaratila boshlandi. 1939-1941 yillarda Germaniyada Konrad Suz tomonidan Z-3 deb nomlangan birinchi dastur yordamida boshqariladigan elektrmexanik hisoblash mashinasini yaratildi. Bu mashina bir vaqtida 64 ta raqamni saqlab qolib, ikkita sonni 0,3 soniyada qo'shish, 5 soniyada ko'paytirish imkoniyatiga ega bo'lgan.

1940 yilda amerikalik muhandis G. Eytken Bebbidj loyhasi asosida ikkilik-o'nlik sistemadan foydalaniib, **Mark-1** deb nomlangan birinchi universal dastur yordamida boshqariladigan hisoblash mashinasini yaratdi. **Mark-1** mashinasini mexanik ravishda ishlagan bo'lsa, 1947 yilda yaratilgan **Mark-2** to'laligicha elektrmexanik mashina hisoblangan.

XX asr o'ttalarida hisoblash mashinalarining ishlash tezligi asosiy muammo sifatida qaraldi. Bu esa kompyuterlarning paydo bo'lishiga olib kela boshladi. Kompyutering muhim xususiyati sifatida uning ishlash tezligi belgilandi.

1937-1942 yillarda amerikalik olimlar J. Atanasov va K. Bern rahbarligida birinchi EHMni yaratishga urinib ko'rishdi.

AQSh olimlari J. Mouchli va P. Ekkert rahbarligida 1945 yilda AQShning Pensilvaniya universiteti texnik xodimlari tomonidan birinchi EHM yaratildi va u **ENIAC** deb nomlandi. Bu kompyuter 18 mingta lampaga ega bo'lib, og'irligi 30 tonna, maydoni 120 m<sup>2</sup>, bir soniyada 5 mingta amal bajargan.

Fon Neyman kompyuterlarda saqlanadigan va hisoblanadigan ma'lumotlar perfokartalar va perfolentalar yordamida emas, dastur yordamida kompyutering o'zida saqlanish prinsipini ishlab chiqdi. Dastur yordamida saqlanadigan va hisoblanadigan birinchi kompyuter **EDSAC** nomli kompyuter bo'lib, 1949 yilda Buyuk Britaniyalik olim M. Uilks tomonidan yaratildi. Ushbu mashinadan boshlab kompyuterlarning birinchi avlodini hisoblash qabul qilingan.

Sobiq ittifoqda birinchi bo'lib akademik S.A. Lebedov rahbarligida 1951 yil Ukraina FA Elektronika institutida **MЭCM** deb nomlangan EHM yaratildi. 1954 yilda S.A. Lebedov rahbarligida **БЭCM** nomli EHM yaratilgan bo'lib, u 2048 ta xotira yacheysigiga ega bo'lib, 1 soniyada 9 ming amal bajarar edi. O'sha vaqda **БЭCM** jaxondagi eng tezkor EHM hisoblangan. Bundan tashqari shu davrda **Strela**, **Minsk**, **Dnepr**, **Ural**, **M-2**, **Mir** kabi EHMLar ham yaratilgan.

### **EHMlар avlodlari**

Kompyuterlar, ya'ni EHMLar 5 ta avlodga bo'lib o'rganiladi.

**1-avlod kompyuterlari** 1950-yillarda yaratilgan kompyuterlardir. Ularning hajmi  $60\text{-}80 \text{ m}^2$ , og'irligi 30 tonna atrofida bo'lган. Bu mashinalar minglab *elektron lampalar* asosida ishlashga mo'ljalangan bo'lib, xotira hajmi bir necha megabayt, ishlash tezligi 1 soniyada 1 mingtadan 10 mingtagacha amal bajargan. Bitta mashinani ishlatish uchun matematik, fizik, mehanik, elektrik kabi mutaxassislarining birgalikda ishlashi talab qilingan. Shuncha sarf-harajatlarga qaramay bu mashinalar oddiy hisob-kitoblarnigina amalga oshira olgan va asosan ilmiy va harbiy maqsadlarda qo'llanilgan. 1-avlod kompyuterlariga *ENIAC*, *EDVAC*, *EDSAC*, *UNIVAC*, *BECM*, *Strela*, *Minsk-1*, *M-20* va boshqalar kiradi.

**2-avlod kompyuterlari** 1960-yillarda yaratilgan. Ular 1-avlod mashinalariga qaraganda ancha ixcham bo'lib, lampalar o'mida *tranzistorlar* ishlatilgan. Xotira hajmi bir necha o'n megabayt, ishlash tezligi 1 soniyada 100 mingtacha amalga yetgan. Bu mashinalarda qo'yilgan masalalarni yechish uchun dasturlash tillaridan foydalanila boshlangan. 2-avlod kompyuterlariga *Minsk2*, *Ryazan*, *ATLAS*, *BECM-4*, *BECM-6*, *Mir*, *Minsk-22*, *Minsk-32*, *M-220* va boshqalar kiradi.

**3-avlod kompyuterlari** 1970-yillarda yaratilgan. Bu mashinalarda tranzistorlar o'mida minglab tranzistorlarni o'zida birlashtirgan *integral sxemalar* qo'llanilgan. Xotira hajmi 100 Megabaytdan ko'proq, bir soniyada bir milliontagacha amal bajara olgan. Shu davrdan boshlab monitor, klaviatura kabi qurilmalar alohida qurilma sifatida yaratila boshlangan. Shuningdek, ushbu davrdan boshlab *mikroprotsessorlar* paydo bo'lgan. Birinchi mikroprotsessor **Intel 4004** deb nomlanib, 1971 yilda **Intel** firmasi tomonidan yaratilgan. 3-avlod kompyuterlariga *Ural-11*, *Ural-12*, *ES* va *SM* seriyali EHMLar kiradi.

**4-avlod kompyuterlari** 1980-yillardan keyin yaratilgan mashinalar. Bu mashinalarda integral sxemalar o'mida *katta integral sxemalar* ishlatiladi. Doimiy xotira bajmi 1 Gegabaytdan ortiq, ishlash tezligi 1 soniyada 1 milliondan ko'p amal bajaradi. Hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan kompyuterlar ham 4-avlod kompyuterlariga tegishli bo'lib, doimiy xotira hajmi Terabaytgacha, tezligi bir sekundda bir necha milliard amal bajarishgacha yetgan. 4-avlod mashinalariga *Elburs-2*, *M-10* EHMLaridan boshlab hozirgi kungacha chiqarilayotgan kompyuterlar kiradi.

**5-avlod kompyuterlari** loyihalashtirilgan va yaratilish ostonasida turgan kompyuterlardir. Bunday kompyuterlarda katta integral sxemalar o'rniда *nevron qatlamlari* *optik tolalar* qo'llaniladi. 5-avlod kompyuterlarining hozirgi kompyuterlardan asosiy farqi shundan iborat bo'ladiki, ular sun'iy fikrlash qobiliyatiga ega bo'ladи va vaziyatga qarab ma'lum kerakli qarorlarni chiqaradi hamda texnologik jarayonlarni boshqarish vazifasi

yuklatiladi. Bundan tashqari ma'lumotlarni og'zaki kiritish va boshqarish ishlarini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

Izoh

Yaponiyalik olimlar bunday imkoniyatlarga ega bo'lgan mashinalarni bir necha bor ishlab chiqarishga urmib ko'rinishdi. Ammo ular 5-avlod komtyuterlari sifatida tan olinganicha yo'q. Yaponiyadan tashqari AQSh, Rossiya va bir necha G'arb mamlakatlari olimlari ham bu ish ustida jiddiy izlanishlar olib borishmoqda.

### Kompyuterlar sinflari

Kompyuterlar tuzilishi va funksional imkoniyatlariga ko'ra shartli ravishda 3 ta sinfga bo'linadi:

- *superkompyuterlar*;
- *universal kompyuterlar*;
- *shaxsiy kompyuterlar*.

*Superkompyuterlar* juda murakkab va katta hajmdagi masalalarni yechishga mo'ljallangan maxsus ishlab chiqariladigan kompyuterlar bo'lib, avtomatlashirilgan juda katta zavod va korxonalarda, ma'lum vazifalarni bajaradigan robotlarni boshqarishda, turli ilmiy tadqiqot muassasalarida, xususan fazoviy tadqiqot o'tkazadigan yoki ob-havo ma'lumotlarini aniqlaydigan tashkilotlarda, raketa va kosmik himoyalanish masalalarida, atom va yadroviy tadqiqotlar o'tkazishda qo'llaniladi. Bu superkompyuterlar bir necha ming mikroprotsessorrarga ega bo'lib, bir sekundda trillionlab operatsiya bajara oladi. Bunday kompyuterlar asosan AQSh, Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Rossiya kabi fan-texnikasi rivojlangan mamlakatlarda mavjud.

Izoh

Hozirda dunyodagi eng katta superkompyuter AQShda joylashgan bo'lib, mingdan ortiq ilmiy tadqiqot muassasalari undan murakkab masalalarni yechishda tarmoq orqali foydalanishlari mumkin. Bu superkompyuter *CrayXI* deb nomlanib, 1 soniyada 52 trillion amal bajarish imkoniga ega.

Imkoniyat jihatidan 2-o'rinda Yaponiyadagi 1 soniyada 30 trillion amal bajaradigan *Yearz Simulator* superkompyuteri, 3-o'rinda 1 soniyada 12,4 trillion amal bajaradigan AQShdag'i *ASCI White* superkompyuteri turadi.

*Universal kompyuterlar (meynfreymlar)* ham talabga qarab maxsus ishlab chiqariladigan kompyuterlar bo'lib, zavod, tashkilot, kompaniyalarda ma'lum murakkab va katta hajmli masalalarni yechishda, xususan juda katta o'lchamdag'i massivlar bilan ishslashda, global va lokal tarmoqlarni boshqarishda qo'llaniladi.

*Shaxsiy kompyuterlar* (ShK) eng keng tarqalgan kompyuterlar bo'lib,

dunyodagi kompyuterlarning asosiy qismini tashkil etadi. Shaxsiy kompyuterlar ham o'z navbatida *stol kompyuteri (desktop)*, *noutbuk (notebook)*, *netbuk (netbook)*, *ishchi stansiya (work station)*, *cho'ntak kompyuterlari* kabi ko'plab turlarga bo'linadi. Shaxsiy kompyuterlar hozirgi kunda respublikamizdagi barcha ta'lim muassasalari, tashkilot, kompaniyalarda hamda boshqaruv, meditsina kabi boshqa muassasalarda, shuningdek har bir shaxsning kundalik hayotida keng foydalilaniladi.

Kompyuter (EHM)lar umumiy ravishda *arifmetik-logik, boshqaruvi, xotira va tashqi qurilmalardan tashkil topadi*.

Bundan buyon asosan shaxsiy kompyuterlarning *stol kompyuteri va noutbuk turlari* hamda ularning imkoniyatlari nazarda tutiladi.

Hozirgi kunda kompyuter ishlab chiqaruvchi ko'plab firmalar faoliyat yuritmoqda. Bularga **DEL, HP, IBM, Apple, Toshiba, Acer** kabi firmalarni misol keltirish mumkin.

Stol kompyuterining asosiy qurilmalari quyidagilar:

- *tizimli blok;*
- *monitor;*
- *klaviatura;*
- *sichqoncha.*

1. **Tizimli blok** kompyuterning eng asosiy qurilmasi hisoblanadi. Uning asosiy qismlari quyidagilar:

- ❖ **tizimli plata** – bosh plata hisoblanib, mikroprotsessor, operativ xotira kabi asosiy qurilmalar shu plataga mahkamlanadi. Shuningdek tizimli platada doimiy xotira, kesh xotira, audiokarta, videokarta kabi ko'plab qurilmalar joylashadi. Ba'zan bu qurılma *ona plata (motherboard)* deb ham ataladi. Chunki barcha qurilmalar mosligini tiziqli plata ta'minlaydi;
- ❖ **mikroprotsessor** – kompyuterning “miyasi” bo'lib, berilayotgan barcha buyruqlarni, amallarni va umuman barcha operatsiyalarni bajarishni ta'minlaydi. Bu qurılma **CPU** (Central Processing Unit – markaziy qayta ishlovchi qurılma) yoki oddiyiga **protsessor** deb ham ataladi. Hozirgi kunda asosan Intel firmasining **Pentium IV, Core 2 duo, Core i7, i5** kabi mikroprotsessorlari keng qo'llanilmoqda. Mikroprotsessorlar uchun tezlik muhim ro'l o'ynaydi. Tezlik MHz (mega-gers), GHz (gigahers) larda o'chanadi. Hozirda 2.5, 2.7 GHz va undan yuqori tezlikdagi mikroprotsessorlar ishlab chiqarilmoqda;
- ❖ **tezkor (operativ) xotira** – kompyuter ishlab turganda foydalilanayotgan barcha tizimli va amaliy dasturlarni hamda kiritilayotgan va bajarilayotgan amallarni vaqtinchalik saqlab turadigan xotira qurilmasi. Bu qurılma **OЗУ** (оперативное запоминающее устройство), **RAM** (Random

- access memory) nomlari bilan ham ataladi. Hozirgi vaqtida 2 Gb (gegabayt), 4 Gb li tezkor xotiralar ishlab chiqarilmoqda. Tezkor xotira hajmi qanchalik katta bo'lsa, kompyuterning ishlash tezligi va bir necha murakkab dasturlardan bir vaqtida foydalanish imkoniyatlari ortadi;
- ❖ **qattiq disk** – kompyuterning asosiy xotirasini bo'lib, barcha turdag'i ma'lumotlarni va dasturlarni doimiy saqlab turishga mo'ljallangan xotira. Bu qurilma **vinchester** yoki **HDD** (hard disk drive) deb ham ataladi. Qattiq disk xotira hajmlari 80 Gb, 160 Gb, 250 Gb, 500 Gb, 1 Tb (terabayt) va boshqa ko'rinishlarda bo'ladи;
  - ❖ **kesh xotira** – mikroprotsessor va operativ xotira orasiga o'matilib, kompyuter ishlash tezligini yanada oshirish uchun qo'llaniladi. Kesh xotira vazifasi va tuzilishi jihatidan deyarli operativ xotiraga o'xshash bo'lib, operativ xotiradan ancha tez ishlaydi. Kesh xotira hajmi hozirgi kunda odatda 1-3 Mb bo'ladи;
  - ❖ **doimiy xotira** – kompyuterning ishlashini ta'minlab beruvchi kompleks dastur (**BIOS**) joylashgan bo'lib, **ПЗУ** (постоянное запоминающее устройство) yoki **ROM** (Read only memory) deb ham ataladi;

**Izoh**

Doimiy xotiraga yozilgan dastur faqat bir marta ishlab chiqarilgan zavodda yoziladi va undan faqat o'qish uchin foydalaniladi. Bu dasturlar qurilmalar ishlashini tekshirish, klaviatura, monitor, xotira qurilmalari o'tasida ma'lumot almashish bilan bog'liq doimiy amallarni bajarishni ta'minlaydi.

- ❖ **videokarta** (videoadapter) – monitorda video ma'lumotlarni aks ettirish uchun qo'llaniladi;
- ❖ **shinalar** – kompyuter qurilmalari aloqasini ta'minlash uchun qo'llaniladigan maxsus simlar;
- ❖ **portlar** – kompyuter qurilmalarini tizimli blokka ulash uchun mo'ljallangan maxsus joylar;
- ❖ **DVD-RW** (*Digital versatile disk rewriteable*) – kompakt disklardagi ma'lumotlarni o'qish va ularga yozish uchun mo'ljallangan qurilma.

Bulardan tashqari tizimli blokka *ichki modem*, *tarmoq adapteri*, *tovush adapteri*, *TV-tyuner* kabi kompyuter imkoniyatlarini oshiradigan ko'plab qurilmalar o'matilishi mumkin.

**2. Monitor** – ma'lumotlarni aks ettiruvchi qurilma. Hozirgi kunda asosan videografikli **SVGA** (Super video graphic array) va tezlik bilan rivojlanayotgan suyuq kristalli **LCD** (Liquid crystal display) turidagi monitorlar ishlatalmoqda. Monitor gorizontal va vertikal koordinatali mayda elektron nuqtalardan tashkil topgan bo'lib, bu nuqtalar *piksellar* deb ataladi. Piksellarni qanchalik ko'p bo'lsa, tasvir shunchalik aniq ko'rinishi mumkin.

**3. Klaviatura** – kompyuterga ma'lumotlarni kiritish va boshqarish

uchun mo'ljallangan qurilma. U odatda standart 107 ta tugmadan iborat bo'ladi. Klaviatura tugmalari shartli ravishda *ma'lumotlarni kiritish tugmalari* (harflar, sonlar, belgilar), *boshqarish tugmalari* va *funktional tugmalarga* (F1,F2,...,F12) bo'linadi.

**4. Sichqoncha** – kompyuter ishlarini boshqarish uchun mo'ljallangan qurilma.

Sichqoncha qurilmasi ilgari qo'shimcha qurilma sifatida qaralgan bo'lsa, Windows OT paydo bo'lgandan so'ng kompyuterning asosiy qurilmalaridan biriga aylandi. Chunki Windows OT paydo bo'lgandan so'ng Photoshop, Macromedia Flash, 3-Dmax, Corel Draw, AutoCad kabi axborot texnologiyalari imkoniyatlарини belgilaydigan, sichqoncha bilan ishlab bo'lmaydigan zamонавиy dasturlar paydo bo'ldi.

Shaxsiy kompyuterning qo'shimcha qurilmalariga quyidagilar kiradi:

- **printer** – ma'lumotlarni chop etuvchi qurilma. Hozirgi kunda lazerli printerlar ishlab chiqarilmoqda. Bunday printerlarda ma'lumotlar siyohni lazer nurlari yordamida yo'naltirish yordamida hosil qilinadi;
- **skaner** – ma'lumotlarni kompyuterga kiritish qurilmasi;
- **plotter** – ma'lumotlarni katta formatdagi qog'ozlarga yoki maxsus listlarga chiqarish qurilmasi;
- **videoproektor** – kompyuterdagи ma'lumotlarni maxsus doskaga kattalashtirib beruvchi qurilma;
- **elektron doska** – bir vaqtda oddiy doska va videoproyektor sifatida foydalanish mumkin bo'lgan, bunda barcha amallarni bevosita elektron tarzda boshqarish imkonini beruvchi qurilma;
- **modem** – kompyuterdagи raqamli ma'lumotlarni telefon tarmog'ida tovushli signallarga va aksincha tovushli signallarni raqamli ma'lumotlarga aylantirib beruvchi qurilma bo'lib, internetga chiqishni ta'minlaydi;
- **kompakt disk** – ma'lumotlarni tashqi xotirada saqlash qurilmasi. Kompakt disklarning har xil imkoniyatlarga ega bo'lgan **CD-R**, **CD-RW**, **DVD-R**, **DVD-RW** kabi turlari mavjud;
- **flesh-xotira** (fleshka) – ma'lumotlarni tashish uchun mo'ljallangan qurilma;
- **videoglazok** – maxsus plyonkadagi yoki qog'ozdagи ma'lumotlarni kattalashtirib beruvchi qurilma;
- **xab** – lokal tarmoqdagи kompyuterlarni birlashituvchi qurilma;  
Bularidan tashqari **Joystik** (sichqoncha o'mida ishlatilib, maxsus o'yinlar o'ynash uchun mo'ljallangan qurilma), **Trekbol** (sharikli boshqaruv tizimiga ega bo'lib, odatda noutbuklarda sichqoncha o'mida qo'llaniladi), **Digitayzer** (vazifasi skaner qurilmasiga o'xshash bo'lib, yuqori sifatdagi

hamda aniqlikdagi rasm va grafiklarni kompyuterga kiritish uchun mo'ljallangan qurilma), *ovoz chiqarish kolonkalari, mikrofon, raqamli fotoapparat, raqamli videokameralar* kabi ko'plab qurilmalar mavjud.

## Kompyuterning dasturiy ta'minoti

Umuman olganda kompyuter ikki qismdan, ya'ni *fizik ta'minot* (hardware) va *dasturiy ta'minot* (software) dan iborat bo'ladi. Fizik qismga kompyuterning barcha qurilmalari kiradi.

Kompyuterning dasturiy ta'minoti ham o'z navbatida 3 qismga bo'linadi:

- tizimli dasturlar;
- amaliy dasturlar;
- dasturlash tizimlari (instrumental dasturlar).

Tizimli dasturlarga kompyuter ishlashini ta'minlovchi, foydalanuvchilarga amaliy dasturlar bilan ishlashni qulaylashtiruvchi quyidagi turdag'i dasturlar kiradi:

- operatsion tizimlar;
- qobiq operatsion tizimlar (NC va b.);
- utilitalar;
- drayverlar;
- arxivlash dasturlari;
- antivirus dasturlari va b.

Amaliy dasturlarga kompyuter foydalanuvchilari ishlatadigan barcha dasturlar, xususan, axborotlar bilan ishlaydigan, axborot texnologiyalari qo'llaniladigan, aniq masalalarni yechishga mo'ljallangan quyidagi turdag'i dasturlar kiradi:

- matn muhartirlari (Bloknot, WordPad, Word, Tex va b.);
- nashriyot tizimlari (Adobe PageMaker, Ventura Publisher va b.);
- grafik va animatsiya redaktorlari (Paint, Corel Draw, Adobe Photoshop, Adobe Illustrator, Flash, 3DStudioMax va b.);
- avtomatik loyihalash tizimlari (AvtoCAD, "Компас" va b.);
- elektron jadvallar (Excel, Lotus, SuperCalc va b.);
- ma'lumotlar bazasi hoshgarish tizimlari (Access, FoxPro, MySQL, Oracle va b.);
- taqdimot dasturlari (PowerPoint, Freelance Graphics va b.);
- matematik dasturlar (MathCAD, Maple, Mathlab va b.);
- dastur paketlari (Microsoft Office, FrameWork va b.);
- moliya va buxgalteriya dasturlari ("1C:Бухгалтерия", RS-BANK, ЭДИП, "Альт-Финансы" va b.);

- kompyuter o'yinlari;
- multimediya dasturlari (MediaPlayer, KMPlayer va b.);
- videomontaj dasturlari (Movie Maker, Pinnacle Studio va b.);
- elektron darsliklar, lug'atlar, ma'lumotnomalar va h.k.  
Dasturlash tizimlariga barcha dasturlarni yaratuvchi, moslashtiruvchi va tuzatuvchi quyidagi turdag'i dasturlar kiradi:
- dastur yaratish muhitlari (Delphi, Visual Basic, C++ va b.)
- translyatorlar;
- kompilyator va interpretatorlar;
- tuzatuvchi daturlar va b.

### **Windows operatsion tizimi**

*Windows* eng keng tarqalgan, umumiyligi foydalanuvchilar uchun qulay bo'lgan operatsion tizimdir.

*Operatsion tizim* deb foydalanuvchi bilan kompyuter o'rtaida aloqani ta'minlab beruvchi tizimga aytildi. Operatsion tizim juda ko'p dasturlar to'plamidan iborat bo'lib, har bir dastur aniq bir vazifani bajaradi. Operatsion tizim (OT) larga Windows, Unix, Linux, MSDOS kabilalar misol bo'ladi.

Windows OT 1983 yildan Microsoft firmasi tomonidan ishlab chiqarila boshlangan bo'lib, uning juda ko'p versiyalari yaratilgan. Masalan, Windows 3.0 (1990 y.), Windows 95, Windows 98, Windows NT (2000), Windows XP (2001), Windows 7 (2009), Windows 8 (2012) va b.

Windows OT kompyuter yoqilishi bilan ishga tushadi va ekranda uning ishchi stoli hosil bo'ladi. *Ishchi stol* asosiy soha va masalalar panelidan iborat.

Asosiy sohada quyidagilar joylashgan:

*Мой компьютер* – lokal disklar hamda hujjatlar saqlash uchun mo'ljallangan papka joylashgan obyekt.

*Мои документы* – hujjatlar saqlash uchun mo'ljallangan papka.

*Корзина* – o'chirilgan fayllar saqlanadigan joy.

*Сетевое окружение* – lokal tarmoqqa ulangan kompyuterlarga murojaat qilish obyekti.

*Internet Explorer* – Internet sahifasini ko'rish brauzeri va b.

Masalalar panelida *Пуск* tugmasi hamda soat, yozuv tili, antivirus kabi doimiy ravishda ishlatiladigan dasturlar yorliqlari joylashgan.

*Пуск* tugmasi bosilganda Windowsning bosh menyusi hosil bo'ladi. Windowsning bosh menyusida *Мой компьютер*, *Мои документы*, foydalanilgan oxirgi dasturlar, shuningdek quyidagilar mavjud:

*Все программы* bo'limi orqali dasturlar ishga tushiriladi.

*Недавные документы* bo'limida foydalanilgan oxirgi hujjatlar ro'yxati joylashgan.

**Панель управления** bo'limi tizimli va amaliy dasturlami sozlash, o'matish, o'chirish, kompyuter qurilmalarini dasturiy jihatdan bog'lash va sozlash ishlarini bajarishga mo'ljallangan.

**Поиск** menyusi yordamida ma'lumotlar va obyektlar qidiriladi.

**Справка** bo'limidan Windows va unda ishlash bo'yicha to'liq ma'lumot olish mumkin.

**Выполнить** menyusi orqali Windowsning ba'zi buyruqlarini sichqonchasiz va menyusiz tez bajarish mumkin.

**Выход из системы** buyrug'i boshqa foydalanish muhitiga o'tish va joriy foydalanish muhitini ishini tugallashni ta'minlaydi.

**Выключение** buyrug'i orqali kompyuterni o'chirish, Windowsni qayta yuklash kabi ishlar bajariladi.

Ma'lumki, "Windows" so'zi "oynalar" degan ma'noni bildiradi. Windowsda barcha dasturlar, obyektlar oynalar va darchalar ko'rinishida ochiladi.

Sichqonchaning chap tugmasi obyekt ustida bir marta bosilsa, obyekt belgilanadi, menu ustida bosilsa, buyruq yoki dastur ishga tushiriladi. Sichqonchaning chap tugmasi ikki marta bosilganda obyekt ochiladi. Sichqonchaning o'ng tugmasi biror obyekt ustida bosilsa, o'sha obyektning kontekst menyusi ochiladi.

**Kontekst menu** – obyekt ustida bajarish mumkin bo'lgan buyruqlar ro'yxatidir.


**Papka** – fayllar saqlanadigan maxsus obyekt.

**Yorliq** – obyektga murojaat qilishga imkon beruvchi nishon.

**Total Commander qobiq operatsion tizimi**

Odatda Windowsda ishlashni tezlashtirish va qulaylashtirish maqsadida **qobiq operatsion tizimlardan** foydalaniladi. Oldin MSDOS OT uchun ko'proq **Norton Commander (NC)** ishlatilgan bo'lsa, hozirgi kunda Windows OT uchun **Total Commander (TC)** qobiq operatsion tizimidan foydalaniladi.

Total Commander kompyuterga o'matilgan bo'lsa, uni ishga tushirish yorlig'i *Bosh menyuning Bee программы* yoki *Ishchi stol, Masalalar paneli*, **Пуск** tugmasi kabi qulay menyularda ham hosil bo'ladi (1-rasm).



I-rasm Total Commander interfeysi

Dasturda menyular va uskunlalar paneli orqali Windowsdagi deyarli barcha amallami bajarish mumkin. Shuningdek quyidagi *funktional tugmalar* va tugmalar kombinatsiyalaridan keng foydalilaniladi:

- F1 – Total Commanderda ishlash bo'yicha to'liq ma'lumotnoma olish;
- F2 – fayl yoki katalog nomini o'zgartirish;
- F5 – fayl yoki katalogni nushalash;
- F6 – fayl yoki kataloglarni ko'chirish va nomini o'zgartirish;
- F7 – yangi katalog yaratish;
- F8 – fayl yoki katalogni o'chirish;
- Tab – bir paneldan boshqasiga o'tish;
- Alt+F1 – chap panelga disklar ro'yxatini chiqarish;
- Alt+F2 – o'ng panelga disklar ro'yxatini chiqarish;
- Alt+Enter – fayl yoki katalog xossalalarini ko'rish;

Total Commander bilan birga Windowsda ham ko'p ishlataladigan tugmalar kombinatsiyalari:

- Ctrl+C – fayl yoki papkani almashinuv buferiga nushalsh;
- Ctrl+X – fayl yoki papkani almashinuv buferiga ko'chirish;
- Ctrl+V – almashinuv buferidagi fayl yoki papkani qo'yish;
- Ctrl+Z – bajarilgan buyruqni bekor qilish;
- Ctrl+Y – bekor qilingan buyruqni tiklash;
- Ctrl+A – obyektdagi barcha fayl va papkalarni belgilash;
- Alt+F4 – joriy fayl, papka yoki dasturni yopish;
- Alt+Tab – ochilgan oynalarning keraklisiga o'tish;
- Windows+D – ochilgan barcha oynalami masalalar paneliga yig'ish.

## Sanoq sistemalari

Kompyuterda barcha turdag'i axborotlar faqat sonli ma'lumotlar ko'ri-nishida yaratiladi va qayta ishlanaadi. Foydalanuvchi uchun u kerakli ko'ri-nishda, ya'ni matn, son, rasm, video ma'lumotlar shaklida ekrandagina namoyon bo'ladi. Ixtiyoriy bitta belgi kompyuter xotira qurilmasidagi ketma-ket joylashgan sakkizta elektron yacheykani egallaydi. Elektron yachey-kada signal bor bo'lsa, 1, signal yo'q bo'lsa, 0 deb belgilash kiritildi. Demak, barcha ma'lumotlar 0 va 1 raqamlaridan iborat bo'ladi. 0 va 1 raqamlari ketma-ketliklari va ular ustidagi amallar qoidalari *ikkilik sanoq sistemasini* tashkil etadi. Har qanday belgi bir *bayt*, bitta signal bir *bit* hisoblanadi. Demak, bitta belgi sakkizta 0 va 1 larning biror ketma-ketligi dan iborat bo'ladi. Barcha harflar, sonlar, standart buyruqlar, ranglar, belgilar (jami 256 ta) ASCII (American standart code information interchange) yoki ANSI (American national standard institute) kodlash tizimi asosida 0 va 1 lar ko'rinishida ifodalanadi.

Axborotlarning o'lcov birliklari orasidagi bog'lanish quyidagicha:

1 *bayt* = 8 *bit*,

1 *Kb (kilobayt)* =  $2^{10}$  *bayt*,

1 *Mb (megabayt)* =  $2^{10}$  *Kb* =  $2^{20}$  *bayt*,

1 *Gb (gigabayt)* =  $2^{10}$  *Mb* =  $2^{20}$  *Kb* =  $2^{30}$  *bayt*,

1 *Tb (terabayt)* =  $2^{10}$  *Gb* =  $2^{20}$  *Mb* =  $2^{30}$  *Kb* =  $2^{40}$  *bayt*.

**Izoh:** Yuqoridaqilardan tashqari Pb (petabayt; 1 Pb =  $2^{40}$  *bayt*), Eb (eksabayt; 1 Eb =  $2^{60}$  *bayt*), Zb (zetabayt; 1 Zb =  $2^{70}$  *bayt*), Yb (yottabayt, 1 Yb =  $2^{80}$  *bayt*) kabi axborot o'lcov birliklari ham mavjud.

Ikkilik va kundalik turmushda qo'shiladigan o'nlik sanoq sistemalaridan tashqari qadimda beshlik, yettilik, sakkizlik sanoq sistemalari ham ishlatalgan. Hozirgi kunda ikkilik sanoq sistemasida hosil bo'ladigan juda katta sonlarni ifodalashni soddalashtirish maqsadida o'n oltilik sanoq sistemasidan ham foydalaniladi. Biz bu sanoq sistemalaridan ikkilik, sakkizlik, o'nlik va o'n oltilik sanoq sistemalarini ko'rib o'tamiz. Bu sistemalardagi natural sonlar ketma-ketligi quyidagi moslikda bo'ladi:

1-jadval. Sanoq sistemalari va ular orasidagi moslik

2 lik	0	1	10	11	100	101	110	111	1000	1001	1010	1011	1100	1101	1110	1111	10000
8 lik	0	1	2	3	4	5	6	7	10	11	12	13	14	15	16	17	20
10 lik	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
16 lik	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	A	B	C	D	E	F	10

Ixtiyoriy p sanoq sistemasidagi  $a_1a_2\dots a_{n[p]}$  butun sonni o'nlik sanoq

sistemasiiga o'tkazish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$a_1a_2\dots a_{n[p]} = a_1p^{n-1} + a_2p^{n-2} + \dots + a_np^0 + a_{n+1}p^{-1} + \dots + a_{n+m}p^{-m} \quad (1)$$

Agar berilgan son  $a_1a_2\dots a_n a_{n+1}a_{n+2}\dots a_{n+m}$  ko'rinishidagi kasr son bo'lsa, o'nlik sanoq sistemasiga o'tkazish formulasi quyidagicha bo'ladi:

$$a_1a_2\dots a_n a_{n+1}\dots a_{n+m[p]} = a_1p^{n-1} + a_2p^{n-2} + \dots + a_np^0 + a_{n+1}p^{-1} + \dots + a_{n+m}p^{-m} \quad (2)$$

bu formulalarda  $a_1, a_2, \dots, a_n, \dots, a_{n+m}$  lar sonni tashkil etuvchi raqamlar,  $p$  – berilgan sonning asosi,  $1, 2, \dots, n$  lar berilgan sonning butun qismi raqamlari nomerlari,  $n+1, n+2, \dots, n+m$  lar berilgan sonning kasr qismining raqamlari nomerlari.

O'nlik sanoq sistemasida berilgan butun sonni ixtiyoriy sanoq sistemasiga o'tkazish uchun berilgan son o'tilayotgan sistema asosiga bo'linma bo'lувчидан кичик bo'lguncha bo'lib boriladi va bo'linma qoldiqlar bilan teskari tartibda olinadi.

O'nlik sanoq sistemasida berilgan o'nli kasr ko'rinishidagi sonni ixtiyoriy sanoq sistemasiga o'tkazish uchun berilgan sonning butun qismi alohida, kasr qismi alohida o'tkaziladi va chiqqan natijalar qo'shiladi. Bunda, berilgan sonning butun qismi o'tilayotgan sistema asosiga bo'linma bo'lувчидан кичик bo'lguncha bo'lib boriladi va bo'linma qoldiqlar bilan teskari tartibda olinadi, berilgan sonning kasr qismi esa o'tilayotgan sistema asosiga toki kasr qism yo'qolguncha ketma-ket ko'paytirib boriladi va natijalarning butun qismlari ketma-ket olinadi, bunda kasr qismiga ko'paytirilayotganda butun qismi doimo nol deb qaraladi.

Ikkilik sanoq sistemasiidan sakkizlikka, sakkizlikdan o'n otililikka o'tkazish kabi hollarda, berilgan son avvalo o'nlikka o'tkazilib, hosil bo'lgan o'nlikdagi son kerakli sistemaga o'tkaziladi.

### Misollar

#### Sonlarni bir sanoq sistemasidan boshqasiga o'tkazish

1)  $1011011_{[2]}$ ,  $3507_{[8]}$ ,  $D3A_{[16]}$  sonlarini o'nlik sanoq sistemasiga o'tkazing.

$$1011011_{[2]} = 1 \cdot 2^6 + 0 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^4 + 1 \cdot 2^3 + 0 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^0 = 64 + 16 + 8 + 2 + 1 = 91_{[10]}$$

$$3507_{[8]} = 3 \cdot 8^3 + 5 \cdot 8^2 + 0 \cdot 8^1 + 7 \cdot 8^0 = 3 \cdot 512 + 5 \cdot 64 + 7 = 1536 + 320 + 7 = 1863_{[10]}$$

$$D3A_{[16]} = D \cdot 16^2 + 3 \cdot 16^1 + A \cdot 16^0 = 13 \cdot 256 + 48 + 10 = 3386_{[10]}$$

2)  $91_{[10]}$ ,  $1863_{[10]}$ ,  $3386_{[10]}$  sonlarini mos ravishda ikkilik, sakkizlik va o'n otililik sanoq sistemalariga o'tkazing.

$$\begin{array}{r}
 91 \Big| 2 \\
 90 \Big| 45 \Big| 2 \\
 -1 \quad 44 \Big| 22 \Big| 2 \\
 \phantom{-}1 \quad 22 \Big| 11 \Big| 2 \\
 \phantom{-}0 \quad 10 \Big| 5 \Big| 2 \\
 \phantom{-}1 \quad 4 \Big| 2 \Big| 2 \\
 \phantom{-}1 \quad 2 \Big| 1 \\
 \phantom{-}0
 \end{array}$$

$$91_{[10]} = 1011011_{[2]}$$

$$\begin{array}{r}
 1863 \Big| 8 \\
 1856 \Big| 232 \Big| 8 \\
 -7 \quad 232 \Big| 29 \Big| 8 \\
 \phantom{-}0 \quad 24 \Big| 3 \\
 \phantom{-}5
 \end{array}$$

$$1863_{[10]} = 3507_{[2]}$$

$$\begin{array}{r}
 3386 \Big| 16 \\
 3376 \Big| 211 \Big| 16 \\
 -10 \quad 208 \Big| 3
 \end{array}$$

$$3386_{[16]} = D3A_{[2]}$$

3)  $11,001_{[2]}$ ,  $5,27_{[8]}$  va  $S, A_{[16]}$  sonlarini o'nlik sanoq sistemalariga o'tkazing.

$$11,001_{[2]} = 1 \cdot 2^5 + 1 \cdot 2^0 + 0 \cdot 2^1 + 0 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^{-3} = 3 + 0,125 = 3,125_{[10]}$$

$$5,27_{[8]} = 5 \cdot 8^0 + 2 \cdot 8^1 + 7 \cdot 8^{-2} = 5 + 0,25 + 0,109375 = 5,359375_{[10]}$$

$$S, A_{[16]} = C \cdot 16^0 + A \cdot 16^{-1} = 12 + 0,625 = 12,625_{[10]}$$

4)  $3,125_{[10]}$ ,  $5,359375_{[10]}$  va  $12,625_{[10]}$  sonlarini mos ravishda sakkizlik va o'n oltilik sanoq sistemalariga o'tkazing.

$$\begin{array}{r}
 3 \Big| 2 \\
 2 \Big| 1 \\
 1
 \end{array}$$

$$3_{[10]} = 11_{[2]}$$

$$\begin{array}{r}
 0,125 \times 2 \\
 0,25 \times 2 \\
 0,5 \times 2 \\
 1
 \end{array}$$

$$0,125_{[10]} = 0,001_{[2]}$$

Demak,  $3,125_{[10]} = 11,001_{[2]}$

$$\begin{array}{r}
 5 \Big| 8 \\
 0 \Big| 0 \\
 5
 \end{array}$$

$$5_{[10]} = 5_{[8]}$$

$$\begin{array}{r}
 0,359375 \times 8 \\
 2,875 \times 8 \\
 7
 \end{array}$$

$$0,359375_{[10]} = 0,27_{[8]}$$

Demak,  $5,359375_{[10]} = 5,27_{[8]}$

$$\begin{array}{r}
 12 \Big| 16 \\
 0 \Big| 0 \\
 12
 \end{array}$$

$$12_{[10]} = C_{[16]}$$

$$0,625_{[10]} = 0,625_{[16]}$$

$$0,625_{[10]} = 0,A_{[16]}$$

Demak,  $12,625_{[10]} = C, A_{[16]}$

### *Sanoq sistemalaridagi sonlar ustida amallar*

1) Ikkilik sanoq sistemasidagi quyidagi amallarni bajaring:

a)  $1011101_{[2]} + 111011_{[2]} = x_{[2]}$ ,  $x_{[2]} - 111011_{[2]} = y_{[2]}$ ,  $x, y$  lami toping.

$$\begin{array}{r}
 1011101_{[2]} \\
 + 111011_{[2]} \\
 \hline 10011000_{[2]}
 \end{array}$$

Demak,

b)  $101_{[2]} \cdot 111_{[2]} = x_{[2]}$ ,  $x_{[2]} : 111_{[2]} = y_{[2]}$ ,  $x, y$  lami toping.

$$\begin{array}{r}
 10011000_{[2]} \\
 - 111011_{[2]} \\
 \hline 1011101_{[2]}
 \end{array}$$

$$y = 1011101_{[2]}$$

$$\begin{array}{r} \times 101_{[2]} \\ \hline 101 \\ 101 \\ \hline 100011_{[2]} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 100011 \\ \hline 111 \\ 111 \\ \hline 0 \end{array}$$

Demak,  $x=100011_{[2]}$ ,

$$y=101_{[2]}$$

2) Sakkizlik sanoq sistemasidagi quyidagi amallarni bajaring:

a)  $624_{[8]} + 765_{[8]} = x_{[8]}$ ,  $x_{[8]} - 765_{[8]} = y_{[8]}$ ,  $x, y$  larni toping.

$$\begin{array}{r} 624_{[8]} \\ + 765_{[8]} \\ \hline 1611_{[8]} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 1611_{[8]} \\ - 765_{[8]} \\ \hline 624_{[8]} \end{array}$$

Demak,  $x=1611_{[8]}$ ,  $y=624_{[8]}$

b)  $45_{[8]} \cdot 34_{[8]} = x_{[8]}$ ,  $x_{[8]} : 34_{[8]} = y_{[8]}$ ,  $x, y$  larni toping.

$$\begin{array}{r} 45_{[8]} \\ \times 34_{[8]} \\ \hline 224 \\ 157 \\ \hline 2014_{[8]} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 2014 \mid 34 \\ 160 \mid 45 \\ \hline 214 \\ 214 \\ \hline 0 \end{array}$$

Demak,  $x=2014_{[8]}$ ,  $y=45_{[8]}$

3) O'n otilik sanoq sistemasidagi quyidagi amallarni bajaring:

a)  $9DF_{[16]} + A57_{[16]} = x_{[16]}$ ,  $x_{[16]} - A57_{[16]} = y_{[16]}$ ,  $x, y$  larni toping.

$$\begin{array}{r} 9DF_{[16]} \\ + A57_{[16]} \\ \hline 1436_{[16]} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 1436_{[16]} \\ - A57_{[16]} \\ \hline 9DF_{[16]} \end{array}$$

Demak,  $x=1436_{[16]}$ ,  $y=9DF_{[16]}$

b)  $6B_{[16]} \cdot 12_{[16]} = x_{[16]}$ ,  $x_{[16]} : 6B_{[16]} = y_{[16]}$ ,  $x, y$  larni toping.

$$\begin{array}{r} 6B_{[16]} \\ \times 12_{[16]} \\ \hline D6 \\ 6B \\ \hline 786_{[16]} \end{array}$$

$$\begin{array}{r} 786 \mid 6B \\ 6B \mid 12 \\ \hline D6 \\ \hline 0 \end{array}$$

Demak,  $x=786_{[16]}$

$$y=12_{[16]}$$

## Algoritmlar

“Algoritm” so‘zi buyuk o‘zbek matematigi Al-Xorazmiy nomidan olingan bo‘lib, u birinchi bo‘lib arab raqamlardan foydalangan holda arifmetik amallarni bajarish qoidasini bayon etgan.

**Algoritm** – qo‘yilgan masalani yechimga olib keluvchi amallarning mantiqiy ketma-ketligidir.

Har qanday masalani yechish uchun, xususan dastur tuzish uchun avvalo algoritm tuzish maqsadga muvofiqdir. Algoritm tuzish masalani yechishning asosiy jarayoni, ya’ni murakkab qismi hisobanadi. Tayyor algoritmgaga dastur tuzish esa har qanday malakali dasturchi uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi. Bitta masalani yechish uchun turli xil algoritmlar tuzish mumkin va bu algoritmlarning barchasi to‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Ammo barcha yuz berishi mumkin bo‘lgan holatlarni hisobga olgan holda yechimga eng qisqa yo‘l bilan, murakkab va ortiqcha amallarsiz olib keluchi optimal algoritm tuzish muhim abamiyat kasb etadi.

Algoritm quyidagi xossalarga ega: *aniqlik, tushunarлilik, ommaviylik, uzlusizlik, natijaviylik*.

*Aniqlik xossasi.* Algoritm shunday tuzilgan bo‘lishi kerakki, masaladagi barcha o‘zgaruvchilar va boshqa elementlar aniq ravishda berilgan bo‘lishi lozim.

*Tushunarлilik xossasi.* Algoritmnинг barcha qadamlari tushunarli, qisqartirishlarsiz berilishi lozim.

*Uzlusizlik xossasi.* Algoritm bo‘laklarga ajratilgan va bu bo‘laklar uzlusiz bog‘langan bo‘lishi lozim.

*Ommaviylik xossasi.* Tuzilgan algoritm bir turdagи masalalarning barchasi uchun o‘rinli bo‘lishi lozim.

*Natijaviylik xossasi* Algoritmnинг chekli qadamlaridan so‘ng albatta natijaga erishilishi lozim.

Algoritmlar uchta turga bo‘linadi: *chiziqli, tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi*(siklik) algoritmlar.

*Chiziqli algoritmlar* deb undagi har bir amallarning hech qanday shart va takrorlanishlarsiz bajariladigan turiga aytildi.

*Tarmoqlanuvchi algoritmlar* deb berilgan masalada ba’zi amallarning ma’lum bir shartlar asosida bajarilish jarayoni qatnashgan algoritmlarga aytildi.

*Takrorlanuvchi algoritmlar* biror-bir shart bajarilguncha yoki biron parametrning har xil qiymatlari asosida chekli ravishda takrorlanishlar yuz beradigan jarayonlar qatnashgan algoritmlardir.

Algoritmlar asosan so‘zlar, jadvallar, blok-sxemalar, formulalar,

dasturlar ko'rnishida yoziladi.

Algoritmlarni blok-sxema shaklida tasvirlash qulayroq va tushunarliroq bo'lgani uchun masalaning algoritmlari ko'proq blok-sxema ko'rnishida tuziladi.

Blok-sxemalarning asosiy elementlari quyidagilar:



– algoritmnинг boshlanishi va tugallanishini bildiradi;



– o'zgaruvchilar qiymatlarini kiritish va natijani chiqarish uchun ishlataladi;



– shartni tekshirish jarayonida qo'llaniladi;



– ifodalarni hisoblash va o'zgarmaslarni e'lon qilishni bildiradi;




– takrorlanuvchi jarayonlarni ifodalashda ishlataladi.

Bloklar gorizontal va vertikal to'g'ri chiziqlar, strelkalar orqali bog'lanadi.

### Chiziqli algoritmlarga doir misollar

1.  $y = 5x^2 + \sin b$ , bunda  $x, b \in \mathbb{R}$  ifodaning qiymatini hisoblash algoritmini tuzing.

Blok sxema ko'rnishida: So'zlar orqali:



1. Algoritm tuzishni boshlash.


2.  $x$  va  $b$  larning qiymatlarini kiritish.

3.  $y = 5x^2 + \sin b$  ifodani hisoblash.

4.  $y$  ni ekranga chiqarish.

5. Algoritm tuzishni tugallash.


2.  $L = \log_5 x - k$ , bunda  $k = t^n$ ,  $n = 5$ ,  $x, t \in \mathbb{R}, x > 0$  ifodaning qiymatini hisoblash algoritmini tuzing.




### Tarmoqlanuvchi algoritmlarga doir misollar

3. Ifodaning qiymatini hisoblash algoritmini tuzing.

$$y = \begin{cases} ax, & \text{agar } x < 0, \\ b \sin x, & \text{agar } 0 \leq x \leq 3, \text{ bunda } a, b, c, x \text{ lar ixtiyoriy haqiqiy sonlar}, \\ c\sqrt{x}, & \text{agar } x > 3. \end{cases}$$




4.  $ax^2 + bx + c = 0$  ko'rinishdagi kvadrat tenglamaning ildizlarini topish algoritmini tuzing. Bunda  $a, b, c$  lar ixtiyoriy nolga teng bo'lmagan haqiqiy sonlar.




### Takrorlanuvchi algoritmlarga doir misollar

5.  $S = \sum_{i=1}^n \sqrt{i}$  ifodasini hisoblash  
algoritmini tuzing.




6.  $P = \prod_{k=1}^{20} kx^i$  ifodasini hisoblash  
algoritmini tuzing.



7.  $y = 5t + \sin x$ , bunda

$$-2 \leq x \leq 3, h_x = 0,5$$


ifodaning qiymatlarini ekranga chiqarish algoritmini tuzing.



3.  $y = \frac{\cos^3 x}{\log_a b}$ , bunda

$$-1 \leq x \leq 1, h_x = 0,25, 2 \leq b \leq 10$$

ifodaning qiymatlarini ekranga chiqarish algoritmini tuzing.



## **Delphi dasturlash tili va muhiti, Delphida konsol ilova, strukturasi, elementlari, alifbosи va nomlar**

Masalani yechish algoritmi tuzib chiqilgandan so'ng dastur tuziladi.

**Dastur** – algoritmning kompyuter tushunadigan tilda yozilishidir.

**Dasturlash** esa dastur tuzish jarayonidir.

Hozirgi kungacha 500 dan ortiq dasturlash tillari yaratilgan. Dasturlash tillari ko'pincha biror sohadagi masalalarni yechuvchi dasturlar yaratishga mo'ljallangan bo'ldi. Masalan, 1954 yilda ishlab chiqilgan **FORTRAN** tili asosan muhandislik va texnik masalalarni, 1959 yilda yaratilgan **KOBOL** tili iqtisodiy masalalarni, 1960 yilda yaratilgan **ALGOL** tili ilmiy-texnik masalalarni, 1965 yilda yaratilgan Basic tili, shuningdek **Pascal**, **C**, **Java** tillari universal tillar qatoriga kiradi va ular yordamida ilmiy, texnikaviy, muhandislik, iqtisodiy va boshqa sohalardagi masalalarni yechishga mo'ljallangan dasturlar tuzish mumkin.

Pascal tili 1971 yilda Shveysariyaning Syurix shahri Oliy texnika maktabi professori Niklaus Virt tornonidan yaratilgan bo'lib, 1979 yildan boshlab birinchi hisoblash mashinasi muallifi fransuz olimi Blez Paskal sharafiga *Pascal til* deb atala boshlangan. *MS DOS* operatsion tizimi o'matilgan kompyuterlarda Pascal tilidagi dasturlar Turbo Pascal, Borland Pascal dasturlash muhitlarida tuzilar edi. Windows operatsion tizimi paydo bo'lgandan so'ng Borland firmasining *Delphi* vizual dasturlash muhiti paydo bo'ldi. Delphi muhitida dasturlar *Object Pascal* tilida tuziladi. Hozirgi kunda Pascal tiliga zamонавији juda ko'п yangi texnologiyalar tadbiq etilganligi uchun ба'zan bu til Delphi tili deb ham yuritilmoqda.

Delphi orqali turli tipdagи dasturlar – oddiy dasturlardan tortib to ma'lumotlar bazasi hamda internet bilan ishlovchi dasturlar yaratish mumkin.

Delphi dasturlash muhiti *Пуск* → *Программы* → *Borland Delphi* → *Delphi* menyular ketma-ketligi orqali ishga tushiriladi. Natijada Delphining obyektga yo'naltirilgan vizual dasturlash muhiti bosil bo'ldi (9-rasm).

Bu muhitida komponentlar yordamida murakkab vizual dasturlar tuzishdan oldin avvalo dasturlash tilini o'rganish zaruriyati tug'iladi. Delphi tarkibida ana shunday komponentlarsiz dasturlar tuzishga imkon beruvchi, ya'ni Turbo Pascal va Borland Pascal muhitlariga o'xshash muhit mavjud. Bu yerda tuzilgan dasturlar *konsol ilovalar* yoki *konsol dasturlar* deyiladi. Konsol dastur tuzish uchun *File* menusining *New - Other* buyruqlar ketma-ketligi bosiladi. Hosil bo'lgan oynadan *Console Application* bandi tanlanib, OK tugmasi bosiladi.

Natijada Konsol dasturlash muhiti hosil bo'ldi (2-rasm).



2-rasm. Konsol dasturlash mubiti

Hosil bo'lgan oynaga tuzilgan dastur kiritiladi va **Run** menyusining **Run** buyrug'i yoki F9 tugmasi bosilib natija olinadi.

Delphi tilida **dastur tuzilishi** umumiy holda quyidagicha bo'ladi:

- 1) *dastur sarlavhasi*; 2) *nishonlar bo'limi*; 3) *o'zgarmaslar bo'limi*;
  - 4) *turlar bo'limi*; 5) *o'zgaruvchilarni e'lon qilish bo'limi*;
  - 6) *protsedura va funksiyalar*; 7) *dastur tanasi (hisoblash bo'limi)*.
- *Dastur sarlavhasi* Program xizmatchi so'zi bilan boshlanib, lotin harfi bilan boshlangan nom qo'yiladi.

Masalan, *Program Dastur*;, *Program d12*;, *Program kv\_teng*; sarlavha satrlari to'g'ri,

*Program 12*;, *Program 2dastur*;, *Program dacmyp*;, *Program d 12*;, *Program kv-teng*; sarlavha satrlari noto'g'ri yozilgan.

- *Nishonlar bo'limi* *Label* xizmatchi so'zi bilan boshlanib, nishonlar ro'yxati ketma-ket vergullar orqali yoziladi. Masalan, *Label 1*; *Label 1, 2, nishon1, m*;
- *O'zgarmaslar bo'limi* *Const* xizmatchi so'zi bilan boshlanib, o'zgarmaslar ketma-ket nuqtali vergul bilan yoziladi. Masalan, *Const n=6*;, *m= -5.7*;, *mk= 'Informatika'*;, *b=4\*n-trunc(m)*;
- *Turlar bo'limida* mavjud turlardan tashqari yoki ular asosida yangi turlar kiritish mumkin.
- *O'zgaruvchilarni e'lon qilish bo'limi* Var xizmatchi so'zi bilan boshlanib, o'zgaruvchilar turlari bilan yoziladi. Masalan, *var n:integer; b:real; al:string; t:boolean;*
- *Protsedura va funksiyalar bo'limlarida* qism dasturlar yoziladi. Bu bo'lim alohida mavzuda keltiriladi.
- *Dastur tanasi* dasturing asosiy qismi bo'lib, *begin* va *end* xizmatchi so'zlari orasiga yoziladi va *end* so'zidan keyin nuqta qo'yiladi. Bu bo'limlardan dastur sarlavhasi va dastur tanasi dastur tuzishda

albatta ishtirok etadi. Qolgan bo'limlarning ishtiroki masala berilishiga va dastur tuzuvchiga bog'liq.

Delphi tili o'z alfavitiga ega. Bunga *harflar*, *raqamlar*, *maxsus belgilar* va *ishlatilmaydigan belgilar* kiradi.

- *Harflarga A* dan *Z* gacha va *a* dan *z* gacha lotin harflarining bosh va kichik harflari kiradi.
- *Raqamlarga 0* dan *9* gacha arab raqamlari va o'n otililik sanoq sistemasi raqamlari kiradi.
- *Maxsus belgilarni shartli ravishda ajratuvchilar*, *tinish belgilari*, *amal belgilari* va *xizmatchi so'zlarga ajratish* mumkin.
- *Ajratuvchi* bo'sh joy (probel) tashlanganda, Enter tugmasi bosilganda yoki izoh yozilganda hosil bo'ladi. Izohlar dasturing ixtiyoriy joyida katta qavs ichida berilishi mumkin va u dastur ishlashiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Masalan, `readln(a,b); {O'zgaruvchilar qiymati kiri-tilmoqda}`. Izohlarni (\*) orasida yoki // belgisidan keyin kiritish ham mumkin.
- *Tinish belgilariiga* quyidagilar kiradi:  
(, ), (\*, \*), [ , ], (., .), { , }, « , „ , ; ; ; //, :=, ... ^, @, \$, #.
- *Amal belgilariiga* quyidagilar kiradi: +, -, \*, /, =, <, >, <>, <=, >=.
- *Xizmatchi so'zlarga and, array, as, asm, begin, case, class, const, constructor, destructor, dispinterface, div, do,ownto, else, end, except, exports, file, finalization, finally, for, function, goto, if, implementation, in, inherited, initialization, inline, interface, is, label, library, mod, nil, not, object, of, or, out, packed, procedure, program, property, raise, record, repeat, resource string, set, shl, shr, string, then, threadvar, to, try, type, unit, until, uses, var, while, with, xor* so'zлari kiradi. Bu so'zлarni birini ikkinchisining o'mida ishlash, o'zgaruvchilarni belgilash mumkin emas.
- *Ishlatilmaydigan belgilarga* masalan rus alfaviti harflarini kiritish mumkin. Ular izohlarda, belgili va qatorli o'zgaruvchilarning qiymatlari sifatida ishlatalishi mumkin.

*Nomlar (Identifikatorlar)* o'zgaruvchilarni, o'zgarmaslaharni, turlami, protseduralarni, funksiyalarni, sinflarni, modullarni, dastur sarlavhalarini belgilashda ishlatalidi. Nomlar lotin harflari va arab raqamlaridan tashkil topadi hamda lotin harfidan boshlanadi. Nomialarda « » belgisi ham ishtirok etishi mumkin. Maxsus belgilari va ishlatilmaydigan belgilari nomlar tarkibiga kiritilmaydi. Shuningdek, xizmatchi so'zlar ham nom sifatida qo'llanilmaydi. Mumkin bo'lgan nomlarga misollar: **x, y, dastur\_1, max**.

Mumkin bo'lmagan nomlarga misollar: **1dastur** – raqamdan boshlangan; **With** – xizmatchi so'z; **Натижа** – kirill harflaridan iborat; **Dastur.1** – maxsus belgi qatnashgan; **Nishon 1** – bo'sh joy qatnashgan.

## Turlar, o'zgarmaslar, o'zgaruvchilar, standart funksiyalar

### Turlar

Delphida ma'lumotlar turlari standart va dasturchi tomonidan tuziladigan turlarga bo'linadi.

Standart turlar butun, haqiqiy, belgili, qatorli, mantiqiy turlarga bo'linadi. Bundan tashqari ko'rsatkichli, variant, sanoqli, sana va vaqt kabi standart turlar ham mavjud.

➤ *Butun turlar* butun sonlarni tasvirlashda ishlataladi. Butun turlar va ularning qiymatlar sohasi quyidagicha:

2-jadval. Butun turlar va ularning qiymatlar sohasi

Tur	Qiymatlar sohasi
<i>Integer</i>	-2147483648 .. 2147483647
<i>Cardinal</i>	0 .. 4294967295
<i>Shortint</i>	-128 .. 127
<i>Smallint</i>	-32768 .. 32767
<i>Int64</i>	-2 <sup>63</sup> .. 2 <sup>63</sup> -1
<i>Byte</i>	0 .. 255
<i>Word</i>	0 .. 65535
<i>Longword</i>	0 .. 4294967295

Bulardan Integer va Int64 turlari ko'proq ishlataladi. Butun o'zgaruvchilarga qiymat kiritilayotganda e'lon qilingan tur qiymatlari sohasidan chiqib ketmasligi lozim. Agar amallar natijasida o'zgaruvchi qiymati ko'rsatilgan diapazondan chiqib ketsa, diapazon boshidan boshlanadi. Masalan, o'zgaruvchi Smallint turiga tegishli va qiymati 32767 ga teng bo'lsa, unga 1 soni qo'shilganda o'zgaruvchi qiymati -32768 ga teng bo'ladi.

➤ *Haqiqiy turlar* haqiqiy sonlarni ifodalashda ishlataladi. Haqiqiy turlar va ularning qiymatlar sohasi quyidagicha:

3-jadval. Haqiqiy turlar va ularning qiymatlar sohasi

Tur	Qiymatlar sohasi
<i>Real</i>	$5.0 \cdot 10^{-324}$ .. $1.7 \cdot 10^{102}$
<i>Real48</i>	$2.9 \cdot 10^{-39}$ .. $1.7 \cdot 10^{38}$
<i>Single</i>	$1.5 \cdot 10^{-45}$ .. $3.4 \cdot 10^{38}$
<i>Double</i>	$5.0 \cdot 10^{-324}$ .. $1.7 \cdot 10^{102}$
<i>Extended</i>	$3.6 \cdot 10^{-4931}$ .. $1.1 \cdot 10^{4932}$
<i>Comp</i>	$-2^{63}+1$ .. $2^{63}-1$
<i>Currency</i>	-922337203685477.5808 .. 922337203685477.5807

Haqiqiy sonlar kiritilganda va hosil qilinganda berilgan diapazondan chiqib ketmasligi lozim, aks holda xatolik chiqaradi yoki ishlamaydi. Haqiqiy sonlar uchun tur tanlashda kerakli aniqlikka e'tibor beriladi.

- *Belgili turlar* Delphi alfavitidagi ixtiyoriy bitta simvolni saqlashga mo'ljallangan va ularning qiymatlari bittalik qo'shtimoq (apostrof) ichiga olib yoziladi. Belgili turlarning ANSIChar, WideChar, Char turlari mavjud. Belgilar ASCII yoki ANSI kodlash tizimiga ko'ra o'z tartib raqamlariga ega.
- *Qatorli turlar* ham belgili turlar kabi ixtiyoriy simvollarini saqlaydi va ularning qiymatlari *String* turiga tegishli bo'ladi. Ammo bunda simvollar soni bittadan ortiq bo'lishi mumkin. Ularning qiymatlari ham apostrof ichiga olib yoziladi.
- *Mantiqiy turlar* faqat ikkita qiymatni qabul qilishi mumkin: *true* (rost) va *false* (yolg'on). Mantiqiy turlarning Boolean, ByteBool, WordBool, LongBool turlaridan asosan Boolean turi qo'llaniladi.

Yuqorida turlardan tashqari dasturchi mustaqil ravishda dastur strukturasining turlar bo'limida yangi tur kiritishi mumkin. Masalan, Type Rang = (Qizil, yashil, ko'k, sariq, oq); fasl = (bahor, yoz, kuz, qish); raqam = 0..9; Shundan so'ng o'zgaruvchilarni e'lon qilish bo'limida masalan, quyidagicha yozish mumkin: var a:fasl; b:rang; n:raqam;

### *O'zgaruvchilar va o'zgarmaslar*

Dasturlash jarayonida qiymati o'zgarmaydigan kattaliklar *o'zgarmaslar* deyiladi. O'zgarmaslar ixtiyoriy turdag'i ma'lumotlarni qabul qilishi mumkin. Ular Const xizmatchi so'zi bilan boshlanib, o'zgarmaslar qiymatlari bilan beriladi. Masalan, const n=6; m=-5.7; mk='Informatika'; b=4\*n-trunc(m);

Dastur ishlashi mobaynida qiymatlari o'zgarishi mumkin bo'lgan kattaliklar *o'zgaruvchilar* deyiladi va ular dasturda *Var* so'zi bilan e'lon qilinadi. Masalan, var n:integer; b:real; a1:string; t:boolean;. Agar bir nechta o'zgaruvchilar bir turga mansub bo'lsa, ularni birgalikda e'lon qilish ham mumkin. Masalan, var m,n:integer;

Delphida bazasida oldindan kiritilgan standart funksiya va protseduralar mavjud. Ulardan dastur tuzishda to'g'ridan-to'g'ri foydalanish mumkin. Standart funksiyalaming matematik, turlarni almashtimychi, qatorlar bilan ishlovchi, massiv sonlarini qayta ishlovchi, fayllarni boshqaruvchi, protsedura va funksiyalarga doir turlari mavjud. Masalan ba'zi matematik standart funkciyalar 4-jadvalda keltirilgan.

Matematikadagi boshqa funksiyalar jadvalda keltirilgan standart funksiyalardan foydalanib yoziladi.

4-jadval. Matematik standart funksiyalar

Standart funksiya	Nomi va matematik ka'rinishi	Argument turi	Natija turi
Abs(x)	Absolyut qymat $ x $	Butun yoki haqiqiy	Argument turiga mos
Arctan(x)	Arktangens $- \operatorname{Arctg} x$	Butun yoki haqiqiy	Haqiqiy
Cos(x)	Kosinus $- \cos x$	Butun yoki haqiqiy	Haqiqiy
Exp(x)	Eksponenta $- e^x$	Butun yoki haqiqiy	Haqiqiy
Frac(x)	Argumentning kasr qismi	Butun yoki haqiqiy	Haqiqiy
Int(x)	Argumentning butun qismi	Butun yoki haqiqiy	Butun
Ln(x)	Natural logarifm $- \ln x$	Butun yoki haqiqiy	Haqiqiy
Pi	$\pi$ soni: 3,14159265358...	Argumenti yo'q	Haqiqiy
Round(x)	Argumentiga yaqin butun son	Butun yoki haqiqiy	Butun
Sin(x)	Sinus $- \sin x$	Butun yoki haqiqiy	Haqiqiy
Sqr(x)	Argumenti kvadrati $- x^2$	Butun yoki haqiqiy	Argument turiga mos
Sqrt(x)	Kvadrat ildiz $- \sqrt{x}$	Butun yoki haqiqiy	Haqiqiy
Trunc(x)	Argumentining butun qismi	Butun yoki haqiqiy	Butun

Ko'p ishlataladigan ba'zi boshqa standart funksiyalar va protseduralar:

- *Ord(a)* – a simvolning kodlash tizimidagi tartib raqamini hosil qiladi;
- *Chr(i)* – i tartib raqamli simvolni hosil qiladi;
- *IntToStr(k)* – k butun sonni qatorli turga aylantiradi;
- *StrToInt(t)* – qatorli turdag'i butun sonni butun turga aylantiradi;
- *FloatToStr(x)* - x haqiqiy sonni qatorli turga aylantiradi;
- *StrToFloat(t)* – qatorli turdag'i haqiqiy sonni haqiqiy turga aylantiradi;
- *Succ(t)* – sanoqli turdag'i t dan oldingi pozitsiyada turgan qiymatni aniqlaydi;
- *Pred(t)* – sanoqli turdag'i t dan keyingi pozitsiyada turgan qiymatni aniqlaydi.

Delphi da ifodalarni hisoblashlarda quyidagi amal belgilaridan foydalilanadi.

5-jadval. Amal belgilarini va ularning ustunlik darajalari

Amallar	Ustunlik darajasi
@, not	1
*, /, div, mod, and, shl, shr, as	2
+, -, or, xor	3
=, <>, <, >, <=, >=, in, is	4

Oddiy qavslar yordamida amallarning bajarilish ketma-ketligini o'zgartirish mumkin.

## Operatorlar, o'zlashtirish operatori, tarkibiy va bo'sh operator, ma'lumotlarni kiritish va chiqarish protseduralari

Dastur tuzishda asosiy buyruqlar va amallar operatorlar yordamida amalga oshiriladi. Operatorlarni shartli ravishda oddiy va murakkab operatorlarga bo'lish mumkin. *Oddiy operatorlar* deganda tarkibida qismiy operatorlar bo'lmagan operatorlar tushuniladi. Bularga o'zlashtirish operatori, o'tish operatori, bo'sh operator, protsedura operatorlari kiradi. Murakkab operatorlarga tarkibiy operator, shartli operator (if), tanlash operatori (case), parametrli takrorlanish operatori (for), sharti oldin va sharti keyin beriladigan takrorlanish operatorlari (while, repeat) va bog'lash operatori (with) kiradi.

**O'zlashtirish operatori.** O'zlashtirish operatori dasturlash jarayonida o'zgaruvchiga yangi qiymat berishda, ifodalarni o'zlashtirishda ishlataladi.

Umumiyo ko'rinishi quyidagicha:  $A := B$ ;

bunda:  $A$  – o'zgaruvchi;

$B$  – ifoda yoki son.

O'zgaruvchi va o'zlashtirilayotgan ifodaning (sonning) turi bir xil yoki bir-biriga mos bo'lishi lozim. Masalan,  $A$  butun turdag'i o'zgaruvchi bo'lsa,  $B$  ham butun son yoki natijasi doimo butun son chiqadigan ifoda bo'lishi lozim. Agar  $A$  haqiqiy turdag'i o'zgaruvchi bo'lsa, u holda  $B$  butun yoki haqiqiy turdag'i son yoki natijasi doimo butun yoki haqiqiy son chiqadigan ifoda bo'lishi lozim.

O'zlashtirish operatorini qo'llashga doir misollar:

$z := b + c$ ; ( $b$  va  $c$  butun bo'lsa,  $z$  ham butun,  $b$  va  $c$  dan birortasi yoki ikkisi ham haqiqiy bo'lsa,  $z$  haqiqiy turda bo'ladi);

$y := \cos(\exp(3 * \ln(x)))$ ; ( $x$  butun yoki haqiqiy,  $y$  haqiqiy tur);

$t = a < 5$  and  $c > 0$ ; ( $a$  va  $c$  butun yoki haqiqiy,  $t$  maniqiy tur);

$s1 := 'Axborot'$ ; ( $s1$  qatorli tur).

**Tarkibiy operator.** Tarkibiy operator deganda *begin* va *end* xizmatchi so'zlari orasiga olib yoziladigan operatorlar guruhi tushuniladi. Bunda *begin* va *end* xizmatchi so'zlari *operatorlar qavisi* deb ham yuritiladi. Tarkibiy operator bir nechta operatorlarni bitta operator sifatida tasvirlash uchun ishlataladi.

Dastur tanaida har qanday ifodadan so'ng nuqtali vergul qo'yiladi, hech qanday operatorsiz nuqtali vergul qo'yilsa, *bo'sh operator* yozilgan deyiladi. Ammo ifodadan so'ng *end*, *until*, *else* xizmatchi so'zlari kelsa, bu xizmatchi so'zlardan oldin nuqtali vergul qo'yilmaydi.

**Ma'lumotlarni kiritish va chiqarish.** Konsol ilovada ma'lumotlarni klaviatura yordamida kiritish *read* va *readln*, ekranga chiqarish *write* va

*writeln* standart protseduralari orqali amalga oshiriladi.

Ma'lumotlarni kiritish protsedurasining umumiyligi ko'rinishlari quyidagicha:

*Read(c1,c2,...,cn);*

*Readln(c1,c2,...,cn);*

*Readln;*

Bu yerda:  $s1,s2,...,sn$  – o'zgaruvchilar nomlari.

Protseduradagi  $n$  ta qiymat ketma-ket probellar yordamida yoki *Enter* tugmasi orqali kiritilgandan so'ng *Enter* tugmasini bosish lozim va bu qiymatlar avtomatik  $s1,s2,...,sn$  o'zgaruvchilarga o'zlashtiriladi.

*Read(c1,c2,...,cn);* protsedurasi yozilganda kiritilgan  $n$  ta qiymat mos ravishda  $c1,c2,...,cn$  larga o'zlashtiriladi va qator davomida ma'lumotlar kiritilishi va chiqarilishi mumkin. Bunda  $cn$  o'zgaruvchi qiymatidan keyin shu qatorda kiritilgan ortiqcha qiymatlar keyingi kiritish protsedurasi o'zgaruvchilariga o'zlashtiriladi.

*Readln(c1,c2,...,cn);* protsedurasi yozilganda kiritilgan  $n$  ta qiymat mos ravishda  $c1,c2,...,cn$  larga o'zlashtiriladi va kursov pozitsiyasi avtomatik ravishda keyingi qatorga o'tadi. Bunda  $cn$  o'zgaruvchi qiymatidan keyin shu qatorda kiritilgan ortiqcha qiymatlar hisobga olinmaydi hamda hech qanday o'zgaruvchiga o'zlashtirilmaydi.

*Readln;* protsedurasi yozilganda kompyuter klaviaturadagi ixtiyoriy tugma bosilishini kutadi va kiritilgan simvolni hech qanday o'zgaruvchida saqlamaydi.

Ma'lumotlarni va o'zgaruvchilar qiymatlarini ekranga chiqarish protsedurasining umumiyligi ko'rinishlari quyidagicha:

*Write(t1,t2,...,tn);*

*Writeln(t1,t2,...,tn);*

*Writeln;*

Bu yerda  $t1,t2,...,tn$  – o'zgaruvchilar nomi yoki Delphi tili alfavitidagi ixtiyoriy turdagisi ma'lumotlar. Protseduradagi  $n$  ta o'zgaruvchilar qiymatlari yoki ma'lumotlar ekranga chiqadi.

*Write(t1,t2,...,tn);* protsedurasi yozilganda  $t1,t2,...,tn$  o'zgaruvchilar qiymatlari yoki ma'lumotlar yonma-yon ekranga chiqadi va shu qatorda boshqa ma'lumotlar ham chiqarilishi hamda o'zgaruvchilar qiymatlari kiritilishi mumkin.

*Writeln(t1,t2,...,tn);* protsedurasi yozilganda  $t1,t2,...,tn$  o'zgaruvchilar qiymatlari yoki ma'lumotlar yonma-yon ekranga chiqadi va kursov pozitsiyasi avtomatik ravishda keyingi qatorga o'tadi.

*Writeln;* protsedurasi kursov pozitsiyasini keyingi qatorga o'tkazishni ta'minlaydi.

Masalan,  $a=3$ ,  $b=5$ , firma='Intel' bo'lsin. Konsol ilovaga quyidagi protseduralar kiritilsa, ekranda natijalar ushbu ko'rinishda bo'ladi.

Protseduralar	Natijalar
writeln(a,b);	35
WriteLn(a, b);	35
WriteLn(a, ', b);	3 5
WriteLn(a:=3, b:=5);	A=3, b=5
WriteLn(firma, ' firmasi');	Intel firmasi
WriteLn(a>b, a>b);	a>b FALSE

Ekranga chiqadigan ma'lumotlarning ko'rinishini yaxshilash uchun o'zgaruvchilarga yoki ma'lumotlarga ma'lum bir format qo'llash mumkin. Bu holda ekranga chiqarish protsedurasining ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

`WriteLn(y1:k1,y2:k2,...,yn:kn);`

bunda  $y1, y2, \dots, yn$  – o'zgaruvchilar yoki ma'lumotlar;

$k1, k2, \dots, kn$  – qiymatlar egallaydigan pozitsiyalar miqdorlari.

Masalan,  $a:=5$ ;  $b:=27$ ;  $c:=362$ ; bo'lsin. Konsol ilovaga quyidagi protseduralar kiritilsa, ekranda natijalar ushbu ko'rinishda bo'ladi.

Protseduralar	Natijalar
writeln(a,b,c);	5
writeln(a:2,b:2,c:2);	
writeln(a:3,b:3,c:3);	
writeln(a:4,b:4,c:4);	
writeln(7:2,'a':3,3>2:5);	7 1 a T R U E

Olingan natijalardan ko'rindiki, agar ajratilgan pozitsiya miqdori ma'lumot kengligidan ortiq bo'lsa, ma'lumot o'ng tomonidan tekislanadi, kam bo'lsa pozitsiya miqdori avtomatik ma'lumot kengligiga o'zgaradi.

Haqiqiy sonlar uchun bu protsedura quyidagicha bo'ladi.

`WriteLn(y1:k1:I1,y2:k2:I2,...,yn:kn:In);`

bunda  $k1, k2, \dots, kn$  – haqiqiy sonlarning umumiy pozitsiyalari miqdorlari;

$I1, I2, \dots, In$  – kasr qismalarning pozitsiyalari miqdorlari.

Masalan,  $a:=5.21$ ;  $b:=26.37$ ; bo'lsin. Konsol ilovaga quyidagi protseduralar kiritilsa, natijalar ushbu ko'rinishda bo'ladi.

Protseduralar	Natijalar
WriteLn(a);	5
WriteLn(b);	2
WriteLn(a:4:2,b:6:2);	5
WriteLn(a:7:3,b:5:1);	
WriteLn(a:2:3, ' ',b:3:3);	5
WriteLn('a':1,a:5:1, ' ',b:3:0);	a = 5 . 2 1 . b = 2 6

Bunda sonning kasr qismi pozitsiya miqdoriga mos ravishda chiqadi.

Shuning uchun ham sonning umumiy pozitsiyasi miqdori kasr qismi miqdoridan kamida ikkita ortiq yozilishi lozim. Aks hollarda kompyuter xato chiqarmasligi uchun sonning butun qismini ham to'liq ekranga chiqaradi.

### Misollar

1.  $y = 5x^2 + \sin b$ ,  $x, b \in \mathbb{R}$  ifodani hisoblash dasturi tuzilsin.

Bu ifodaga algoritmlar mavzusida blok-sxema tuzilgan edi. Dastur tuzish uchun Delphini ishga tushirib, *File/New/Other/Console Application* menyular orqali konsol ilova yaratamiz. Bunda quyidagi ilova loyihasi hosil bo'ladi:

```
program Project2;
{$APPTYPE CONSOLE}
uses SysUtils;
begin
  { TODO -oUser -cConsole Main : Insert code here }
end.
```

Bu loyihibda dasturning umumiy ko'tinishi tayyor. Tuzilgan algoritmgaga ko'ra dasturga kerakli bo'limlar va operatorlarni kiritamiz.

```
program Project2;
{$APPTYPE CONSOLE}
uses SysUtils;
var x,b,y:real;
begin
  readln(x,b);
  y:=5*sqr(x)+sin(b);
  writeln(y);
  readln
end.
```

F9 tugmasini bosib, hosil bo'lgan oynada masalan,  $x$  ga 3,  $b$  ga 7 qiyamatni kiritib, natija olamiz (3-rasm).



3-rasm. Dastur natijasi

Demak, natija taxminan 45,657 ga teng ekan.

Dasturdagi {SAPPTYPE CONSOLE} (ya'ni Application type Console – konsol turidagi loyiha) so'zi konsol ilovaligini bildirish uchun Delphi tomonidan avtomatik qo'shiladi. Uni o'chirish mumkin emas. uses SysUtils; so'zi ham kerakli modullardan foydalananish uchun ochilgan. Bu so'zni ham o'chirmagan ma'qul.

Tuzilgan dastur eng qisqa ko'rinishdir. Foydalananuvchilar uchun tushunarliroq bo'lishi uchun dasturga ba'zi izohlar qo'shamiz:

```
program Project1;
{SAPPTYPE CONSOLE}
uses SysUtils;
var x,b,y:real; {o'zgaruvchilar e'lon qilinmoqda}
begin
  write('x='); readln(x); {o'zgaruvchilar qiymati kiritilmoqda}
  write('b='); readln(b);
  y:=5*sqr(x)+sin(b);
  writeln('y=',y:6:3); readln
end.
```

F9 tugmasini bosib natija olamiz (4-rasm).



4-rasm. Dastur natijasi

Dasturni File menyusining Save buyrug'i orqali saqlab qo'yish mumkin.

2.  $L = \log_x t - k$ , bunda  $k = t^n$ ,  $n = 5$ ,  $x, t \in R, x > 0$  ifodaning qiymatini hisoblash dasturini tuzing.

```
program Project1;
{SAPPTYPE CONSOLE}
uses SysUtils;
const n=5;
var x,t,k,L:real;
begin
  write('x=');readln(x);
  write('t=');readln(t);
  k:=exp(n*ln(t));
  L:=ln(x)/ln(5) - k;
  writeln('L=',L:6:2); readln
end.
```

## Shartli operator, o'tish operatori

**Shartli operator.** Hayotdagi masalalar doimo to'g'ridan-to'g'ri osongina hisoblanavermaydi. Ularni yechish jarayonida ko'plab shartlarga duch kelamiz. Shartlarning bajarilish yoki bajarilmasligiga qarab u yoki bu jarayonlar hisoblanadi. Delphi tilida shartlarni tekshirish uchun *if* shartli operatori mavjud bo'lib, uning umumiyligi ko'rinishda quyidagicha:

*If A then B1 else B2;*

bunda: *A* – mantiqiy ifoda;

*B1* va *B2* – operatorlar;

*if – agar, then – bo'lsa, else – aks holda* ma'nolarini bildiradi. Agar *A* mantiqiy ifoda *true* qiymat qabul qilsa *B1* operatori, aks holda, ya'ni *false* qiymat qabul qilsa, *B2* operator bajariladi.

Shartni tekshirishda quyidagi mantiqiy helgilar ishlatalishi mumkin:

> (katta), < (kichik), <= (kichik yoki teng), >= (katta yoki teng), <> (teng emas), = (teng).

Bundan tashqari quyidagi mantiqiy amal va bog'lanishlar ham ishlataladi:

*Not* (inkor), *And* (mantiqiy va), *Or* (mantiqiy yoki).

Masalan, *M1* va *M2* mantiqiy ifodalar quyidagi ko'rinishda berilganda, ularning natijalari va mantiqiy amallar bajarilish natijalarini yozaylik:

M1	M2	M1 natijasi	M2 natijasi	M1 and M2	M1 or M2	Not M1
5>3	Abs(x)>=x	<i>True</i>	<i>True</i>	<i>True</i>	<i>True</i>	<i>False</i>
'd'>'c'	Sqr(2)<3.5	<i>True</i>	<i>False</i>	<i>False</i>	<i>True</i>	<i>False</i>
5<3	'b'>'a'	<i>False</i>	<i>True</i>	<i>False</i>	<i>True</i>	<i>True</i>
'd'<'c'	'n'<'a'	<i>False</i>	<i>False</i>	<i>False</i>	<i>False</i>	<i>True</i>

Mantiqiy ifodalarni biror mantiqiy o'zgaruvchiga o'zlashtirish ham mumkin. Masalan,  $F := (2*pi) > \text{sqr}(pi)$  or  $(5 < \exp(2))$ ; bunda *F* o'zgaruvchining natijasi *True* bo'ladi.

Yuqoridaagi umumiy ko'rinishdagi shartli operator *to'liq ko'rinishdagi shartli operator* deyiladi. Agar faqat *A* shart bajarilganda biror operator berilgan bo'lsa, quyidagi qisqa ko'rinishdagi shartli operatoridan foydalaniлади:

*If A then B;*

Bunda *A* shart bajarilmasa hech qanday operator bajarilmaydi.

Agar shart bajarilmaganda operator berilgan bo'lsa, qisqa ko'rinishdagi shartli operatori quyidagicha yozish mumkin:

*If not(A) then B;*

Bajariladigan operatorlar bir nechta shartlarga bog'liq bo'lsa,

shartlarning har bin qavs ichiga olinib, *and* va *or* mantiqiy bog'lanishlar yordamida yoziladi.

Masalan,  $x$  ning qiymati (-2; 2) oraliqda bo'lsa,  $y=2x$  ifoda bajarilsin. Bu shartli ifoda dasturda quyidagicha ifodalanadi:

*if* ( $x > -2$ ) *and* ( $x < 2$ ) *then*  $y := 2 * x$ ;

Shartli operatorordagi bajariladigan operator bitta emas bir nechta bo'lsa, ular tarkibiy operator sifatida yoziladi, ya'ni *begin* va *end* xizmatchi so'zлari orasiga olib yoziladi.

Masalan, *if*  $x > 5$  *then* *begin*  $y := 2 * x$ ;  $z := \ln(x)$  *end* *else* *begin*  $y := \text{sqr}(x)$ ;  $z := \exp(x)$  *end*:

Shartli operator tarkibida yana shartli operator kelishi mumkin.

Masalan, *If A1 then B1 else if A2 then B2 else B3*:

**O'tish operatori.** Dasturlash jarayonida ba'zi hollarda boshqaruvni dasturning biror qismiga to'g'ridan-to'g'ri o'tkazishga to'g'ri keladi. Bunday holatlarda shartsiz o'tish operatoridan foydalaniadi.

Shartsiz o'tish operatorining umumuy ko'rinishi quyidagicha:

*Goto n;*

bu yerda:  $n$  – nishon nomi;

*goto* – o'tish ma'nosini bildiradi.

Nishon sifatida identifikatorlar yoki natural sonlar ishlatilishi mumkin.

Masalan, *goto N*; yoki *goto 7*;

Nishon dasturning yuqori qismida *Label* xizmatchi so'zi yordamida e'lon qilinishi lozim.

Masalan, *label n, 7*:

Boshqaruv o'tiladigan joyga nishon ikki nuqta yodamida qo'yiladi.

Masalan,  $n$ : yoki 7: kabi.

### Misollar

1.  $ax^2 + bx + c = 0$  kvadrat tenglamaning ildizlarini topish dasturi tuzilsin.

program Project1;

var a,b,c,d,x,x1,x2:real;

begin

writeln('kvadrat teglamaning a,b,s koeffitsiyentlarini kriting');

readln(a,b,c);

if a=0 then

begin x:=-c/b; writeln('x= ',x:4:2); end

else

begin

d:=sqr(b)-4\*a\*c;

```

if d>0 then
begin
  x1:=(-b-sqrt(b))/(2*a);
  x2:=(-b+sqrt(b))/(2*a);
  writeln('x1=',x1:4:2,' x2=',x2:4:2)
end
else
if d=0 then
begin x:=-b/(2*a); writeln('x=',x:4:2); end
else writeln('tenglama yechimga ega emas')
end;
readln
end.

```

Bu dasturda o'tish operatoridan foydalanish ham mumkin:

```

program Project1;
label 1;
var a,b,c,d,x,x1,x2:real;
begin
writeln('kvadrat teglamaning a,b,s koeffitsiyentlarini kriting');
readln(a,b,c);
if a=0 then
begin
  x:=-c/b;
  writeln('x=',x:4:2); goto 1
end;
d:=sqr(b)-4*a*c;
if d>0 then
begin
  x1:=(-b-sqrt(b))/(2*a);
  x2:=(-b+sqrt(b))/(2*a);
  writeln('x1=',x1:4:2,' x2=',x2:4:2); goto 1
end
if d=0 then
begin
  x:=-b/(2*a);
  writeln('x=',x:4:2); goto 1;
end
writeln('tenglama yechimga ega emas');
1: readln
end.

```

## Tanlash operatori

Ko'p hollarda biror-bir parametrning qiymatiga qarab operatorlar guruhidan keraklilarini bajarishga to'g'ri keladi. Bunday hollarda tanlash operatorini ishlatalish maqsadga muvofiq. Tanlash operatorining umumiy ko'rinishi quyidagicha:

Case k of

A1: S1;

A2: S2;

An: Sn

else P

End;

bu yerda: case – tanlash;  
of – dan ma'nolarini bildiradi;  
k – operator selektori;  
A1,A2,...,An – nishonlar;  
S1,S2,...,Sn, P – operatorlar.

k ning qiymati A1, A2, ..., An nishonlardan biriga teng bo'lsa, mos ravishda S1,S2,...,Sn operatorlardan biri bajariladi, aks holda P operator bajariladi.

Masalan, shartli operator yordamida yozilgan If B then S1 Else S2; ifodasini tanlash operatori yordamida quyidagicha yozish mumkin:

Case B of

True: S1;

False: S2

End;

Operator selektori – k ifoda yoki o'zgaruvchi bo'lib, qiymati tartiblangan turlardan biriga (butun, simvolli, mantiqiy, sanoqli) tegishli bo'lishi lozim. Nishonlar o'mida tartiblangan turlar qiymatlari bo'ladi, haqiqiy va qatorli turlar ma'lumotlaridan foydalanish mumkin emas. Bitta qatordagi nishonlar bir yoki bir nechta qiymatlardan iborat bo'lishi mumkin. Agar qiymatlari diapazondan iborat bo'lsa, ularning birinchi va oxirgi qiymatlarni ikki nuqta bilan ko'rsatish ham mumkin. Masalan, bitta nishon o'mida 3,4,5,6 nishonlar berilgan bo'lsa, bulami 3..6 kabi yozish mumkin. Shuningdek, bitta operator o'mida tarkibiy operator kelishi mumkin.

## Misollar

1. Oy tartib raqami kiritilganda qaysi faslga tegishli ekanligini aniqlab beruvchi dastur tuzilsin.

```
Program fasl;
var n:integer;
    f:string;
begin
    writeln('Oy tartib raqamini kriting');
    readln(n);
    case n of
        3,4,5: f:='Bahor';
        6,7,8: f:='Yoz';
        9,10,11: f:='Kuz';
        12,1,2: f:='Qish'
    end;
    writeln(n,'-oy ',f, ' fasliga tegishli');
    readln
end.
```

2. Fandan olingan umumiy ball kiritilganda bahoni ekranga chiqarib beruvchi dastur tuzilsin.

```
Program baholash;
var n:integer;
    b:string;
begin
    writeln('ballni kriting');
    readln(n);
    case n of
        0..55: b:='Ikki';
        56..70: b:='Uch';
        71..85: b:='To\'rt';
        86..100: b:='Besh';
    end;
    writeln('Bahongiz ',b);
    readln
end.
```

## Parametrlı takrorlanish operatori

Ayrim masalalarda ma'lum hisoblashlarni ko'p marta takror bajarishga to'g'ri keladi. Bunday takrorlanishlarni ifodalash uchun *for*, *while*, *repeat* takrorlanish operatorlari qo'llaniladi.

For operatori takrorlanishlar soni oldindan aniq bo'lgan hollarda ishlataladi. Uning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

*For i:=n1 to n2 do S;*

bu yerda:  $i$  – sikl o'zgaruvchisi bo'lib faqat tartiblangan turlar qiymatlarini qabul qiladi;

$n1, n2$  – sikl o'zgaruvchisining birinchi va oxirgi qiymatlari;

$S$  – sikl tanasi, ya'ni bajariladigan operator. Agar sikl tanasi ikki va undan ortiq operatorordan iborat bo'lsa, ular tarkibiy operatoroga ichida yoziladi.

For operatori quyidagicha ishlaydi: dastlab sikl o'zgaruvchisining birinchi va oxirgi qiymati aniqlab olinadi, so'ngra sikl o'zgaruvchisi aniqlangan birinchi qiymatni qabul qiladi va schyotchik kabi avtomatik keyingi qiymatlarini qabul qilaveradi. Bunda agar qabul qilingan qiymatlar sikl o'zgaruvchisining oxirgi qiymatidan kichik yoki teng bo'lsa, sikl tanasi bajariladi, aks holda sikl tugatiladi.

For operatorining quyidagi ko'rinishi ham mavjud:

*For i:=n2 downto n1 do S;*

Bu operatorning dastlabki ko'rinishdagi operatordan farqi shundaki, bunda sikl o'zgaruvchisining qiymati oxirgi qiymatdan birinchi qiymatgacha kamayib boradi.

### Misollar

1.  $\prod_{i=3}^n \frac{1}{x^i}$  ifodani hisoblash dasturi tuzilsin.

Program dastur1;

var i,n:integer; P,x:real;

begin

writeln('x va n ni kiriting');

readln(x,n);

P:=1;

For i:=3 to n do

P:=P\*1/exp(i\*ln(x));

writeln('P=',P:6:4);

readln

end.

$$2. \sum_{k=a}^{10} \prod_{i=5}^m k^x \text{ ifodani hisoblash dasturi tuzilsin.}$$

Program dastur2;

```
var i,n:integer;
    P,x:real;
begin
    writeln('x va n ni kriting');
    readln(x,n);
    S:=0;
    for k:=a to 10 do
        begin
            P:=1;
            For i:=5 to m do
                P:=P*k*exp(i*ln(x));
            S:=S+P
        end;
    writeln('S=',S:6:2);
    readln
end.
```

## Sharti oldin va sharti keyin beriladigan takrorlanish operatorlari

### *While operatori*

*While sikl operatori* takrorlanishlar soni oldindan aniq bo'limgan hollarda qo'llaniladi va sharti oldin beriladigan sikl operatori hisoblanadi.

Operatorming umumiy ko'rinishi quyidagicha:

*While B Da S;*

bu yerda *B* – mantiqiy ifoda;

*S* – sikl tanasi bo'lib, bir yoki bir nechta operatorlardan iborat bo'lishi mumkin.

Operator quyidagicha ishlaydi: dastlab mantiqiy ifoda hisoblanadi, agar bu ifoda qiymati *true* bo'ssa, *S* operator bajariladi va boshqaruv yana operator boshiga o'tkaziladi hamda mantiqiy ifoda takroran hisoblanadi. Bu jarayon mantiqiy ifoda *false* qiymat qabul qilguncha davom etadi.

### **Misollar**

1.  $y = k^2 \ln x - \pi$ ,  $2 \leq x < 5$   $h_s = 0,4$  ifodaning qiymatlarini hisoblash dasturi tuzilsin.

Program dastur1;

```

const hx=0.4;
var y,k,x:real;
begin
  readln(k);
  x:=2;
  while x<=5 do
    begin
      y:=sqr(k)*ln(x)-pi;
      writeln('x=',x:3:1,' y=',y:6:2);
      x:=x+hx
    end;
  readln
end.

```

$$2. \prod_{i=3}^n \frac{1}{x^i}$$

ifodani hisoblash dasturi tuzilsin.

Bunday ifodalarni hisoblash dasturlari odatda *for* operatori yordamida tuziladi. Ammo bu ko'rnishdag'i ifodalarni *while* operatori yordamida tuzish ham mumkin:

```

Program dastur2;
var i,n:integer;
  P,x:real;
begin
  readln(n,x);
  P:=1; i:=3;
  while i<=n do
    begin
      P:=P*i/exp(i*ln(x));
      i:=i+1
    end;
  writeln('P=',P:6:4);
  readln
end.

```

Dasturda  $i$  va  $n$  o'zgaruvchilarni butun tur sifatida e'lon qilish shart emas, ya'ni haqiqiy tur deb e'lon qilish ham mumkin.

*While* operatori yordamida ixtiyoriy murakkalidagi sikllarni tashkil qilish imkoniyati mavjud.

$$3. \quad y = \frac{\cos^2 x}{\log_a b}, \quad \text{bunda } -1 \leq x \leq 1, \quad h_x = 0,25, \quad 2 \leq b \leq 10, \quad h_b = 0,5$$

ifodaning qiyatlarini ekranga chiqarish dasturini tuzing.

Program dastur3;

```
const hx=0.25; hb=0.5;
```

```
var x,y,a,b:real;
```

```
begin
```

```
  readln(a);
```

```
  x:=-1;
```

```
  while x<=1 do
```

```
    begin
```

```
      b:=2;
```

```
      while b<=10 do
```

```
        begin
```

```
          y:=sqr(cos(x))/(ln(b)/ln(a));
```

```
          writeln('x=',x:3:1,' b=',b:3:1,' y=',y:6:2);
```

```
          b:=b+hb
```

```
        end;
```

```
        x:=x+hx
```

```
      end;
```

```
    readln
```

```
end.
```

### *Repeat operatori*

*Repeat siki operatori* ham takrorlanishlar soni oldindan aniq bo'lmagan hollarda ishlataladi hamda sharti keyin beriladigan siki operatori deb ham ataladi.

Operatoming umumiy ko'rinishi quyidagicha:

*Repeat S1,S2,...,Sn until B;*

bu yerda: *B* – mantiqiy ifoda;

*S1,S2,...,Sn* – bajariladigan operatorlar.

Operator quyidagicha ishlaydi: dastlab *S1,S2,...,Sn* – operatorlar bajariladi. So'ng mantiqiy ifoda hisoblanadi, agar mantiqiy ifoda qiymati *false* bo'lsa, boshqaruv yana operator boshiga o'tkaziladi hamda operatorlar takroran bajariladi. Takrorlanishlar mantiqiy ifoda *true* qiymat qabul qilguncha davom etadi. Demak, *repeat* operatorida *for* va *while* operatorlariidan farqli ravishda siki tanasi kamida bir marta bajariladi.

### **Misollar**

*While* operatori yordamida tuzilgan dasturlarni *repeat* operatori orqali

yozyaylik.

1.  $y = k^2 \ln x - \pi$ ,  $2 \leq x \leq 5$   $h_x = 0.4$  ifodaning qiymatlarini hisoblash dasturi tuzilsin.

Program dastur1;

const hx=0.4;

var y,k,x:real;

begin

readln(k);

x:=2;

repeat

y:=sqr(k)\*ln(x)-pi;

writeln('x=';x:3:1; ' y=';y:6:2);

x:=x+hx

until x>5;

readln

end.

2.  $\prod_{i=3}^n \frac{1}{x^i}$  ifodani hisoblash dasturi tuzilsin.

Program dastur2;

var i,n:integer; P,x:real;

begin

readln(n,x);

P:=1; i:=3;

repeat

P:=P\*i/exp(i\*ln(x));

i:=i+1

until i>n;

writeln('P=';P:6:4);

readln

end.

3.  $y = \frac{\cos x}{\log b}$ , bunda  $-1 \leq x \leq 1$ ,  $h_x = 0.25$ ,  $2 \leq b \leq 10$ ,  $h_b = 0.5$  ifodaning

qiymatlarini ekranga chiqarish dasturini tuzing.

Program dastur3;

const hx=0.25; hb=0.5;

var x,y,a,b:real;

begin

```

readln(a);
x:=-1;
repeat
  b:=2;
  repeat
    y:=sqr(cos(x))/(ln(b)/ln(a));
    writeln('x=',x:3:1,' b=',b:3:1,' y=',y:6:2);
    b:=b+hb
  until b>10;
  x:=x+hx
until x>1;
readln
end.

```

Murakkab sikllarda takrorlanish operatorlarini aralashtirib qo'llash ham mumkin. Masalan, tashqi siklni *while*, ichki siklni *repeat* operatori yordamida, yoki *repeat-while*, *for-repeat*, *while-for* kabi juftliklardan foydalanish ham mumkin.

Yuqorida tuzilgan dasturni *while-repeat* juftligidan foydalanib yozamiz.

```

Program dastur4;
const hx=0.25; hb=0.5;
var x,y,a,b:real;
begin
  readln(a);
  x:=-1;
  while x<=1 do
    begin
      b:=2;
      repeat
        y:=sqr(cos(x))/(ln(b)/ln(a));
        writeln('x=',x:3:1,' b=',b:3:1,' y=',y:6:2);
        b:=b+hb
      until b>10;
      x:=x+hx
    end;
  readln
end.

```

## Massivlar, bir o'lchovli massivlar

Ko'p hollarda jadval yoki matritsalar ko'rinishidagi ma'lumotlar bilan ish yuritish kerak bo'ladi. Jadvalda ma'lumotlar juda ko'p bo'lganligi sababli, ularning har bir yacheykasidagi elementni mos ravishda bittadan o'zgaruvchiga qiymat qilib berilsa, ular ustida ish bajarish ancha murakkabliklar va noqulayliklarga olib keladi. Shu sababli, dasturlashda bunday muammolar massivlarni ishlatish yordamida hal qilinadi.

**Massiv** – bu bir nom bilan belgilangan qiyamatlar gunihi yoki jadvaldir. Massivlar bir o'lchovli yoki ko'p o'lchovli bo'lishi mumkin. Vektorni bir o'lchovli massiv, matritsani ikki o'lchovli massiv deb qarash mumkin.

Bir o'lchovli  $A_i$ ,  $i = \overline{k_1..kn}$  massiv elementlari dasturda  $A[i]$  kabi ishlatiladi va umumiyoq ko'rinishda quyidagicha e'lon qilinadi:

var  $A:array[k_1..kn]$  of  $T$ ;

bu yerda:  $A$  – massiv nomi;

$k_1, kn$  – massiv elementlari sonining quyi va yuqori chegaralari bo'lib, ular aniq butun sonlar yoki o'zgarmaslar bo'lishi lozim;

$T$  – massiv elementlari turi.

Masalan,

*Const n=20;*

*Var A:array[1..30] of integer;*

*B:array[3..n] of real;*

Bunda  $A$  – 1 dan 30 gacha tartiblangan 30 ta butun sonlardan iborat bir o'lchovli jadvaldir.  $V$  – 3 dan  $n$  gacha tartiblangan ( $n$  ga o'zgarmaslar bo'limida aniq qiymat berilgan)  $n-2$  ta haqiqiy sonlardan tashkil topgan bir o'lchovli jadvaldir.

Massivlarni e'lon qilishdan maqsad, massiv elementlari uchun operativ xotiradan joy ajratishdir.

Massiv elementlari qiyamatlarini kiritish odatda *for* operatori orqali amalga osbiriladi.

Masalan, *for i:=1 to 10 do read(A[i]);*

Bu misolda A massivning 10 ta elementi qiymati klaviaturadan ketma-ket kiritiladi.

Xuddi sbuningdek, massiv elementlarini ekranga ketma-ket chiqarish ham mumkin.

Masalan, *For i:=1 to 10 do Write(A[i]);*

### Misollar

1. N ta baqiqiy sonlardan tashkil topgan bir o'lchovli massiv elementlari yig'indisini topish dasturini tuzing

```

Program summassiv;
var i,n: integer;
    S:real;
    a: array[1..100] of real;
begin
    write ('Massiv o'lchamini kiriting n=');
    readln(n);
    writeln('Massiv elementlarini kiriting');
    for i:=1 to n do readln(a[i]);
    S:=0;
    for i:=1 to n do S:=S+a[i];
    writeln('S=',S:6:2);
    readln
end.

```

2. 10 ta butun sonlardan iborat bir o'lchovli massivning eng kichik elementini va uning joylashgan o'mini topish dasturini tuzing.

*Bajarish:*

Bu masalada dastlab birinchi element eng kichik deb olinib, keyin boshqa elementlar bilan solishtirib chiqiladi va kerakli o'rinda almashtirishlar bajariladi.

Program eng kichik;

```

var i,min: integer;
    a: array[1..10] of integer;
begin

```

```

    writeln ('Massivning 10 ta elementini kiriting');
    for i:=1 to 10 do read(a[i]);
    min:=i;
    for i:=2 to 10 do if a[i]<a[min] then min:=i;
    writeln('Izlanayotgan eng kichik element: ',a[min], ' Element
            tartib tartib raqami: ',min );
    readln

```

end.

3. Bir o'lchovli massiv elementlarini o'sish tartibida joylashtirish dasturini tuzing.

*Bajarish:*

Massivlarni tartiblashning bir necha usullari mavjud. Ulardan tanlash va almashtirish usullarini qarab chiqamiz.


*Tanlash usuli* yordamida massivni o'sish bo'yicha tartiblashtirish algoritmi quyidagicha:

- Massivning birinchi elementidan boshlab qarab chiqilib, eng kichik element topiladi.
- Birinchi element bilan eng kichik element joylari almashtiriladi.
- Ikkinci elementidan boshlab qarab chiqilib, eng kichik element topiladi.
- Ikkinci element bilan eng kichik element joylari almashtiriladi.
- Bu jarayon bitta oxirgi elementgacha takrorlanadi.

Algoritm dasturi masalan 5 ta element uchun quyidagicha bo'ldi:

```
Program tartiblash1;
const s=5;
var i,j,min,k,buf: integer;
    a: array[1..s] of integer;
begin
  writeln(s, ' ta massiv elementini kiriting');
  for k:=1 to s do read(a[k]);
  writeln ('Tartiblashtirish jarayoni');
  for i:=1 to s-1 do
    begin
      min:=i;
      for j:=i+1 to S do
        if a[j]<a[min] then min:=j;
      buf:=a[i]; a[i]:=a[min]; a[min]:=buf;
      for k:=1 to s do write(a[k],' ');
      writeln;
    end;
  readln;readln
end.
```

Natija 5-rasmdagidek bo'ldi:



5-rasm. Dastur natijasi

*Almashtirish usuli* yordamida massivni o'sish bo'yicha tartiblashtirish algoritmi quyidagicha:


- Massivning birinchi elementidan boshlab ketma-ket hamma qo'shni elementlar bir-biri bilan solishtirilib, agar birinchisi ikkinchisidan kichik bo'lsa, ularning joyi almashtirilib boriladi.
- Bu jarayon davomida kichik qiymatli elementlar massiv boshiga, katta elementlar esa oxiriga siljitiib boriladi.
- Bu jarayon massiv elementlar sonidan bitta kam takrorlanadi.  
Algoritm dasturi 5 ta element uchun quyidagicha bo'ladi:

```

Program tartiblash2;
const s=5;
var i,k,buf:integer;
    a:array[1..s] of integer;
begin
    writeln('ta massiv elementini kriting');
    for k:=1 to s do read(a[k]);
    writeln('Tartiblashtirish jarayoni');
    for i:=1 to s-1 do
        begin
            for k:=1 to s-1 do
                if a[k]>a[k+1] then
                    begin
                        buf:=a[k]; a[k]:=a[k+1]; a[k+1]:=buf;
                    end;
            for k:=1 to s do write(a[k],' ');
            writeln;
        end;
    readln; readln
end.

```

Dastur natijasi 6-rasmdagidek bo'ladi::



6-rasm. Dastur natijasi

## Ikki o'lchovli massivlar

Ikki o'lchovli  $B_{i,j}$ ,  $i = \overline{k1..kn}$ ,  $j = \overline{cl..cm}$  massiv elementlari dasturda  $B[i,j]$  kabibi ishlataladi va umumiy ko'rinishda quyidagicha e'lon qilinadi:  
var B:array[k1..kn,cl..cm] of T;

bu yerda:  $B$  – massiv nomi;

$k1..kn$  – massiv elementlari qatorlari sonining quyisi va yuqori chegaralari;

$cl..cm$  – massiv elementlari ustunlari sonining quyisi va yuqori chegaralari;

T – massiv elementlari turi.

Masalan,

Const n=20; m=30;

Var B:array[2..n,n..m] of integer;

Bunda  $B$  – 2 dan n gacha tartiblangan n-1 ta qatordan, n dan m gacha tartiblangan m-n+1 ta ustundan iborat  $(n-1) \times (m-n+1)$  ta butun sonlardan tashkil topgan ikki o'lchovli jadvaldir.

## Misollar

$$1. \sum_{i=1}^{10} \prod_{j=2}^n \sqrt{a_{ij}}$$
 ni hisoblash dasturini tuzing.

Program massiv21;

var i,j,n:integer;

S,P:real;

a: array[1..10,1..10] of real;

begin

write('n ni kiriting: '); readln(n);

writeln('Massiv elementlarini kiriting');

for i:=1 to 10 do

    for j:=2 to n do readln(a[i,j]);

S:=0;

for i:=1 to 10 do

    begin

        P:=1;

        for j:=2 to n do

            P:=P\*sqrt(a[i,j]);

        S:=S+P

    end;

    writeln('S=',S:6:2);

    readln

end.

2. m x n o'lchamli ikki o'lchovli massivning 3-ustunini k soniga ko'paytirishdan hosil bo'lgan massivni ekranga chiqarish dasturini tuzing.

Program massiv22;

var i,j,m,n,k: integer;

a:array[1..10,1..10] of integer;

begin

write('qatorlar soni m=');

readln(m);

write('ustunlar soni n=');

readln(n);

writeln ('Massiv elementlarini kiriting');

for i:=1 to m do

for j:=1 to n do

readln(a[i,j]);

write('ko'paytiriladigan son k=');

readln(k);

for i:=1 to m do

a[i,3]:= a[i,3]\*k;

for i:=1 to m do

begin

for j:=1 to n do

write(' a['+i+',',j,']=',a[i,j]);

writeln

end;

readln

end.

## Dinamik massivlar

Dinamik massivlar oldindan elementlari soni aniq bo'lmasagan massivlarni qo'llashda ishlataladi.

Bir o'lchovli dinamik massiv umumiy ko'rinishda quyidagicha e'lon qilinadi:

*var A.array of T;*

bu yerda: *A* – jadval nomi;

*T* – massiv elementlari turi.

Masalan, *var vek:array of real;*

Bunda haqiqiy sonlardan tashkil topgan *vek* nomli bir o'lchovli massiv e'lon qilinmoqda.

Massiv uzunligi hisoblash bo'limida *SetLength* protsedurasi yordamida

aniqlanishi lozim.

Masalan, *SetLength(vek, 10);*

Bunda vek nomli massiv uchun operativ xotiradan 0 dan 9 gacha bo'lgan 10 ta joy ajratilmoqda. Demak, bu massiv elementlarini *vek[0]*, *vek[1], ..., vek[9]* lar tashkil etadi.

### Misol

1.  $y_i = 2 \ln x_i + b$ ,  $i=0, n$  ni hisoblash dasturini tuzing.

Program dinamikmas1;

var x,y:array of real;

i,n: integer;

b:real;

begin

write('n=');

readln(n);

write('b=');

readln(b);

setLength(x,n);

setLength(y,n);

writeln('x massiv elementlarini kiriting');

for i:=0 to n do

  read(x[i]);

  readln;

  for i:=0 to n do

    begin

      y[i]:=2\*x[i]+b;

      writeln('x['+i+']=',x[i]:3:1,' y['+i+']=',y[i]:5:2)

    end;

  readln

end.

Ikki o'lchovli dinamik massiv umumiy ko'rinishda quyidagicha e'lon qilinadi:

*var B:array of array of T;*

bu yerda *B* – jadval nomi;

*T* – massiv elementlari turi.

Masalan, *var matr:array of array of real;*

Bunda haqiqiy sonlardan tashkil topgan *matr* nomli ikki o'lchovli massiv e'lon qilinmoqda.

Ikki o'lchovli dinamik massiv uzunligi ham *SetLength* protsedurasi

yordamida aniqlanadi.

Masalan, *SetLength*(*matr*,4,3);

Bunda 4x3 o'lchamli matr nomli massiv uchun operativ xotiradan 12 ta joy ajratiladi. Demak, bu massiv elementlarini *matr*[0,0], *matr*[0,1], *matr*[0,2], *matr*[1,0], *matr*[1,1], *matr*[1,2], *matr*[2,0], *matr*[2,1], *matr*[2,2], *matr*[3,0], *matr*[3,1], *matr*[3,2] lar tashkil etadi.

### Misol

2. Ikki o'lchovli a va b massivlar yig'indisini topish dasturi tuzilsin.

Program dmas2;

*var a,b,c:array of array of integer;*

*i,j,m,n: integer;*

*begin*

*write('m='');*

*readln(m);*

*write('n='');*

*readln(n);*

*setLength(a,m,n);*

*setLength(b,m,n);*

*setLength(c,m,n);*

*writeln(m\*n,' ta a massiv elementlarini kiriting');*

*for i:=0 to m-1 do*

*for j:=0 to n-1 do*

*read(a[i,j]);*

*writeln(m\*n,' ta b massiv elementlarini kiriting');*

*for i:=0 to m-1 do*

*for j:=0 to n-1 do*

*read(b[i,j]);*

*for i:=0 to m-1 do*

*for j:=0 to n-1 do*

*c[i,j]:=a[i,j]+b[i,j];*

*for i:=0 to m-1 do*

*for j:=0 to n-1 do*

*writeln('c['+intToStr(i)+','+intToStr(j)+']=',c[i,j]);*

*readln;*

*readln;*

*end.*

Xuddi shuningdek uch o'lchovli dinamik massivlarni ham ishlatish mumkin. Ular umumiy ko'rinishda quyidagicha e'lon qilinadi:

*var R:array of array of array of T;*

bu yerda:  $R$  – jadval nomi;  
 $T$  – massiv elementlari turi.

Masalan, var  $kub$ :array of array of array of integer;

Bunda butun sonlardan tashkil topgan  $kub$  nomli uch o'chovli massiv e'lon qilinmoqda.

Uch o'chovli dinamik massiv uzunligi ham *SetLength* protsedurasi yordamida aniqlanadi.

Masalan, *SetLength(kub,1,1,2)*:

Bunda  $2 \times 2 \times 3$  o'chamli  $kub$  nomli massiv uchun operativ xotiradan 12 ta joy ajratiladi. Demak, bu massiv elementlarini  $kub[0,0,0]$ ,  $kub[0,0,1]$ ,  $kub[0,0,2]$ ,  $kub[0,1,0]$ ,  $kub[0,1,1]$ ,  $kub[0,1,2]$ ,  $kub[1,0,0]$ ,  $kub[1,0,1]$ ,  $kub[1,0,2]$ ,  $kub[1,1,0]$ ,  $kub[1,1,1]$ ,  $kub[1,1,2]$  lar tashkil etadi.

### Misol

3.  $y_{ijk} = 2x_{ijk}$ ,  $i = \overline{0,1}$ ,  $j = \overline{0,2}$ ,  $k = \overline{0,3}$  ni hisoblash dasturini tuzing.

```
Program dmas3;
var x,y:array of array of array of integer;
    i,j,k: integer;
begin
    setLength(x,2,3,4);
    setLength(y,2,3,4);
    writeln('x massiv elementlarini kriting');
    for i:=0 to 1 do
        for j:=0 to 2 do
            for k:=0 to 3 do
                read(x[i,j,k]);
                readln;
    for i:=0 to 1 do
        for j:=0 to 2 do
            for k:=0 to 3 do
                begin
                    y[i,j,k]:=2*x[i,j,k];
                    writeln('x['',i,'',j,'',k,'']=',x[i,j,k],', y['',i,'',j,'',k,'']=',y[i,j,k])
                end;
                readln;
end.
```

## Protsedura va funksiyalar

Ayrim masalalarni yechishda ma'lum parametrlarning har xil qiymatlarida bir xil hisoblashlarni (jarayonlarni) bajarishga to'g'ri keladi. Bunday hollarda dastur hajmini kichraytirish maqsadida *qism dasturlardan* foydalaniadi. Bunda takrorlanadigan operatorlar ketma-ketligi uchun umumiy ko'rinishda bitta qism dastur tuziladi va kerak bo'lgan joylarda unga murojaat qilinadi.

Delphi tilida *qism dasturni protsedura* yoki *funksiya qism dasturi* ko'rinishida yozish mumkin. Protsedura yoki funksiyaga dasturning qayeridan murojaat qilinsa, boshqaruv yana shu joyga qaytib keladi. Dasturda e'lon qilingan o'zgaruvchilar shu dasturdagi protsedura va funksiyalarga nisbatan *global o'zgaruvchilar* deyiladi. Protsedura va funksiyalar ichida e'lon qilingan o'zgaruvchilar esa *lokal o'zgaruvchilar* deyiladi. Lokal o'zgaruvchilarning ta'sir doirasi shu qism dastur ichiga tegishli bo'ladi, xolos.

Har qanday qism dasturni kichik bir dastur deb qarash mumkin. Protsedura va funksiyalar ham dasturga o'xshab dastur strukturasining barcha bo'limlariga ega bo'lishi mumkin. Ya'ni qism dasturda sarlavha satri, nishonlar, o'zgarmaslar, turlar, o'zgaruvchilar, protsedura va funksiyalar, hisoblash bo'limlari ishtiroy etishi mumkin. Bulardan dastur strukturasidagidek sarlavha satri va hisoblash bo'limlari albatta ishtiroy etadi. Demak, protsedura va funksiyalar ichma-ich joylashishlari mumkin.

### Protsedura qism dasturi

Protsedura sarlavha satri umumiy ko'rinishda quyidagicha bo'ladi:

*Procedure <protsedura nomi>(<formal parametrlar>);*

Masalan,  $\sum_{i=1}^n \frac{1}{\sqrt{x}}$  ko'rinishidagi ifodalar uchun umumiy ko'rinishda quyidagicha protsedura tuzish mumkin:

```
Procedure sum(t1,t2: integer);
var i:integer;
begin
    S:=0;
    for i:=t1 to t2 do S:=S+i/sqr(i)
end;
```

Bu protseduraga dasturdan quyidagicha murojaat qilinadi:

*Sum(n,m);*

Protseduraga murojaat qilinganda faktik parametrlar qiymatlari mos ravishda formal parametrlarga uzatiladi. Shuning uchun formal va faktik parametrlar soni teng va ulaming mos ravishdagi turlari bir xil bo'lishi

shart. Bunda  $S, n, m$  lar global,  $t1, t2, i$  lar lokal o‘zgaruvchilar hisoblanadi.

### Misollar

1.  $v = \frac{\min(\sqrt{a}, 2 * b)}{3 * \min(a^2, 7)}$  ifodani hisoblash dasturini tuzing.

```
program Project1;
var y,a,b,min,c1,c2:real;
procedure kichigi(t1,t2:real);
begin
  if t1<t2 then min:=t1 else min:=t2
end;
begin
  readln(a,b);
  kichigi(sqrt(a),2*b);
  c1:=min;
  kichigi(sqr(a),7);
  c2:=min;
  y:=c1/(3*c2);
  writeln('y=',y:5:2);
  readln
end.
```

Bu dasturda protseduraga birinchi murojaat qilishda  $\sqrt{a}$  va  $2 * b$  lar mos ravishda  $x$  va  $y$  larga uzatiladi. Ulaming kichigi  $min$  o‘zgaruvchida bosil bo‘ladi. Bu qiymatni biror o‘zgaruvchiga o‘zlashtirish lozim, aks holda ikkinchi marta protseduraga murojaat qilinganda dastlabki natija o‘chib ketadi. Dasturda qiymat  $c1$  ga o‘zlashtiriladi. Ikkinci marta murojaat qilinganda hosil bo‘ladigan natija  $c2$  o‘zgaruvchiga o‘zlashtiriladi.

Yuqoridaq dasturni quyidagicha yozish ham mumkin:

```
Program Project2;
var y,a,b,c1,c2:real;
procedure kichigi(t1,t2:real; var min:real);
begin
  if t1<t2 then min:=t1 else min:=t2
end;
begin
  readln(a,b);
  kichigi(sqrt(a),2*b,c1);
  kichigi(sqr(a),7,c2);
```

```

y:=c1/(3*c2);
writeln('y=' ,y:5:2);
readln
end.

```

Bunda  $c_1$  va  $c_2$  o'zgaruvchilar ham protseduraga murojaat qilishda qatnashmoqda va mos ravishda protsedura parametrlari ro'yxatidagi min o'zgaruvchiga uzatiladi. Topilgan minimum qiymatlar  $c_1$  va  $c_2$  larga o'zlashtiriladi.

### Funksiya qism dasturi

Funksiya qism dasturi va ularni tashkil etish ham protseduraga o'xshash bo'lib, sarlavha satri urnumiyligi ko'rinishda quyidagicha bo'ladi:

*Function* <funksiya nomi>(<formal parametrlar>):<funksiya natijasi turi>;

Masalan, *Function Min* ( $x,y:real$ ): $real$ :

Funksiya qism dasturining protseduradan asosiy farqi shundaki, unga murojaat qilinganda natija faqat bitta bo'lib, u shu funksiya nomiga yoki *result* nomli standart o'zgaruvchiga o'zlashtiriladi.

**Misol.** Yuqoridaqgi  $y = \frac{\min(\sqrt{a}, 2 * b)}{3 * \min(a^2, 7)}$  ifodani funksiya qism dasturi yordamida hisoblash dasturini tuzing.

```

Program Project1;
var y,a,b,min,c1,c2:real;
function kichigi(t1,t2:real):real;
begin
  if t1<t2 then kichigi:=t1 else kichigi:=t2
end;
begin
  readln(a,b);
  y:=kichigi(sqrt(a),2*b)/(3*kichigi(sqrt(a),7));
  writeln('y=' ,y:5:2);
  readln
end.

```

### Fayllar bilan ishlash

Dasturda kiritiladigan va chiqariladigan ma'lumotlar soni ko'p miqdorda bo'lganda ularni faylda saqlash ma'qulroq. Bu ma'lumotlar

oddiy matnli fayllarda saqlanadi. Fayl o'zgaruvchisi quyidagicha e'lon qilinadi:

*var f: textfile;*

Dasturda fayl bilan ishlash uchun avvalo fayl o'zgaruvchisi (faylning mantiqiy nomi) bilan diskdag'i fayl (faylning fizik nomi) *Assign* funksiyasi yordamida bog'lanishi kerak. Shundan so'ng faylni *Rewrite*, *Reset* yoki *Append* funksiyalarining keraklisi orqali ochib, zarur bo'lgan ishlarni bajariladi. Fayl bilan biror ish bajarilgandan so'ng uni *Close* funksiyasi yordamida yopish lozim. Agar fayl bilan bir necha marta amal bajarish lozim bo'lsa, har bir amaldan so'ng uni *Close* funksiyasi yordamida yopib, *Reset* yoki *Append* funksiyalardan biri orqali qaytadan ochish lozim.

Fayllar bilan ishlovchi maxsus funksiyalar:

- *Assign* – fayl o'zgaruvchisi (faylning mantiqiy nomi) bilan diskdag'i faylni (faylning fizik nomini) bog'laydi. Masalan: *Assign(f,D:\fayl\f1.txt');*
- *Rewrite* – mantiqiy fayl yaratadi va uni ochadi. Masalan: *Rewrite(f);*
- *Reset* – faylni o'qish uchun ochadi. Masalan: *Reset(f);*
- *Append* – yozish uchun faylni ochadi. Masalan: *Append(f);*
- *Close* – faylni yopadi. Masalan: *Close(f);*
- *Read* – fayldan o'qish funksiyasi. Masalan: *Read(f, t);* buyrug'i faylda kurstor turgan joydagi elementni *t* o'zgaruvchiga o'zlashtiradi.
- *Write* – faylga yozish funksiyasi. Masalan: *Write(f, k);* buyrug'i faylda kurstor turgan joyga *k* elementni yozadi.
- *Eof* – fayl oxirini aniqlaydi. Bu funksiya fayl oxiriga yetganda *true* qiymat qabul qiladi.
- *Eoln* – qator oxirini aniqlaydi. Bu funksiya qator oxiriga yetganda *true* qiymat qabul qiladi.
- *SeekEoln* – *Eoln* funksiyasining vazifasini bajarib, qator oxiridagi probel va tabulyatsiyalarni hisobga olmaydi.

### Misollar

1. 3x4 o'lchamli 2 o'lchovli massiv elementlari kvadratlarini faylga yozish dasturini tuzing.

```
program Project1;
var f:textfile; i,j:integer;
    a:array[1..3,1..4] of integer;
begin
  for i:=1 to 3 do
    for j:=1 to 4 do read(a[i,j]);
  assign(f,'D:\fayl\f1.txt');
```

```

rewrite(f);
for i:=1 to 3 do
begin
  for j:=1 to 4 do write(f,sqr(a[i,j]),' ');
  writeln(f);
end;
close(f)
end.

```

Dasturni ishga tushirib,  $A$  massiv elementlari kiritilsa, d:\fayl\fl.txt fayli ichida kerakli ma'lumotlar hosil bo'ladi (7-rasm).



7-rasm. Massiv elementlari kiritish va fl.txt faylidagi 3x4 o'lchamli 2 o'lchovli massivni ekranga chiqarish dasturini tuzing.

```

program Project2;
var f:textfile; i,j:integer;
    a:array[1..3,1..4] of integer;
begin
  assign(f,'d:\fayl\fl.txt');
  Reset(f);
  for i:=1 to 3 do
  begin
    for j:=1 to 4 do read(f,a[i,j]);
    readln(f);
  end;
  close(f);
  for i:=1 to 3 do
  begin
    for j:=1 to 4 do write(a[i,j],' ');
    writeln
  end;
  readln
end.

```

Dasturni kiritib, natija olamiz (8-rasm).



8-rasm. Dastur natijasi

Tuzilgan dasturda fayldagi massiv elementlari sonini bilganligimiz uchun *for* operatoridan foydalandik. Odatda fayldagi ma'lumotlar o'qishdan oldin sanalmaydi. U holda fayldagi massiv elementlarini o'qish va ekranga chiqarish uchun quyidagicha dastur tuziladi:


```
program Project1;
var f:textfile; k,t,i,j:integer;
    a:array[1..3,1..4] of integer;
begin
  assign(f,'d:\fayl\fl.txt');
  Reset(f);
  i:=0;
  while not eof(f) do
    begin
      i:=i+1;
      j:=0;
      while not seekeoln(f) do
        begin
          j:=j+1;
          read(f,a[i,j]);
        end;
      readln(f);
    end;
  close(f);
  for k:=1 to i do
    begin
      for t:=1 to j do
        write(a[k,t],',');
      writeln;
    end;
  readln
end.
```

## **Delphi ning vizual imkoniyatlari, Delphi dasturlash muhitি**

Delphi konsol ilovasi yordamida dasturlash tili, strukturasi, dastur tuzish qoidalari o'rganib chiqilgandan so'ng dasturlar Delphi ning haqiqiy imkoniyatlarini ochib beruvchi vizual dasturlash muhitida tuziladi.

**Delphi ning vizual dasturlash muhitи** Windows operatsion tizimi uchun mo'ljalangan dasturlash vositasi bo'lib, kompyuterda dastur tuzish ishlarini avtomatlashtiradi. Delphi tizimi dastur tuzishni sezilarli darajada soddalashtiradi va dastur tuzuvchi ishining asosiy qismini tizimga yuklaydi. Delphi tizimi dastumi loyihalash va yaratish vaqtini kamaytiradi hamda Windows muhitida ishlovchi dastur ilovalarini tuzish jarayonini osonlashtiradi.

Delphi ishga tushirilganda Delphining vizual dasturlashga imkon beruvchi dasturlash muhitи hosil bo'ladi (9-rasm).



9-rasm. Delphi dasturlash muhitи

Dasturlash muhitи elementlari quyidagilar:

- **sarlavha satri.** Bu yerda sistemali menu tugmasi, dastur va fayl nomi hamda oynani boshqarish tugmalari o'rinn olgan;
- **menu qatori.** Dastur *File*, *Edit*, *Search*, *View*, *Project*, *Run*, *Component*, *Database*, *Tools*, *Window*, *Help* menyularidan iborat bo'lib, barcha buyruqlar menyularda qulay tarzda joylashtirilgan;

- uchinchi qatorning chap tomonida odatda *uskunalar paneli* joylashgan bo'ladi. Bu yerda Delphi muhitida eng ko'p ishlataladigan buyruqlar vizual ko'rinishdagi tugmachalar shaklida tasvirlangan bo'lib, foydalanuvchi ishini tezlashtirishga mo'ljallangan;
- uchinchi qatorning ikkiriichi yarmida odatda *komponentlar palitrasи* joylashgan bo'ladi. Bu yerda ko'p miqdordagi obyektlar (componentlar) jamlangan bo'lib, ular Delphi mubitining dastur yaratish vositasi hisoblanadi;
- ekranning o'rta qismida Delphi muhitining ishchi obyekti – *forma* (Form) joylashgan. Komponentlar (obyektlar) shu formaga joylashtiriladi. Ushbu forma eng asosiy obyekt hisoblanib, dasturlashning yakuniy natijasi shu formada aks etadi.
- formaning ostki qavatida *kod redaktori* (Unit) joylashgan. Barcha dasturlash kodlari shu oynada yoziladi va tahrirlanadi.
- formaning chap tomonida *obyektlar shajarasi* (Object TreeView) va *obyekt inspektori* (Object Inspector) oynalari joylashgan. Obyektlar shajarasi oynasi orqali obyektlarning joylashish strukturasini osongina ko'rish va bu obyektlar bilan bog'liq jarayonlarga o'tish imkonini beradi. Obyekt inspektori oynasida belgilangan obyektning xossalalarini ko'rish va o'zgartirish imkoniyati mavjud.

### *Delphi dasturlash muhiti asosiy tushunchalari:*

**Obyekt.** Vizual dasturlashda bu atama muloqot oynasi va muloqot oynasida joylashadigan komponentlar – *forma*, *buyruq tugmasи* (button), *matnli axborot kiritiluvchi maydon* (edit), *menyu* va bosha komponentlar sifatida tushuniladi.

**Xossa.** Bunda obyekt xususiyatlari tushuniladi. Masalan uning o'Ichami, ekran yoki formada joylashishi, sarlavhasi yoki obyektdagi matn.

**Hodisa.** Yaratilgan dastuming ishlashi jarayonida bajariladigan harakatlar nomi hodisa deyiladi. Masalan, obyekt ustida sichqonchaning chap tugmasini bosish – *OnClick*. Bu hodisalarning ishlatalishi natijasida ma'lum amallar bajariladi.

*Delphi* da dastur yaratish jarayoni ikki bosqichga bo'linadi:

- 1) *formalarni loyihalashtirish*;
- 2) *dasturlashtirish*.

### *Formani loyihalashtirishdagi asosiy amallar:*

a) avvalo *Komponentlar palitrasidan* kerakli komponentlarni tanlab formaga joylashtirish lozim. Buning uchun *komponentlar palitrasida* kerakli obyekt belgilanadi va bu komponent formaning qayeriga

joylashtirilishi kerak bo'lsa, o'sha yerda sichqonchaning chap tugmasi bir marta bosiladi;

b) formada joylashgan komponentni sichqoncha yordamida ixtiyoriy joyga ko'chirish va o'lchamlarini o'zgartirish mumkin;

c) odatda obyektning xossalari *obyekt inspektori* oynasining *xossalar* (Properties) qismidan o'zgartiriladi. Buning uchun formada obyekt yoki obyektlar belgilanadi va xossalari qismidan kerakli xossa qiymatlari kiritiladi yoki o'zgartiriladi.

Yuqoridagi amallardan so'ng tuzayotgan dasturimizning tashqi ko'rinishi hosil bo'ladi. Bu dastur muayyan foydali ishni bajarishi uchun ikkinchi bosqich, ya'ni *dasturlashtirish bosqichiga* o'tamiz:

1. formada har bir obyekt ma'lum voqealarga bog'langan bo'ishi mumkin. Bu bog'likliklarni hosil qilish va ko'rish uchun formada kerakli komponentni, masalan, Label1 komponentini belgilaymiz;
2. *obyekt inspektori* oynasining *hodisalar* (Events) bo'limiga o'tamiz. Bu bo'lim ham ikki qismdan iborat. Chap tomonda hodisa nomlari, o'ng tomonda belgilangan obyektga mos hodisalar keltirilgan;
3. chap tomondan kerakli hodisani topib, o'ng tomondan bu hodisaga mos bo'gan katakcha ustida sichqonchaning chap tugmasini ikki marta bosamiz.



Bir komponent uchun bir nechta hodisalar yaratish yoki umuman yaratmaslik ham mumkin.

Natijada ekranda *kod redaktori* oynasi hosil bo'ladi va unga masalan Onclick hodisasi uchun quyidagi ifoda avtomatik qo'shiladi:

```
procedure TForm1.Button1Click(Sender: TObject);
begin
end;
```

Delphi muhiti shu qadar qulay avtomatlashtirilganki, dastur tuzuvchi faqat kursov turgan *begin* va *end* xizmatchi so'zlar orasiga o'z amallarini yozsa hamda foydalangan o'zgaruvchilarini e'lon qilsa kifoya. Qolgan barcha bo'limlarni Delphi ishga tushirilgandan boshlab o'zi avtomatik ravishda yozib boradi.

Forma tashkil etuvchilari bilan *kod redaktori* orasida uzviy bog'liqlik mavjud. Masalan, formaga biror komponent joylashtirilsa, dastur kodi ham avtomatik o'zgaradi.

Ma'lumki, Delphining konsol ilovasida ma'lumotlar to'g'ridan-to'g'ri *read* va *readln* protseduralari yordamida kiritilib, *write* va *writeln* protse-

duralari yordamida chiqarilardi. Delphi vizual dasturlash muhitida esa ma'lumotlarni kiritish va chiqarish ma'lum bir komponentlar, masalan, *Edit*, *Memo*, *Label*, *StringGrid* kabi komponentlar yordamida amalga oshiriladi.

Bu komponentlarning barchasi qatorli turlarni qabul qiladi. Shu sababli kiritilayotgan ma'lumot boshqa turda bo'lsa, komponentga yozilgan bu ma'lumot kod redaktorida kerakli turga aylantirib olinishi va aksincha, ekranga chiqarilayotgan ma'lumot qatorli turga aylantirib olinishi lozim. Buning uchun maxsus protseduralar mavjud. Ularning asosiyalar quyidagilar:

- ***StrToFloat (const S: string): Real;***  
S qatomni haqiqiy turga aylantiradi.
- ***StrToInt (const S: string): Integer;***  
S qatomni butun turga aylantiradi.
- ***StrToBool (const S: string): Boolean;***  
S qatomni mantiqiy turga aylantiradi.
- ***FloatToStr (a: real): string;***  
a haqiqiy sonni qatorli turga aylantiradi.
- ***IntToStr (k: Integer): string;***  
k butun sonni qatorli turga aylantiradi.
- ***BoolToStr (k: Boolean): string;***  
k mantiqiy qiymatni qatorli turga aylantiradi.

Masalan, *x* haqiqiy va *n* butun sonlar kiritilishi kerak bo'lsa, formaga loyihalash vaqtida *x* soni uchun *Edit1*, *n* soni uchun *Edit2* komponentlarini joylashtiramiz. Kod redaktorida kerakli joyda quyidagini yozamiz:

```
x:=strtofloat(edit1.text);  
n:=strtoint(edit2.text);
```


Masalan, *x* haqiqiy va *n* butun sonlar ekranga chiqishi kerak bo'lsa, formaga loyihalash vaqtida *x* soni uchun *Edit3*, *n* soni uchun *Edit4* komponentlarini joylashtiramiz. Kod redaktorida kerakli joyda quyidagini yozamiz:

```
Edit3.Text:=floattostr(x);  
Edit4.text:=IntToStr(n);
```

## Sinflar va komponentlar

Komponentlar obyekt tushunchasining eng asosiy qismi hisoblanadi. Delphida komponentlar *Vizual komponentlar kutubxonasi* (Visual Component Library-VCL) deb nomlangan murakkab shajaraviy struktura

ko'rnishida joylashtirilgan. Quyida ushbu struktura keltirilgan:



VCL tarkibiga kiruvchi **TObject** sinfi boshqa hamma sinflarning eng yuqorisini bo'lib, obyektlarni tuzish va boshqarish imkonini beradi.

**TPersistent** sinfi **TObject** sinfidan kelib chiqadi va u obyektlarni tashkil qilish uchun o'zida bir necha usullarni saqlaydi.

**TComponent** sinfi barcha komponentlarni o'zida birlashtiradi.

**TControl** sinfi xossalari, usullari va vizual komponentlar xodisalarini ta'minlab beradi. Bular yordamida klaviaturadan va sichqonchadan foydalangan holda ma'lumotlarni ekranga chiqarish va dasturga kiritish mumkin.

**TWinControl** sinfi **TControl** sinfining davomchisi bo'lib, oyna elementlarini boshqarish va yaratish uchun ishlataladi.

**TGraphicControl** sinfi ham **TControl** sinfining davomchisi bo'lib, grafik elementlarni boshqarish uchun ishlataladi.

Keltirilgan strukturada har bir sinf o'zidan oldingi sinflarga tegishli hisoblanadi. Bu sinflarga tegishli bo'lgan komponentlarning ba'zi xossa va hodisalari quyidagilar:

### Xossalari

**Left: Integer** – ekranning chap chegarasidan komponent yuqori chap chegarasigacha bo'lgan masofani piksellar hisobida o'zgartiradi.

**Top: Integer** – ekranning yuqori chegarasidan komponent yuqori chap chegarasigacha bo'lgan masofani piksellar hisobida o'zgartiradi.

**Width: Integer** – komponent kengligini piksellar hisobida o'zgartiradi.

**Height: Integer** – komponent balandligini piksellar hisobida o'zgartiradi.

**Align: TAlign** – komponentning o'zi joylashgan obyektda qanday holatda joylashishini bildiradi. Talign tipiga tegishli qiymatlar:

*AllNone* – joylashish o‘zgarmaydi.

*AllTop* – komponent balandligi o‘zgarmagan, kengligi obyekt kengligiga teng bo‘lgan holda obyekt yuqorisidan joylashadi.

*AllBottom* – komponent balandligi o‘zgarmagan, kengligi obyekt kengligiga teng bo‘lgan holda obyekt quyi qismidan joylashadi.

*AllLeft* – komponent kengligi o‘zgarmagan, balandligi obyekt balandligiga teng bo‘lgan holda obyekt chap tomonidan joylashadi.

*AllRight* – komponent kengligi o‘zgarmagan, balandligi obyekt balandligiga teng bo‘lgan holda obyekt o‘ng tomonidan joylashadi.

*AllClient* – komponent kengligi va va balandligi butun obyekti bo‘yicha kengaygan holatda joylashadi.

*AutoSize*: Boolean – agar bu xossa *true* qiymat qabul qilsa, u holda komponent o‘lchamlari uning tashkil etuvchisiga qarab avtomat ravishda o‘zgaradi. Masalan, *Edit* komponenti balandligi unga yozilgan matn shriftiga qarab avtomatik o‘zgaradi.

*Caption*: *TCaption* – komponent sarlavhasini qo‘yish. Eslatma sifatida shuni aytib o‘tish kerakki, Delphi muhitida butun, haqiqiy, simvolli, qatorli turlar bilan birga boshqa ko‘pgina turlar ham joriy qilingan. Masalan, *Caption* xossasi *TCaption* turiga tegishli bo‘ladi.

*Color*: *TColor* – komponent fonini aniqlaydi. Quyida *TColor* turiga tegishli bo‘lgan ba’zi qiymatlar keltirilgan:

<i>clBlack</i>	qora
<i>clGreen</i>	yashil
<i>clSilver</i>	kumush rang
<i>clRed</i>	qizil
<i>clBlue</i>	ko‘k
<i>clYellow</i>	sariq
<i>clWhite</i>	oq
<i>clWindow</i>	oyna rangida
<i>clAqua</i>	havorang
<i>clGray</i>	kulrang
<i>clNavy</i>	to‘q ko‘k
<i>clFuchsia</i>	binafsha rang

*Enabled*: Boolean – xossa qiymati *true* bo‘lsa, komponent aktiv holatga, *false* bo‘lsa, passiv holatga o‘tadi.

*Hint*: String – komponent ustiga sichqoncha ko‘rsatkichi olib borilganda paydo bo‘ladigan matnni aniqlaydi.

*ShowHint*: Boolean – xossa *true* qiymat qabul qilsa, *Hint* xossasi aktiv, *false* qiymat qabul qilsa, passiv holatga o‘tadi.

*Text*: *TCaption* – komponentiga yozilgan matnni aniqlaydi.

*Visible*: Boolean – xossa *true* qiymat qabul qilsa, komponent ekranda ko'rinib turadi, *false* qiymat qabul qilsa, novizual holatga o'tadi.

### Protseduralar

*BringToFront* – komponentni barcha komponentlar old qismiga joylashtiradi.

*SendToBack* – komponentni barcha komponentlar ostki qavatiga joylashtiradi.

*Hide* – joriy komponentni unda joylashgan barcha ichki komponentlar bilan birgalikda ko'rmas holatga o'tkazadi. Bu buyruq bajarilganda *Visible* xossasi avtomatik ravishda *False* qiymatga ega bo'ladi.

*Show* – komponentni unda joylashgan barcha komponentlar bilan birga vizual holatga o'tkazadi. Bu buyruq bajarilganda *Visible* xossasi avtomatik ravishda *True* qiymatga ega bo'ladi.

*Refresh* – komponentni tozalaydi.

### Hodisalar

*OnClick* – bu hodisa sichqoncha chap tugmasi obyekt ustida bir marta bosib qo'yib yuborilganda yuzaga keladi.

*OnMouseDown* – sichqoncha chap tugmasi obyekt ustida bir marta bosilganda yuzaga keladi.

*OnMouseMove* – komponent ustiga sichqoncha ko'rsatkichi olib borilganda yuzaga keladi.

### Delphi komponentlari

Delphi komponentlar palitrasida 400 dan ortiq turli komponentlar mavjud bo'lib, ular qo'llanilish sohasiga qarab bo'limtarga ajratilgan. Masalan, eng ko'p ishlatiladigan *Standard* komponentlar palitrasida quyidagilar o'rinn olgan:

- *MainMenu* – dastur bosh menyusi. Komponent murakkab ierarxik turdag'i menu yaratish imkonini beradi.
- *PopupMenu* – kontekst menu yaratishga mo'ljallangan bo'lib, sichqonchaning o'ng tomonini bosish bilan hosil bo'ladi.
- *Label* – bu komponent forma oynasida uncha uzun bo'lmagan bir qatorli yozuvni chiqarishda ishlatiladi.
- *Edit* – forma oynasida qatorli ma'lumotlarni kiritish, tahrirlash va chiqarishda ishlatiladi.
- *Memo* – forma oynasida ko'p qatorli ma'lumotlarni kiritish, tahrirlash va chiqarishda ishlatiladi.
- *Button* – buyruqlarni bajarishni ta'minlash uchun ishlatiladi.

- **CheckBox** – tasdiqlash, tanlash yoki aksincha holatlarni ko'rsatishda qo'llaniladi.
- **RadioButton** – komponent variantni tanlash imkoniyatini bosil qilishda ishlataladi.
- **ListBox** – variantlarni ro'yxat bo'yicha taqdim etish va tanlash imkoniyatini yaratish uchun ishlataladi.
- **ComboBox** – variantlarni tugma yordamida ochilgan ro'yxat bo'yicha taqdim etish va tanlash imkoniyatini yaratish uchun ishlataladi.
- **ScrollBar** – o'tkazish tugmalarini bosil qilish uchun ishlataladi.
- **GroupBox** – bir necha bog'liq komponentlarni guruhashda ishlataladi.
- **RadioGroup** – bu komponent variantlardan birini tanlash imkoniyatini bosil qilishda ishlataladi. Yangi tanlash tugmasi bosilganda oldin tanlangan variant avtomatik bekor qilinadi.
- **Panel** – komponentlarni birlashtirishda ishlataladi.
- **Actionlist** — foydalanuvchi dasturga markazlashgan holda ta'sir qilishi uchun ishlataladi.

### **Label, Edit, Memo matnli komponentlari, Button tugmasi**

#### **Label komponenti**

*Joylashishi: komponentlar palitrasining Standard bo'limi.*

Komponent ekranda matnli axborotlarni, turli nom va sarlavhalarni joylashtirishga mo'ljallangan.

Label uchun bundan oldingi mavzuda sanab o'tilgan xossalar birga yana quyidagi xossalar ham joriy etilgan:

##### **Alignment: TAlignment;**

Bu xossa matning komponentda joylashish holatini aniqlaydi. *TAlignment* turi quyidagi qiymatlarni o'z ichiga oladi:

*taLeftjustify* – matnni chap tomoniga tekislaydi;

*taRightjustify* – matnni o'ng tomoniga tekislaydi;

*taCenter* – matnni markazga tekislaydi.

##### **AutoSize: Boolean;**

Xossa *true* qiymat qabul qilsa, komponentning kengligi va balandligi unga yozilgan matnga mos ravishda avtomatik o'zgaradi.

##### **Layout: TtextLayout;**

Matning vertikal o'q bo'yicha tartiblanishini aniqlaydi. *TtextLayout* turi quyidagi qiymatlarga ega:

*tlTop* – yuqorida tekislash;

*tlBottom* – quyidan tekislash;

*tlCenter* – markazga tekislash.

*Label* komponenti uchun eng asosiy xossa **Caption** xossasidir. Bu xossa aynan ekranga chiqishi kerak bo'lgan matnni aniqlaydi.

### ***TCustomEdit* sinfi**

Delphida ma'lumotlarni kiritish, chiqarish va tahrirlashga mo'ljallangan komponentlar mavjud. Ulardan eng asosiyлari **TCustomEdit** sinfining *Edit* va *Memo* komponentlaridir. Quyida ushbu ikki komponent uchun eng asosiy xossa va amallar keltirilgan:

#### **Xossalari:**

##### ***AutoSize*: Boolean;**

Bu xossa True qiymatni qabul qilsa, komponent o'lchami unga yozilayotgan matnga qarab avtomatik o'zgaradi.

##### ***MaxLength*: Integer;**

Komponentga nechtagacha simvol joylashtirish mumkinligini aniqlaydi.

##### ***PasswordChar*: char;**

Bu xossa komponentga yozilgan matning barcha harflari bir xil, ko'rsatilgan simvol ko'rinishida tasvirlanishini bildiradi. Bu imkoniyat dasturda parol tashkil etishda qo'llaniladi.

##### ***ReadOnly*: Boolean;**

Xossa true qiymatni qabul qilsa, komponentdagi yozuvni faqat o'qish mumkin bo'lib, nusxa olish, o'chirish, o'zgartirish mumkin emas.

#### **Protseduralar:**

##### ***Clear*;**

Komponentdagi barcha matnni o'chiradi.

##### ***ClearSelection*;**

Matning belgilangan qismini o'chiradi.

##### ***CopyToClipboard*;**

Belgilangan matnni almashinuv buferiga nusxalaydi.

##### ***CutToClipboard*;**

Belgilangan matnni almashinuv buferiga ko'chiradi.

##### ***PasteFromClipboard*;**

Almashinuv buferidagi matnni komponentdagi kursor turgan joyga qo'yadi.

##### ***SelectAll*;**

Komponentdagi barcha matnni belgilaydi.

## **Edit komponenti**

*Joylashishi: komponentlar palitrasining Standard bo'limi.*

Bu komponent ma'lumotlarni kiritish, chiqarish va tahrirlashga mo'ljallangan. Uning asosiy xossasi *Text* hisoblanib, aynan uning qiymati kiritilayotgan, chiqarilayotgan yoki tahrirlanayotgan ma'lumot hisoblanadi. *TEdit* sinfi uchun yuqoridagilar bilan birga quyidagi hodisa ham joriy etilgan:

**OnChange;**

Dastur ishlab turganda komponentdag'i matn o'zgartirilganda yuzaga keladi.

## **Memo komponenti**

*Joylashishi: komponentlar palitrasining Standard bo'limi.*

*Memo* komponenti ham xuddi *Edit* kabi ma'lumotlarni kiritish, tahrirlash va ekranda aks ettirish uchun mo'ljallangan. Uning *Edit* dan eng asosiy farqi ma'lumot faqat bitta satrdan emas, balki ixtiyoriy sondagi satrlardan tashkil topishi mumkin.

*TMemo* sinfi uchun quyidagi xossalari ham joriy etilgan:

**ScrollBars: TscrollStyle;**

Memo ga vertikal va gorizontal chizg'ichni qo'yadi yoki uni olib tashlaydi. *TScrollStyle* turiga quyidagi qiymatlar tegishli:

*ssNone* – chizg'ich yo'q;

*ssHorizontal* – faqat gorizontal chizg'ich bor;

*ssVertical* – faqat vertikal chizg'ich bor;

*ssBoth* – ikkala chizg'ich ham bor.

**Lines: TStrings;**

Komponentdag'i matn qatorlarini aniqlaydi.

## **TStrings sinfi**

*TStrings* sinfiga tegishli ba'zi xossalari:

**Strings[Index: Integer]: String;**

Index qiymatli qatorni aniqlaydi.

**Text: String;**

Memo ga yozilgan matnni aniqlaydi.

*TStrings* sinfiga tegishli ba'zi amallari:

**Add(const S: string);**

Memo dagi mavjud matn oxiriga S matnni qo'shadi.

**Clear; virtual; abstract;**

Memo ni tozalaydi.

**Delete(Index: Integer);**

*Index* qiymatli qatorni o'chiradi.

**Exchange(Index1, Index2: Integer);**

*Index1* va *Index2* qatorlar o'mini almashtiradi.

**Insert(Index: Integer; const S:string);**

*Index* tartib raqamli qatorga *S* satrni qo'shadi.

**LoadFromFile(const FileName:string);**

*FileName* nomli fayldagi ma'lumotni *Memo* ga chiqaradi.

**Move(CurIndex, NewIndex:Integer);**

*CurIndex* nomerli satrdagi matnni *NewIndex* nomerli satrga ko'chiradi.

**SaveToFile(const FileName:string);**

*Memo* dagi matnni *FileName* nomli faylga saqlaydi.

### **Button tugmasi**

*Joylashishi: komponentlar palitrasining Standard bo'limi.*

Bu komponent bosilishi natijasida o'ziga biriktilgan amallarni bajarishni ta'minlaydi.

### **Label, Edit, Memo va Button komponentlari yordamida dasturlar tuzish**

**Misol.**  $ax^2+bx+c=0$  ko'rinishidagi kvadrat tenglamaning ildizlarini topib beruvchi dastur tuzing.

#### **Bajarish:**

1. Delphi mabitini ishga tushiramiz. Natijada avtomatik ravishda yangi loyiha (fayl) hosil bo'ladi. *File/New Application* buyrug'i orqali qaytadan yangi loyiha yaratish ham mumkin.
2. *File/Save All* buyrug'i orqali loyihamizni bitta alohida papkaga saqlab qo'yamiz.
3. Formaga 4 ta *Label*, 3 ta *Edit*, 1 ta *Memo* va 1 ta *Button* tugmalarini joylashtiramiz (10-rasm).

Ular avtomatik mos ravishda *Label1*, *Label2*, *Label3*, *Label4*, *Edit1*, *Edit2*, *Edit3*, *Memo1*, *Button1* nomlarini oladi. Komponentlarning joylashishi va o'lchamini sichqoncha yordamida o'zgartirishimiz mumkin.

4. *Label1* komponentning *Caption* xossasiga " $a*x^2+bx+c=0$ " tenglama ning koeffitsentlarini kiriting" so'zlarini yozamiz. Bu matn ikki qatorga va o'rta qozogish uchun komponent uchun quyidagi xossalarni o'maramiz.

*Autosize - False*

*WordWrap - True*

*Alignment - taCenter*



10-rasim. Forma loyihasi

Komponentning *Font* xossasi qiymat darchasida turgan uch nuqta ustida sichqoncha chap tugmasini bosamiz. Hosil bo'lgan shrift oynasidan shrift o'lchamini kattalashdirib, rang beramiz.

5. *Label2*, *Label3* va *Label4* larning *Caption* xossasiga mos ravishda "a=", "b=" va "c=" yozuvlarini kiritamiz. Har uch komponentning *label1* kabi rang va shrift o'lchamlarini o'zgartiramiz.
6. Dastur ishga tushgan vaqtida qiymat kiritiladigan maydonlar bo'sh turishi uchun *Edit1*, *Edit2* va *Edit3* larning *Text* xossasi qiymatida turgan yozuvni o'chiramiz. *Label* lar kabi *Edit* larning rang va shrift o'lchamlarini o'zgaramiz.
7. *Memo* komponentining *Lines* xossasi qiymat darchasidagi uch nuqta ustida sichqoncha chap tugmasini bosamiz. Hosil bo'lgan oynada "Memo1" so'zini o'chirib, *OK* tugmasini bosamiz.
8. *Button1* tugmasining *Caption* xossasi qiymatiga "Natija" so'zini kiritamiz.
9. "Natija" tugmasi ustida sichqoncha chap tugmasini ikki marta bosamiz. Hosil bo'lgan kod redaktoridagi protseduraga quyidagilami kiritamiz:

```
procedure TForm1.Button1Click(Sender: TObject);
var a,b,c,d,x1,x2:real;
begin
  Memo1.Clear;
  a:=strtofloat(Edit1.text);
  b:=strtofloat(Edit2.text);
  c:=strtofloat(Edit3.text);
  if a=0 then
```

```

begin
  x:=-c/b;
  Memo1.Lines.Add('x=' + FloatToStr(x));
end
else
begin
  d:=sqr(b)-4*a*c;
  if d>0 then
    begin
      x1:=(-b-sqrt(d))/(2*a);
      x2:=(-b+sqrt(d))/(2*a);
      Memo1.Lines.Add('x1 = ' + FloatToStr(x1));
      Memo1.Lines.Add('x2 = ' + FloatToStr(x2));
    end
  else
    if d=0 then
      begin
        x:=-b/(2*a);
        Memo1.Lines.Add('x = ' + FloatToStr(x));
      end
    else Memo1.Lines.Add('tenglama yechimga ega emas')
  end;
end;

```

10. F9 funksional tugmasi yoki *Run* menyusining *Run* buyrug'i orqali dasturni ishg'a tushiramiz. Natijada tuzgan dasturimizning yakuniy formasi hosil bo'ladi (11-rasm). Formada *a*, *b*, *c* larga kerakli qiyamatlarni kiritib natijalar olish mumkin.
11. Bajarilgan ishlarni saqlab qo'yish uchun yana bir marta *File/Save* buyrug'ini bosamiz.

### Grafik-tasvirlar yaratishga mo'ljallangan sinf va buyruqlar

Delphi da grafik va tasvirlarni yaratishga mo'ljallangan quyidagi sinflar mavjud:


**TFont** (shrift), **TPen** (qalam), **TBrush** (cho'tka), **TCanvas** (Kanva).

Bu sinflar uskunalari va xossalari yordamida grafik va tasvirlar hosil qilishda quyidagi komponentlar obyekt sifatida ishlataladi:

*Image* – asosan tayyor rasm va grafiklarni ekranga chiqarish uchun ishlataladi.

**Shape** – obyektda tayyor oddiy geometrik shakllar: kvadrat, aylana, ellips kabilarni aks ettirishda ishlataladi.

**PaintBox** – qo‘l mehnati yordamida ixtiyoriy grafik va tasvirlar hosil qilish uchun mo‘ljallangan.



11-rasm. Kvadrat tenglamani yechish dasturi

### **TFont** sinfi

**TFont** sinfi shrift xossa va xususiyatlarini aniqlaydi.

**TFont** sinfida quyidagi xossalar joriy etilgan:

**Color:** Tcolor;

Bu xossa yozuv rangini aniqlaydi.

**Height:** Integer;

Shrift balandligini piksellar hisobida aniqlaydi.

**Style:** TfontStyle;

Yozuv ko‘rinishini aniqlaydi.

**TfontStyle** turining quyidagi qiymatlari mavjud:

*fsBold* – qalin yozuv;

*fsItalic* – qiya yozuv;

*fsUnderline* – tagiga chizilgan yozuv.

### **TPen** sinfi

Bu sinf ixtiyoriy chiziq chizishga mo‘ljallangan qalamning xususiyatlarini aniqlaydi.

**TPen** sinfining asosiy xossalari quyidagilar:

**Color:** TColor;

Qalam rangini aniqlaydi.

**Mode:** TPenMode;

Chiziq holatini aniqlaydi. *TPenMode* turining ba'zi qiymatlari quyidagilar:

*PmBlack* – qalam har doim qora rangda chizadi;

*PmWhite* – har doim oq rangda chizadi;

*PmCopy* – har doim *Color* xossasi rangi bo'yicha chizadi;

*PmMerge* – ekran va *Color* xossasi ranglari aralashmasi bo'yicha chizadi.

*Width: Integer;*

Chiziq qalinligini aniqlaydi.

### ***TBrush* sinfi**

Bu sinf sohani bo'yashda qo'llaniladigan cho'tka xususiyatlarini aniqlaydi.

Cho'tkaning asosiy xossalari quyidagilar:

*Color: TColor;*

Cho'tka rangini aniqlaydi. Odatda u oq rangda bo'ladi.

*Style: TBrushStyle;*

Cho'tka naqshini aniqlaydi. *TBrushStyle* turiga tegishli ba'zi qiymatlar:

*bsSolid* – yaxlit naqsh;

*bsClear* - naqshsiz;

*bsHorizontal* – gorizontal chiziqli naqsh;

*bsVertical* – vertikal chiziqli naqsh;

*bsCross* – katak ko'rinishidagi naqsh.

### ***TCanvas* sinfi**

Bu sinf shrift, qalam va cho'tkalar yordamida hosil qilinadigan grafik va tasvirlar obyektini aniqlaydi. *TCanvas* sinfining obyekti mavjud emas, u *Image*, *PaintBox*, *Shape*, *Form* kabi komponentlarni obyekt sifatida qabul qiladi.

*TCanvas* sinfining asosiy xossalari quyidagilar:

*Brush: Tbrush;*

Obyektdagi cho'tka xossalarni aniqlaydi.

*Font: Tfont;*

Obyektdagi shrift xossalarni aniqlaydi.

*Pen: Tpen;*

Obyektdagi qalam xossalarni aniqlaydi.

*PenPos: Tpoint;*

Qalamning obyektda joriy vaqttagi pozitsiyasini (koordinatasini) aniqlaydi.

*Pixels[X,Y: Integer]: Tcolor;*

(X,Y) koordinatali piksel rangini aniqlaydi.

Canvas obyektlarida oddiy grafik va shakllarni yaratishiga mo'ljallangan ba'zi buyruqlar:

**LineTo(X,Y : Integer);**

Qalamning joriy vaqtdagi pozitsiyasidan (X,Y) koordinatali nuqtagacha to'g'ri chiziq chizadi (dastlabki holda joriy pozitsiya (0,0) koordinatada bo'ladi). Bu holda qalamning PenPos – joriy pozitsiyasi (X,Y) koordinataga o'zgaradi.

**MoveTo(X,Y : Integer);**

Qalamning joriy vaqtdagi pozitsiyasi (X,Y) koordinataga ko'chadi.

**Rectangle(X1,Y1,X2,Y2 : Integer);**

Yuqori chap burchak koordinatasi (X1,Y1), quyi o'ng burchak koordinatasi (X2,Y2) bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizadi.

**Ellipse(X1,Y1,X2,Y2 : Integer);**

Yuqori chap burchak koordinatasi (X1,Y1), quyi o'ng burchak koordinatasi (X2,Y2) bo'lgan to'g'ri to'rtburchakli shablon ichiga ellips chizadi.

**TextOut(X,Y : Integer; const Text : string);**

Yuqori chap burchak koordinatasi (X,Y) bo'lgan to'g'ri to'rtburchakli shablon ichiga buyruqda ko'rsatilgan Text yozuvini chiqaradi.

**TextHeight(const Text : String) : Integer;**

Text yozuvining balandligini aniqlaydi.

**TextWidth(const Text : String) : Integer;**

Text yozuvining uzunligini aniqlaydi.

## Image, Shape, Paintbox, Timer komponentlari

### Image komponenti

*Joylashishi: komponentlar Palitrasining Additional bo'limi.*

TImage sinfiga tegishli bo'lgan Image komponenti formada ba'zi turdag'i rasm va kartinalarni joylashtirishga mo'ljallangan. Rasm va kartinalar .ico, .bmp, .wmf kengaytmali fayllar bo'lishi lozim.

TImage sinfiga TCanvas sinfining xossalari bilan birga yana quyidagi xossalalar ham joriy qilingan:

**Canvas: TCanvas;**

Komponentda tasvir shakllanishini bildiradi.

**Center: Boolean;**

Xossa true qiymatni qabul qilsa, tasvir komponent markaziga, false qiymat qabul qilsa, tasvir komponent yuqori chap burchagiga joylashadi.

**Picture: TPicture;**

Komponentda joylashadigan rasmni aniqlaydi.

**Stretch: Boolean;**

Rasmning o'chhami komponent o'chamiga moslashishini aniqlaydi.

### ***Shape* komponenti**

*Joylashishi: komponentlar Palitrasining Additional bo'limi.*

Bu komponent tayyor standart shakllarni aks ettirish uchun mo'ljallangan. *TShape* sinfida quyidagi xossalari ham joriy qilingan:

**Brush: TBrush;**

Shakl ichini bo'yovchi cho'tkani aniqlaydi.

**Pen: TPen;**

Shakl chegarasini chizuvchi qalamni aniqlaydi.

**Shape: TShapeType;**

ekranga chiquvchi shakl turini aniqlaydi.

*TShapeType* turi quyidagi qiymatlarni qabul qiladi:

*StRectangle* – to'g'ri to'rburchak;

*StSquare* – kvadrat;

*StRoundRect* – qirrasi aylana shaklidagi to'g'ri to'rburchak;

*StRoundSquare* – qirrasi aylana shaklidagi kvadrat;

*StEllipse* – ellips;

*StCircle* – aylana.

### ***PaintBox* komponenti**

*Joylashishi: komponentlar palitrasining System bo'limi.*

*TPaintBox* sinfining *PaintBox* komponenti chegaralangan sohada ixtiyoriy chizishga mo'ljallangan. *TPaintBox* sinfi *TCanvas* sinfiga tegishli bo'lgan barcha xossalarni o'z ichiga oladi.

### ***Timer* komponenti**

*Joylashishi: komponentlar palitrasining System bo'limi.*

*TTimer* sinfining *Timer* komponenti novizual komponent bo'lib, yordamchi komponent hisoblanadi. Bu komponent kerakli amallarning biror vaqtida yoki vaqt oraliqlarida bajarilish imkonini beradi.

*TTimer* sinfida joriy etilgan xossa va hodisalar:

**Enabled: Boolean;**

Xossa *True* qiymat qabul qilsa, *Timer* ishga tushadi, *false* qiymat qabul qilsa *Timer* ishslashdan to'xtaydi.

**Interval: Cardinal;**

*OnTimer* hodisasiiga yuklangan amallarning yuz berish oraliqlarini millisoniyalarda aniqlaydi.

### *OnTimer;*

Bu hodisa intervalda berilgan vaqt tugagan vaqtida sodir bo'ladi. Vaqt bilan bog'liq amallar aynan shu hodisaga biriktiriladi.

### **Image va Timer komponentlari yordamida dasturlar tuzish**

**Misol.** Dastur uchun "Заставка" yaratting.

"Заставка" dastur ishga tushishidan oldin yoki dastur ishlashi jarayonida dasturchi, dastur yaratilish vaqt, umuman ixtiyoriy ma'lumotlarni namoyish etishda ishlataladi. Masalan, Windows OT, ofis dasturlari ishga tushayotganda bir necha soniya vaqt davomida dastur haqida qisqacha ma'lumotnoma ekranda paydo bo'ladi.

"Заставка"ni ixtiyoriy vaqtida ekranga chiqarib, ixtiyoriy vaqtida yo'qoladigan qilib, yoki ma'lum vaqt oraliqlarida ekranga chiqadigan qilib yaratish mumkin. "Заставка"ga chiqadigan rasm .bmp kengaytmali bo'lishi lozim. Buni ixtiyoriy grafik redaktoridan foydalanib, hosil qilish mumkin.

#### **Bajarish.**

1. *D:\MyProject\Zastavka* papkasini yaratamiz.
2. Delphi ni ishga tushiramiz. *File/New/Application* buyrug'i yordamida yangi loyiha yaratamiz yoki oldin yaratgan ixtiyoriy dasturimizni ochamiz. Loyihani *D:\MyProject\Zastavka* papkasiga saqlab qo'yamiz.
3. Delphi menyusining *Tools/Image Editor* buyrug'ini bosamiz. Natijada ekranda Delphi dasturining grafik redaktori hosil bo'ladi (12-rasm).



12-rasm. Image Editor oynasi

4. Grafik fayl hosil qilish uchun *File/Open* buyrug'i orqali oldin yaratgan ixtiyoriy .bmp kengaytmali faylni ochishimiz yoki *File/New/Bitmap* *File* buyrug'i yordamida yangi fayl hosil qilishimiz mumkin. Biz keyingi buyruqni tanlaymiz. Ochilgan muloqot oynasidagi *Width*

qiymatiga 300, *Height* qiymatiga 200, *Color* qismidan *SuperVGA* ni tanlab, OK tugmasini bosamiz. Hosil bo'lgan ramkaga ixtiyoriy ko'rinish chizamiz. Masalan, ramkaga biror rangdagi fon berib, uskunalar paneli yordamida o'rtaga quyidagicha yozamiz:

### DASTUR 2012 YILDA ... TOMONIDAN YARATILGAN

5. Faylimizni *File/Save buyrug'i* orqali *D:\MyProject\Zastavka* papkasiga *Rasm1.bmp* nomi bilan saqlaymiz. *File/Exit* buyrug'i orqali grafik redaktoridan chiqamiz.
6. Komponentlar palitrasining *System* bo'limidan formaga 1 ta *Timer* komponentini joylashtiramiz. U *Timer1* deb nom oladi. *Timer1* ning *Interval* xossasiga millisekund hisobida 3000 sonini kiritamiz.
7. Komponentlar palitrasining *Additional* bo'limidan formaga 1 ta *Image* komponentini joylashtiramiz. *Image1* deb nom oladigan componentning *Picture* xossasida turgan uch nuqta ustida sichqoncha chap tugmasini bosamiz. Hosil bo'lgan tasvir yuklash oynasining *Load* buyrug'i orqali *D:\MyProject\Zastavka\Rasm1.bmp* faylini ochamiz va OK tugmasini bosamiz. Rasm to'liq ko'rinishi uchun *Image* komponentining *Autosize* xossasiga *True* qiymatni kiritamiz.
8. *Timer1* komponenti ustida sichqoncha chap tugmasini ikki marta bosamiz. Hosil bo'lgan kod redaktoridagi protseduraga quyidagi buyruqlarni yozamiz:

```
Procedure TForm1.Timer1Timer(Sender: TObject);
Begin
  Image1.Free;
  Timer1.Free;
End.
```

Bu protsedura dastur ishga tushirilgandan so'ng 3000 millisekund o'tgach, zastavka butunlay yo'qolishini anglatadi.

9. Dasturni ishga tushirib, uning qanday ishlashini ko'rishimiz mumkin. Uning ko'rinishi quyidagicha bo'ladi (13-rasm).
10. Bajargan ishlarimizni saqlash uchun yana bir marta saqlash tugmasini bosamiz.



13-rasm. Zastavka ko'rinishi

Agar zastavka 3000 millisoniyadan so'ng yo'qoliishi sharti o'miga har 3000 millisoniyadan so'ng yo'qolib, har 3000 millisoniyadan so'ng paydo bo'lsin degan masala qo'yilgan bo'lsa, yuqoridagi protseduraning begin va end so'zlarini orasidagi yozuvni quyidagicha o'zgartiramiz:

```
Procedure TForm1.Timer1Timer(Sender: TObject);
Begin
  If Image1.Visible=true then Image1.Hide
  Else Image1.Show
End;
```

Masala sharti bajarildi.

### Chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini yechishning Gauss usuli

Ma'lumki, ko'pgina muhandislik masalalari chiziqli tenglamalar sistemasini yechishga olib kelinadi.

Bizga quyidagi tenglamalar sistemasi berilgan bo'lsin:

$$\left\{ \begin{array}{l} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + \dots + a_{1n}x_n = a_{1,n+1}, \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + \dots + a_{2n}x_n = a_{2,n+1}, \\ \vdots \\ a_{n1}x_1 + a_{n2}x_2 + \dots + a_{nn}x_n = a_{n,n+1}. \end{array} \right. \quad (1)$$

Yoki matritsa ko'rinishida  $AX = B$ , bu yerda

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \vdots & & & \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{pmatrix}, \quad B = \begin{pmatrix} a_{1,n+1} \\ a_{2,n+1} \\ \vdots \\ a_{n,n+1} \end{pmatrix}$$

Gauss usulida tenglamalar noma'lumlari ketma-ket yo'qotib boriladi. Ya'ni 2-tenglamadan  $x_1$  ni, 3-tenglamadan  $x_1$  va  $x_2$  larni va hokazo. Natijada sistema uchburchak matritsali sistemaga keltiriladi va undan  $x_n, x_{n-1}, \dots, x_1$  noma'lumlar topiladi. Gauss usulining algoritmi quyidagicha:

Har bir  $k$ -qatordagi ( $k = j+1, \dots, n$ ) elementlarga mos ravishda  $j$ -qatordagi elementlarni  $-a_{kj}/a_{jj}$  koeffitsiyentlarga ko'paytirib qo'shiladi. Natijada  $j$ -ustundagi elementlarning bosh diagonaldan pastdagilari nolga aylanadi. Bu almashtirishlar  $B$  vektor ustida ham bajariladi. Algoritmning bu jarayoniga Gauss usulining to'g'ri yo'li deyiladi.


Hosil bo'lgan uchburchakli tenglamalar sistemasidan noma'lumlarni topishga Gauss usulining teskari yo'li deyiladi. Bu sistemadan  $x_n = a_{n,n+1}/a_{nn}$  topiladi. Bu yerda  $a_{nn}, a_{n,n+1}$  lar almashtirishlardan so'ng hosil bo'lgan uchburchak matritsali tenglamalar sistemasi oxirgi tenglamasining ozod hadi va  $x_n$  oldidagi koeffitsiyent.

So'ngra  $x_{n-1}$  topiladi:  $x_{n-1} = (a_{n-1,n+1} - a_{n-1,n}x_n)/a_{n-1,n-1}$ .

Noma'lumlar umumiy holda quyidagicha topiladi:

$$x_i = \frac{a_{in+1} - \sum_{j=i+1}^n a_{ij}x_j}{a_{ii}}, \quad i = n, n-1, \dots, 1. \quad (2)$$

(1) ko'rinishdagi tenglamalar sistemani yechish algoritmi blok-sxema ko'rinishida quyidagicha bo'ladi:



### Dasturi:

Delphi dasturini ishga tushiramaniz va yangi loyiha yaratib, formaga 4 ta Label, 1 ta Edit, 3 ta StringGrid, 2 ta Button komponentlarini joylashtiramiz. Label1, Label2, Label3, Label4 komponentlarining *Caption* xossalari ga mos ravishda “n ni kriting va OK ni bosing ( $n \leq 15$ )”, “Noma'lumlar koeffitsiyentlari”, “Ozod hadlar”, “Natija” sozlarini kiritib chiqamiz, Edit1 ning “Text” xossasi qiymatini o'chiramiz, Button tugmalariga mos ravishda “Ozod hadlar”, “Natija” so'zlarini yozamiz. StringGrid lar hajmlarini kerakli hajmda o'zgartirib chiqamiz, StringGrid1 ning *ColCount* (qatorlar soni) va *RowCount* (ustunlar soni) xossalariiga 1 sonini kiritamiz, *FixedCols* (fiksirlangan qatorlar soni), *FixedRows* (fiksirlangan ustunlar soni) xossalariiga 0 sonini kiritamiz, StringGrid larning *DefaultColWidth* xossasi orqali jadval ustunlari kengligini o'zgartiramiz, malumotlarni kiritishga ruxsat berilishi uchun StringGrid1 va StringGrid2 larning *Options* xossalari ichidagi *goEditing* xossasi qiymatini “True”ga o'zgartiramiz. Natijada forma 14-rasmdagi ko'rinishga keladi:



14-rasm. Chiziqli tenglamalar sistemasini yechish dasturi loyihasi

Button1 tugmasini sichqoncha yordamida ikki marta bosib, hosil bo'lgan protseduraga quyidagi dasturni kiritamiz:

```
procedure TForm1.Button1Click(Sender: TObject);
begin
```

```
  n:=StrToInt(Edit1.Text);
```

```
  StringGrid1.ColCount:=n; StringGrid1.RowCount:=n;
```

```

StringGrid2.RowCount:=n; StringGrid3.RowCount:=n;
for i:=0 to n-1 do
  for j:=0 to n-1 do StringGrid1.Cells[i,j]:="";
  for j:=0 to n-1 do StringGrid2.Cells[0,j]:="";
  for j:=0 to n-1 do StringGrid3.Cells[0,j]:="";
end;

```

F12 tugmasi yordamida formaga qaytib, Button2 tugmasi ustida sichqoncha chap tugmasini ikki marta bosamiz. Hosil bo'lgan navbatdagi protseduraga quyidagi dasturni kiritamiz.

```

procedure TForm1.Button2Click(Sender: TObject);
var a:array[1..15, 1..16] of real;
  x:array[1..15] of real; c,s,d:real; i,j,k,l,p:integer;
begin
  for i:=1 to n do
    begin
      for j:=1 to n do
        a[i,j]:=StrToFloat(StringGrid1.Cells[j-1,i-1]);
        a[i,n+1]:=StrToFloat(StringGrid2.Cells[0,i-1]);
    end;
  for k:=1 to n do
    begin
      if a[k,k]=0 then
        begin
          l:=k;
          while a[l+1,k]=0 do l:=l+1;
          for p:=k to n+1 do
            begin
              d:=a[k,p];
              a[k,p]:=a[l+1,p];
              a[l+1,p]:=d;
            end;
        end;
      for i:=k to n-1 do
        begin
          c:=a[i+1,k];
          for j:=k to n+1 do
            a[i+1,j]:=(a[k,j]/a[k,k])*c-a[i+1,j];
        end;
    end;
  x[n]:=a[n,n+1]/a[n,n];
end;

```

```

for k:=n-1 downto 1 do
begin
S:=0;
for i:=k+1 to n do
S:=S+a[k,i]*x[i];
x[k]:=(a[k,n+1]-S)/a[k,k]
end;
for i:=1 to n do
StringGrid3.Cells[0,i-1]:=floattostr(x[i])
end;

```

F9 tugmasini bosib, yakuniy ishchi formani hosil qilamiz. Dastur yordamida masalan, quyidagi tenglamalar sistemasini yechamiz (15-rasm):

$$\begin{cases}
3x_1 + 2x_2 - 5,8x_3 + 2x_4 + 4,6x_5 + 4x_6 + 3,5x_7 = 3,5 \\
-5x_1 + 7x_2 + 3x_3 - 1,5x_4 + 3x_5 + 2x_6 + x_7 = 1 \\
2,6x_1 - 6,7x_2 + 5x_3 + 2x_4 + 6x_5 + 6x_7 = -5,6 \\
3,8x_1 + 4x_2 + 3x_3 + 7x_4 + 10x_5 + 4x_6 = 0 \\
-4x_1 - 2x_2 + 2,5x_3 + 9x_4 + 5,2x_5 + 2x_6 + 4x_7 = 3 \\
8x_1 + 5x_2 - 1,6x_3 + 12x_4 + 7x_5 + 7,5x_7 = 7 \\
4x_1 - 6x_2 + 3x_3 + 8x_4 + 3x_5 + 11x_6 + 4x_7 = 10
\end{cases}$$

The screenshot shows a software window titled "Tenglamalar sistemasini yechish". In the center, there is a text input field containing the equation system from above. Below it is a table labeled "NormDekom" with coefficients and constants:

	2	-5,8	2	4,6	4	3,5
0	7	1	-1,5	3	2	1
2,6	-4,7	5	0	-2	6	6
3,8	4	1	7	-16	4	0
-4	-2	2,5	9	5,2	-2	4
8	5	-1,6	12	7	7,5	
4	-6	3	8	-3	11	4

To the right, there is a vertical list of row numbers labeled "Ozod radalar" (Free variables) with values 1, -5,8, 0, 3, 2, 10. To the far right, there is a column labeled "Narjisi" (Result) with values 0,763400, 0,102707, 0,824652, 0,748841, 0,620221, 1,454069, 1,076153.

15-rasm. Chiziqli tenglamalar sistemasini yechish dasturi

## Eng sodda taqribiy integrallash formulalari

Bizdan  $[a, b]$  kesmada aniqlangan uzlusiz  $f(x)$  funksiyani integrallash talab qilingan bo'lsin.

Agar  $f(x)$  funksianing boshlang'ich funksiyasi ma'lum va u  $F(x)$  ga teng bo'lsa, u holda berilgan funksianing aniq integrali quyidagi Nyuton-Leybnis formulasi yordamida hisoblanar edi:


$$\int_a^b f(x) dx = F(b) - F(a), \quad \text{bunda } F'(x) = f(x) \quad (1)$$

Ma'lumki, amaliyotda berilgan funksianing boshlang'ich funksiyasini har doim ham topib bo'lmaydi. Topilsa ham juda murakkab ifodalanganligi uchun bunday funksiyalarning aniq integrallarini taqribiy hisoblash uchun kvadratur yoki kuhatur formulalardan foydalilanildi.

Eng sodda kvadratur formulalarga to'g'ri to'rthurchaklar, trapetsiya va Simpson kvadratur formulalari misol bo'la oladi.

### To'g'ri to'rthurchaklar formulasi

Faraz qilaylik, bizga  $f(x)$  funksianing grafigi 16-rasmda keltirilgan ko'rinishda berilsin.



16-rasm. Sohani to'g'ri to'rthurchaklar ko'rinishida tasvirlash


$[a, b]$  kesmani teng qadamlar bilan  $n$  ta teng bo'lakka bo'lamiz va bo'limish nuqtalarini  $x_k = a + kh$  bilan belgilaymiz. Bu yerda  $h = (b - a)/n$ ,  $k = 0, 1, \dots, n$ .  $y_k$  bilan  $f(x)$  funksianing  $x_k$  nuqtadagi qiymatini belgilaymiz, ya'ni  $y_k = f(x_k)$ . U holda  $f(x)$  funksianing  $[a, b]$  kesmadagi aniq integrali hosil qilingan to'g'ri t'rthurchaklarning yig'indisiga taqriban teng bo'ladi:

$$\int_a^b f(x) dx \approx h \sum_{k=0}^{n-1} f(x_k) \quad (2)$$

Hosil qilingan kvadratur formulaga chap to'g'ri to'rtburchaklar formulasi deyiladi. Xuddi shu usul bilan o'ng to'g'ri to'rtburchaklar formulasi ham hosil qilinadi:

$$\int_a^b f(x) dx \approx h \sum_{k=1}^n f(x_k) \quad (2)$$

*Algoritmi:*



**Misol.**  $\int_{0.23}^{0.75} \frac{dx}{\cos x - x^2}$  aniq integralni to'g'ri to'rtburchaklar formulasi

yordamida taqribiy hisoblash dasturi tuzilsin.

**Dasturi.** Delphi da yangi loyiha yaratib, formaga misol berilishini kiritish uchun 1 ta Label, kiritiladigan va chiqariladigan ma'lumotlar uchun 4 ta Label va 4 ta Edit hamda 1 ta Button komponentlarini joylashtiramiz. *Form1* ning *Caption* xossasi qiymat darchasiga “T To'rtburchaklar usuli” so'zini, *Label1* komponenti *Caption* xossasiga misol berilishini, *Label2*, *Label3*, *Label4*, *Label5* komponentlariga mos ravishda “a=”, “b=”, “n=”, “S=” so'zlarini kiritamiz. *Edit* larning *Text* xossalaridagi qiymatlarni o'chiramiz. *Button1*ning *Caption* xossasiga “OK” so'zini kiritamiz. Natijada forma 17-rasmidagi holatga keladi.

*Button1* tugmasi ustida sichqoncha chap tugmasini ikki marta bosib, hosil bo'lgan protseduraga quyidagi dasturni kiritamiz:

```


procedure TForm1.Button1Click(Sender: TObject);
var S,a,b,h,x:real; n,i:integer;

```

```


Begin
  a:=StrToInt(Edit1.Text);
  b:=StrToInt(Edit2.Text);
  n:=StrToInt(Edit3.Text);
  h:=(b-a)/n;
  S:=0;
  for i:=0 to n-1 do
    begin
      x:=a+i*h;
      S:=S+1/sqr(abs(cos(x)-sqr(x)));
    end;
  S:=S*h;
  Edit4.Text:=FloatToStr(S)
end;

```



17-rasm. To'g'ri to'riburchaklar dasturi loyihasi


F9 tugmasini bosib, kerakli qiyatlarni kiritamiz. Natija 18-rasmidaqidek 'ladi:



18-rasm. Integralni to'g'ri to'riburchaklar formulasiga yordamida hisoblash dasturi

### Trapetsiya formulasi

Bu yerda ham  $f(x)$  funksiyaning grafigi 19-rasmida keltirilgan ko'rinishda berilsin.




19-rasm. Sohani trapetsiyalar ko'rinishida tasvirlash

U holda  $f(x)$  funksiyaning  $[a,b]$  kesmadagi aniq integrali hosil qilingan trapetsiyalarning yig'indsisiga taqriban teng bo'ladi:

$$\int_a^b f(x) dx \approx \frac{h}{2} (f(a) + f(b) + 2 \sum_{k=1}^{n-1} f(x_k)) \quad (3)$$

Keltirilgan kvadratur formulaga *trapetsiya formulasi* deyiladi.

*Algoritmi:*



**Misol.** Yuqoridagi  $\int_{0.25}^{1.75} \frac{dx}{\sqrt{|\cos x - x^2|}}$  aniq integralni trapetsiya formulasi yordamida taqribiy hisoblash dasturi tuzilsin.


**Dasturi.** Dastur tuzishda yuqoridagi formadan foydalanamiz. Dastur protsedurasi quyidagicha bo'ldi:

```

procedure TForm1.Button1Click(Sender: TObject);
var S,a,b,h,x:real;
  n,i:integer;
function f(t:real):real;
begin
  f:=1/sqr(abs(cos(t)-sqr(t)))
end;
begin
  a:=StrToFloat(Edit1.Text);
  b:=StrToFloat(Edit2.Text);
  n:=StrToInt(Edit3.Text);
  h:=(b-a)/n;
  S:=f(a)+f(b);
  for i:=1 to n-1 do
    begin
      x:=a+i*h;
      S:=S+2*f(x)
    end;
  S:=S*h/2;
  Edit4.Text:=FloatToStr(S)
end;

```

F9 tugmasini bosib natija olamiz (20-rasm).




20-rasm. Integralni trapetsiya formulasi yordamida hisoblash dasturi

### Simpson formulasi

Bu formulani hosil qilish uchun  $[a, b]$  kesmani  $2n$  ta teng bo'laklarga ajratamiz, ya'ni  $x_i = a + i h$ ,  $h = \frac{b-a}{2n}$ ,  $i = \overline{0, 2n}$ .

Shu  $x_i$  nuqtalardagi  $f(x)$  funksiyaning qiymatlarini  $y_i = f(x_i)$  bilan belgilaymiz.  $f(x)$  funksiyaning grafigi 21-rasmida keltirilgan ko'rinishda bo'lsin.



21-rasm. Egri chiziq bo'laklarini parabolalar bilan almashtirish

Ma'lumki,  $A_i$  nuqtaning koordinatalari  $x_i, y_i$  bo'ladi. Shuningdek,  $A_i, A_{i+1}, A_{i+2}$  nuqtalardan yagona  $y = ax^2 + bx + c$  parabola o'tadi. Bu yerdagi  $a, b, c$  noma'lumlarni  $x_i$  va  $y_i$ lar orqali topamiz. Parabolani  $[x_i, x_{i+2}]$  kesmada integrallaymiz. Natijani berilgan  $f(x)$  ning shu kesmadagi integrali sifatida qabul qilamiz. Ya'ni


$$\int_{x_i}^b f(x) dx \equiv \frac{h}{3} [(f(x_i) + 4f(x_{i+1}) + f(x_{i+2}))] \quad (4)$$

Topilgan formulada  $i$  ga  $0, 2, 4, \dots, 2n-2$  qiymatlar berib, ularni qo'shib chiqsak, quyidagi formula hosil bo'ladi:

$$\begin{aligned} \int_a^b f(x) dx \equiv & \frac{h}{3} [f(a) + f(b) + 4(f(x_1) + f(x_3) + \dots + f(x_{2n-1})) + \\ & + 2(f(x_2) + f(x_4) + \dots + f(x_{2n-2}))] \end{aligned} \quad (5)$$

Bu formula *Simpson kvadratur formulasasi* deyiladi.

Aniq integralni *Simpson formulasasi* yordamida taqribi hisoblash algoritmi va yuqorida  $\int_{-0.25}^{0.75} \frac{dx}{\sqrt{|\cos x - t^2|}}$  integralni hisoblash dasturi quyida keltirilgan.



**Dasturi.** Dastur tuzishda yuqoridağı formadan foydalanamiz. Dastur protsedurasi quyidagicha bo'ladi:

```

procedure TForm1.Button1Click(Sender: TObject);
var S,a,b,h,x:real;
    n,i:integer;
function f(t:real):real;
begin
    f:=1/sqrt(abs(cos(t)-sqr(t)))
end;
begin
    a:=StrToFloat(Edit1.Text);
    b:=StrToFloat(Edit2.Text);
    n:=StrToInt(Edit3.Text);
    h:=(b-a)/(2*n);
    S:=f(a)+f(b);
    for i:=1 to 2*n-1 do
        begin


```

```

x:=a+i*h;
if i mod 2=0 then S:=S+2*f(x) else S:=S+4*f(x)
end;
S:=S*h/3;
Edit4.Text:=FloatToStr(S)
end;


```

F9 tugmasini bosib natija olamiz (22-rasm).



22-rasm. Integralni *Simpson* formulasi yordamida hisoblash dasturi

Bu dasturlarda natijaning aniqligini oshirish uchun bo'laklashlar sonini yetarli darajada oshirish lozim. Masalan  $n=500$  da natija 23-rasmdagidek bo'ladi:



23-rasm. Integralni *Simpson* formulasi yordamida hisoblash dasturi

## Differensial tenglamalarni taqribiy yechish usullari

Fan-teknika sobasining turli tarmoqlaridagi ko'pgina masalalar differensial tenglamalarni yechishga keltiriladi. Differensial tenglamalarni taqribiy yechishning juda ko'p usullari mavjud. Ulardan eng sodda va hisoblashga qulay usullardan Eyler va Runge-Kutta usullarini ko'rib chiqamiz.

### Eyler usuli

Bizga  $y' = f(x, y)$  (1) tenglamaning  $y(x_0) = y_0$  (2) shartni qanoatlantiradigan yechimini topish talab qilingan bo'lzin.  $f(x, y)$  funksiya qaralayotgan oraliqda  $x$  bo'yicha uzlusiz bo'lib,  $y$  bo'yicha Lipschits shartini qanoatlantirsin:

$$|f(x, y_2) - f(x, y_1)| \leq K|y_2 - y_1|, K\text{-const.}$$

Bizdan (1), (2) masalaning  $y(x_i)$ ,  $x_i = x_0 + i \cdot h$  ( $i = 1, 2, \dots$ ) taqribiy qiymatini qadami  $h$  bo'lgan bir o'lchovli to'rda aniqlash talab qilingan bo'lzin. Buning uchun quyidagi ma'lum tenglikdan foydalaniлади:

$$y(x_{i+1}) - y(x_i) = \int_{x_i}^{x_{i+1}} f(x, y(x)) dx \quad (3)$$

Endi (3)-tenglikdagi integralni taqribiy ravishda chap to'g'ri to'rtburchaklar kvadratur formulasi bilan almashtiramiz va  $y(x_i)$  ning qiymatini  $y_i$  bilan belgilab, quyidagi **Eyler formulasini** hosil qilamiz:

$$y_{i+1} = y_i + h \cdot f(x_i, y_i), \quad i = 0, 1, 2, \dots \quad (4)$$

Agar (1) va (2) masalaning  $x_i$  nuqtadagi aniq yechimini  $y(x_i)$  bilan, uning taqribiy yechimini  $y_i$  bilan belgilasak, Eyler usulining xatoligi quyidagi tengsizlik orqali baholanadi:

$$|y(x_i) - y_i| \leq \frac{hN}{2L} [e^{L(x_i - x_0)} - 1] \quad (5)$$

bu yerda  $N, L$  lar doimiy sonlar.

### Runge-Kutta usuli

Berilgan (1) va (2) masalani Runge-Kutta usuli bilan yechishda  $y(x)$  funksiya Teylor qatoriga yoyiladi va qatoridan hosila qatnashmaydigan qilib o'zgartirilgan qismi olinadi. Runge-Kutta usulida ictiyoriy  $i$ -qadamdagagi taqribiy hisoblash formulasi quyidagicha olinadi:

$$y_{i+1} = y_i + Z_i \quad (6)$$

Z<sub>i</sub> larning tanlanishiga qarab Runge-Kutta usulining turli tartibdag'i formulalari hosil qilinadi.

*Runge-Kutta usulining 3-tartibli formulasi uchun*

$$Z_i = \frac{1}{6}(k_1^{(i)} + 4k_2^{(i)} + k_3^{(i)}), \quad (7)$$

bu yerda

$$k_1^{(i)} = hf(x_i, y_i), \quad k_2^{(i)} = hf\left(x_i + \frac{h}{2}, y_i + \frac{k_1^{(i)}}{2}\right), \quad k_3^{(i)} = hf\left(x_i + h, y_i + k_2^{(i)} - k_1^{(i)}\right).$$

To rtinchi tartibli **Runge-Kutta formulasi** quyidagicha bo'ldi:

$$Z_i = \frac{1}{6}(k_1^{(i)} + 2k_2^{(i)} + 2k_3^{(i)} + k_4^{(i)}), \quad (8)$$


bu yerda

$$\begin{aligned} k_1^{(i)} &= hf(x_i, y_i), \quad k_2^{(i)} = hf\left(x_i + \frac{h}{2}, y_i + \frac{k_1^{(i)}}{2}\right), \\ k_3^{(i)} &= hf\left(x_i + \frac{h}{2}, y_i + \frac{k_2^{(i)}}{2}\right), \quad k_4^{(i)} = hf(x_i + h, y_i + k_3^{(i)}). \end{aligned}$$

### Eyler va Runge-Kutta formulalari yordamida algoritm va dasturlar tuzish

**Misol.**  $y' = 0,5y - x^2$ ,  $y_0 = 1,5$ ,  $x \in [2, 3]$ ,  $n = 10$  differensial tenglamani Eyler formulasi yordamida taqribiy yechish algoritmi va dasturi tuzilsin.

Algoritmi:



### Dasturi:

Delphi dasturini ishgaga tushiramiz va yangi loyiha yaratib, formaga misol berilishini kiritish uchun 1 ta Label, kiritiladigan y<sub>0</sub>, a, b, n lar uchun 4 ta Label va 4 ta Edit, chiqariladigan ma'lumotlar uchun 1 ta Label va 1 ta Memo hamda 1 ta Button komponentlarini joylashtiramiz. Form1 ning Caption xossasi qiymat darchasiga "Eyler usuli" so'zini, Label1 komponenti Caption xossasiga misol berilishini, Label2, Label3, Label4, Label5, Label6 komponentlariga mos ravishda "y<sub>0</sub>=", "a=", "b=", "n=", "Javob" so'zlarini kiritamiz. Edit larning Text xossalardagi qiymatlarni o'chiramiz. Memo1ning Lines xossasiga kirib, "Memo1" so'zini o'chiramiz. Button1ning Caption xossasiga "OK" so'zini kiritamiz. Natijada forma 24-rasmida holatga keladi:



24-rasm. Differensial tenglamani *Eyler* usuli yordamida yechish dasturi loyihasi

Button1 tugmasi ustida sichqoncha chap tugmasini ikki marta bosib, hosil bo'lgan protseduraga quyidagi dasturni kiritamiz:

```
procedure TForm1.Button1Click(Sender: TObject);
Var x,y,y0,a,b,h:real; n:integer;
Begin
  Memo1.Clear;
  y0:=StrToFloat(Edit1.Text);
  a:=StrToFloat(Edit2.Text);
  b:=StrToFloat(Edit3.Text);
  n:=StrToInt(Edit4.Text);
  h:=(b-a)/n;
  x:=a; y:=y0;
```

```

repeat
    Memo1.Lines.Add('x=' + FloatToStr(x) + ' y=' + FloatToStr(y));
    y:=y+h*(0.5*y-sqr(x));
    x:=x+h;
until x>b;
end;

```


Dasturni kiritib bo'lgandan so'ng F9 tugmasini bosamiz. Hosil bo'lgan ishchi formada y<sub>0</sub>,a,b,n larga qiymatlar kiritib natija olamiz (25-rasm).




25-rasm. Differensial tenglamani *Eyler* usuli yordamida yechish dasturi

**Мисол.** Yuqoridagi  $y = 0.5y - x^2$ ,  $y_0 = 1.5$ ,  $x \in [2, 3]$ ,  $n = 10$  differensial tenglama Runge-Kutta usuli yordamida taqribi yechilsin.

*Algoritmi:*





**Dasturi.** Dastur tuzishda yuqoridagi formadan foydalanamiz. Dastur protsedurasi quyidagicha bo'ladi:

```

procedure TForm1.Button1Click(Sender: TObject);
Var x,y,y0,a,b,h,k1,k2,k3,k4:real; n:integer;
function f(t1,t2:real):real;
begin
  f:=0.5*t2-sqr(t1)
end;
Begin
  Memo1.Clear;
  y0:=StrToFloat(Edit1.Text);
  a:=StrToFloat(Edit2.Text);
  b:=StrToFloat(Edit3.Text);
  n:=StrToInt(Edit4.Text);
  h:=(b-a)/n;
  x:=a; y:=y0;
repeat
  Memo1.Lines.Add('x=' + FloatToStr(x) + ' y=' + FloatToStr(y));
  k1:=h*f(x,y); k2:=h*f(x+h/2,y+k1/2);
  k3:=h*f(x+h/2,y+k2/2); k4:=h*f(x+h,y+k3);
  y:=y+(k1+2*k2+2*k3+k4)/6;
  x:=x+h
until x>=b;

```

until  $x > b$   
 end;  
 F9 tugmasini bosamiz va dasturda kerakli qiymatlarni kiritamiz. Natija 26-rasmdagidek bo'ldi.



26-rasm. Differensial tenglamani *Runge-Kutta* usuli yordamida yechish dasturi

Bu tenglamaning *MathCAD* dasturidagi natijasi quyidagicha:



27-rasm. Differensial tenglamani *MathCAD* dasturida yechish

## Axborot texnologiyalari

Hozirgi XXI asr – axborot asrida axborotlarning haddan tashqari ortib borishi “Axborot texnologiyalari” fanining uzlusiz va shiddat bilan rivojlanishini taqozo etadi. Bugungi kunda axborotlar shu qadar ko'pki, ularni muntazam ravishda saralash, qayta ishlash, saqlash usullarini, vositalarini yaratish zamон talabi bo'lib bormoqda.

“Axborot texnologiyalari” fani barcha turdagи axborotlarni foydalanuvchiga tushunarli tarzda yetkazish uchun qayta ishlash, formatlash, saralash, uzatish usullarini, texnologiyalarini o'tganadi. Axborotlar bilan ishlash jaryonlariga axborot texnologiyalari maksimal darajada tadbiq etilganda ular yuqori sifat bosqichiga ko'tariladi.

Hozirgi kunda axborot va kompyuter texnologiyalari kundalik turmushda eng ko'p qo'llaniladigan texnologiyaga aylanib bormoqda. Chunki hayotning qaysi sohasini olmaylik, qanday amallarni bajarmaylik, albatta axborotlar bilan ish ko'ramiz. Ya'ni ularni qabul qilamiz, qayta ishlaymiz va uzatamiz.

“Axborot texnologiyalari” terminidagi “texnologiya” so'zi grekchadan olingan bo'lib, “techne” – san'at, mahorat; “logos” – fan, ta'lilot ma'nolarini anglatadi. Texnologiya – usul va vositalar majmuasidir. Texnologiya qo'llanilishi natijasida obyektning boshlang'ich holati o'zgarib, oldindan belgilangan, talabga javob beradigan holatga keladi.

*Axborot texnologiyalari* – axborotlami yig'ish, saqlash, qayta ishlash, qidirish, qabul qilish, uzatish usul va vositalaridir.

“Axborot texnologiyalari” vositalariga kompyuterning asosiy va qo'shimcha qurilmalari, ularda mavjud bo'lgan axborotlarni yaratuvchi, qayta ishlovchi hamda uzatuvchi Microsoft Word, PowerPoint, Excel, Access, Internet Explorer kabi barcha dasturlar misol bo'la oladi.

### Microsoft Word matn muharriri, dastur interfeysi


Word dasturi matn muharriri bo'lib, matnli ma'lumotlarni kiritish, formatlash, tahrirlash amallarini bajarishga mo'ljallangan. Bundan tashqari jadval ko'rinishidagi ma'lumotlarni hosil qilish va tahrirlash, rasmlar va kartinalar joylashtirish, har xil matematik, statistik, iqtisodiy simvollar va formulalarni kiritish, turli ko'rinishdagi figuralar, chiziqlar yordamida blok-sxemalar chizish, sonli ma'lumotlar asosida diagrammalar hosil qilish va boshqa shu kabi ko'plab turdagи ishlarni bajarish mumkin.

Word dasturi Microsoft office paketi tarkibidagi dastur bo'lib, dasturlash texnologiyalarining rivojlanib borishi natijasida uning yangidan-yangi

ko'rinishlari yaratilmogda. Hozirgi kunda dasturning asosan *Microsoft Word 2003*, *Microsoft Word 2010* ko'rinishlaridan foydalanilmogda. Ularning barchasi ham juda qulay interfeyslarga ega bo'lib, matnli hujjatlarni yuksak darajada tashkil qilishga imkon beradi. Usbu qo'llanmada dasturning yangi va zamonaviy axborot texnologiyalari qo'llanilgan *Microsoft Word 2010* ko'rinishi bayon etiladi.

Word dasturida yaratilgan fayl odatda *docx* yoki *rtf* kengaytma bo'ladi va bu fayl **hujjar** (dokument) deb ataladi.

Word dasturi *Пуск* → *Все программы* → *Microsoft office* → *Microsoft Word* menyular ketma-ketligi orqali ishga tushiriladi. Natijada *Microsoft Word* dasturi oynasi hosil bo'ladi (28-rasm).



28-rasm. Word dasturi interfeysi

Dastur oynasining elementlari quyidagilar:

- **sarlavha satri.** Bu yerda sistemali menyu tugmasi, fayl va dastur nomi hamda oynani boshqarish tugmalari o'rin olgan;

- **menyu satri.** Menyularda dasturda ishlatalish mumkin bo'lgan buyruqlar keltirilgan. Dastur menyulari: **Файл, Главная, Вставка, Разметка страницы, Ссылки, Рассылки, Рецензирование, Вид;**
- **uskunalar paneli.** Menyu buyruqlari panelda *piktogrammali buyruqlar* ko'pinishida joylashitirilgan bo'lib, birortasining tanlanishi mos buyruq bajarilishiga olib keladi. Bunda piktogramma ustiga sichqoncha ko'rsatkichi olib borilganda mos buytuq nomi paydo bo'ladi;
- **gorizontal va vertikal chizg'ichlar.** Bu chizg'ichlar sahifa parametrlarini o'zgartirish va ko'rib turish uchun mo'ljallangan;
- **ishchi soha.** Ish obyekti bo'lib, ma'lumotlar shu yerda yoziladi va tahrirlanadi;
- **o'tkazish paneli.** Matnning ekranga sig'magan qismlarini ko'rish va ularga o'tishni ta'minlaydi;
- **holatlar satri.** Bu yerda foydalanuvchiga kursor holati, hujjat haqida umumiy ma'lumotlar, ba'zi tugmalar holatlari haqida ma'lumotlar berib boriladi. Shuningdek, dasturning boshqa rejimiga o'tish, sahifa masshtabini o'zgartirish ishlarini bajarish mumkin.

### Word dasturi menyulari

Menyularning ko'p ishlataladigan buyruqlari quyidagilar:

- **Файл менюси buyruqlari:**
  - Сохранить (Ctrl+S) – faylni xotirada saqlash;
  - Сохранить как (F12) – faylni boshqa nom va kengaytma bilan saqlash;
  - Открыть (Ctrl+O) – saqlab qo'yilgan faylni ochish;
  - Закрыть (Ctrl+W) – hujjat oynasini yopish;
  - Сведения – joriy hujjat haqida to'liq ma'lumot olish;
  - Последние – Word dasturi bo'yicha ochilgan yoki foydalaniylgan oxirgi hujjatlar hamda papkalar ro'yxatini ko'rish va ularni ochish;
  - Создать (Ctrl+N) – yangi hujjat yaratish;
  - Печать (Ctrl+P) – fayl sahifalarini chop qilish;
  - Справка (F1) – dastur va unda ishlash bo'yicha ma'lumotlar olish;
  - Параметры – dasturda ishlash parametrlarini o'zgartirish va uskunalar panelini soqlash;
  - Выход (Alt+F4) – dasturdan chiqish.
- **Главная менюси.**



29-сasm. Главная менюси

Boshqa menyular buyruqlari bo'limlarga ajratilgan.

Menyuning **Буфер обмена** bo'limi buyruqlari:

- **Вырезать** (Ctrl+X) – belgilangan ma'lumotlarni almashinuv buferiga ko'chirish;
- **Копировать** (Ctrl+C) – belgilangan ma'lumotlarni almashinuv buferiga nusxalash;
- **Вставить** (Ctrl+V) – almashinuv buferidagi ma'lumotlarni cursor turgan joyga qo'yish;
- **Формат по образцу** – cursor turgan joydagi ma'lumot formatini boshqa ma'lumot sohasida qo'shash;
- **Шрифт** bo'limi:  
Bo'limning quyi o'ng burchagidagi tugma bosilganda **Шрифт** oynasi hosil bo'ladi (30-rasm).




30-rasm. Шрифт оynasi

Oynadan shrift turi, o'lchami kabi parametrlar tanlanib, OK tugmasi bosilganda belgilangan matn kerakli shriftga o'tadi. Ammo quyidagi buyruqlarni bevosita bo'limning o'zi orqali bajarish qulay:

- **Шрифт** – shrift turini o'zgartirish;
- **Размер шрифта** – shrift o'lchamini o'zgartirish;
- **Полужирный** (Ctrl+B) – belgilangan matnni qalin shriftga aylantirish;
- **Курсив** (Ctrl+I) – belgilangan matnni qiya ko'rinishga o'tkazish;
- **Подчеркнутый** (Ctrl+U) – tagiga chizilgan matnni aniqlaydi;

- **Подстрочный знак (Ctrl+“=”) – indeksga yozishni ta’minlaydi.** Bu holda yana shu buyruq bosilganda odatiy yozish holatiga o’tadi;
- **Надстрочный знак (Ctrl+Shift+“=”) – darajaga yozishni ta’minlaydi.** Bunda ham odatiy yozish rejimiga o’tish uchun pictogramma qavta bosiladi;
- **Абзац бо‘лми buyruqlari:**



31-rasm. Главная menyusining Абзац бо‘лми

- **Маркеры – abzatsga marker qo‘yish;**
- **Нумерация – abzatslarni raqamlash;**
- **Сортировка – abzatslarni saralash;**
- **Выравнивание ... – joriy abzatsni kerakli tomonlar bo‘yicha tekislash;**
- **Интервал – abzats qatorlari orasidagi masofani o‘zgartirish;**
- **Границы – abzatsga chegara qo‘yish.**
- **Редактирование бо‘лми buyruqlari:**
- **Найти (Ctrl+F) – hujjatdagi ma'lumotlarni qidirish;**
- **Заменить (Ctrl+H) – hujjatdagи bir xil ma'lumotlarni avtomatik tarzda boshqasiga almashtirish;**
- **Перейти (Ctrl+G) – hujjatning kerakli sahifalariga yoki bo‘limlariga avtomatik o‘tish.**

➤ **Вставка menyusi:**



32-rasm. Вставка menyusi

- **Страницы бо‘лми buyruqlari:**
- **Титульная страница – faylga titul varag‘i o’matish;**
- **Разрыв страницы – kursordan keyingi matnning doimo yangi qatordan yozilishini ta’minlash;**
- **Таблицы бо‘лми:**
- **Bo‘limdagи Таблицы buyrug‘i bosilganda jadval tuzishning quyidagi usullari taklif qilinadi:**
- **Вставка таблицы – katakchalarni belgilash usuli bilan jadval yaratish;**
- **Вставить таблицу – ustun va satrlar sonini ko‘rsatish usuli bilan jadval yaratish;**

- Нарисовать таблицу – jadvalni mustaqil qo'lda chizish;
  - Таблица Excel – sahifada Excel jadvalini hosil qilish;
  - Экспресс таблицы – tayyor dizaynli jadvallarni o'tmatish.
- Hosil qilingan jadval tanlanganda uni tahrirlash uchun Работа с таблицами sarlavhali Конструктор va Макет nomli maxsus menyular paydo bo'ladi.

- Конструктор менюси buyruqlari:

- Стили таблиц – jadvalni turli dizayndagi ko'rinishlarda tasvirlash;
- Заливка – joriy katak yoki belgilangan jadvalga rang berish;
- Границы – joriy katak yoki belgilangan jadvalning chegaralarini passiv holatga o'tkazish;
- Пастик – katak chegarasini passiv holatga o'tkazish;
- Макет менюси:



33-rasm. Макет менюси

- Строки и столбцы bo'limi:

Bo'limning Удалить buyrug'i bosilganda quyidagi menyular hosil bo'ladi:

- Удалить ячейки – joriy katak yoki belgilangan kataklarni o'chirish;
- Удалить столбцы – joriy ustun yoki belgilangan ustunlarni o'chirish;
- Удалить строки – joriy qator yoki belgilangan qatorlarni o'chirish;
- Удалить таблицу – joriy jadvalni o'chirish;
- Вставить сверху – joriy qatordan oldin yangi qator hosil qilish;
- Вставить снизу – joriy qatordan keyin yangi qator qo'shish;
- Вставить слева – joriy ustundan oldin yangi ustun hosil qilish;
- Вставить справа – joriy ustundan keyin yangi ustun qo'shish.

- Объединение bo'limi:

- Объединить ячейки – belgilangan kataklarni birlashtirish;
- Разделить ячейки – kataknini sar va ustunlarga bo'lish;
- Разделить таблицу – jadvalni bo'lish.

- Выравнивание bo'limi:



34-rasm. Макет менюсинг Выравнивание bo'limi

Bo'limning chap tomonida matnni katak bo'ylab yuqori-chapga, yuqori-o'rtaga kabi turli tekislash buyruqlari keltilgan:

- **Направление текста** – matnni vertikal yoki gorizontal ko'rinishga o'tkazish;
- **Поля ячейки** – katak parametrlarini o'tmatish;
- **Данные** bo'limi buyruqlari:
  - **Сортировка** – belgilangan qatorlarni matn yoki sonli ma'lumotga ko'ra saralash;
  - **Преобразовать в текст** – jadvalni matn ko'rinishiga o'tkazish;
  - **Формула** – jadvalda avtomat tarzdagи hisoblashlarni qo'llash.
- **Вставка** menyusining **Иллюстрации** bo'limi buyruqlari:
  - **Рисунок** – sahifaga fayldan rasm qo'yish;
  - **Картинка** – sahifaga *Office* bazasidan kartina qo'yish;
  - **Фигуры** – blok-sxemalar, turli geometrik figuralar, strelkalar qo'yish;
  - **SmartArt** – turli uslubdagi grafik va shakklardan tashkil topgan obyektlar bo'lib, ma'lumotlarni tushunish va tasavvur qilishda katta yordam beradi;
  - **Диаграмма** – sonli ma'lumotlar asosida diagrammalar tashkil qilish;
  - **Снимок** – ochiq holdagi oynalar yoki ekranning ixtiyoriy qismini rasmga tushirish va uni sahifaga joylashtirish.
- Yuqorida qo'yilgan obyektlar tanlanganda ularni turli ko'rinishlarda o'ta qulay tarzda tahrirlashga imkon beruvchi maxsus menyular paydo bo'ladi.
- **Ссылки** bo'limining **Гиперссылка** buyrug'i belgilangan obyektga gipermurojaat o'matadi.
- **Колонтитул** bo'limi buyruqlari:
  - **Верхний колонтитул** – sahifaning yuqori qismiga kolontitul qo'yish;
  - **Нижний колонтитул** – sahifaning quyi qismiga kolontitul qo'yish;
  - **Номер страницы** – sahfalarни raqamlash.
- **Текст** bo'limi buyruqlari:
  - **Надпись** – matnli ma'lumotlarni obyekt sifatida qo'yish;
  - **WordArt** – belgilangan matnni *WordArt* stiliga o'tkazish;
  - **Объект** – turli dasturlar obyektlarini joylashtirish.
- **Символы** bo'limi buyruqlari:
  - **Формула** – formulalar yozish va ulami tahrirlash;
  - **Символ** – kerakli simvollarni qo'yish.
- **Разметка страницы** menyusi:
  - **Параметры страницы** bo'limi buyruqlari:
    - **Поля** – ma'lumotlar chegaralarini o'zgartirish;
    - **Ориентация** – sahfalarini kitob yoki albom shakliga o'tkazish;
    - **Размер** – qog'oz o'chamini o'zgartirish;
    - **Колонки** – ma'lumotlarni ustunlarga ajratish.

- **Фон страницы bo'limi buyruqlari:**
  - Цвет страницы – sahifaga fon berish;
  - Границы страницы – sahifaga chegara qo'yish.
- **Абзац bo'limi buyruqlari:**
  - Отступ – abzatsga chap va o'ng tomondan joy tashlash;
  - Интервал – abzatsdan oldingi va keyingi oraliqni aniqlash.
- **Упорядочить bo'limi buyruqlari:**
  - Положение – belgilan gan obyekting salifada joylashishini aniqlaydi;
  - Обтекание текстом – ma'lumotlarning belgilangan obyektga nisbatan joylashishini aniqlaydi;
  - Группировать – belgilangan obyektlarni birlashtirish;
  - Повернуть – obyektni burish.
- **Вид менюси buyruqlari:**
  - Разметка страницы – sahifaning pechatga moslangan ko'rinishi bo'lib, odatda shu rejimda ishlanadi;
  - Линейка – ekranga chizg'ichni qo'yish yoki olib tashlash;
  - Масштаб – sahifa masshabatini o'zgartirish;
  - Новое окно – joriy hujjat aks etgan yangi oyna ochish;
  - Разделить – oynani bo'lish;
  - Снять разделение – bo'lishni bekor qilish.  
Shuningdek, quyidagi tugmalar yoki tugmalar kombinatsiyalaridan doimiy ravishda foydalaniлади:
    - Home – kursorni qator boshiga o'tkazish;
    - End – kursorni qator oxiriga o'tkazish;
    - Page Up – sahifa bo'ylab oldingi ekranga o'tish;
    - Page Down – sahifa bo'ylab keyingi ekranga o'tish;
    - Ctrl+Home – kursorni hujjatning birinchi qatoriga o'tkazish;
    - Ctrl+End – kursorni hujjatning oxirgi qatoriga o'tkazish;
    - Shift+F5 – kursorni oldingi pozitsiyasiga o'tkazish;
    - Delete – belgilangan qismni o'chirish;
    - Shift+F3 – belgilangan matn registrini o'zgartirish;
    - Ctrl+A – hujjatdagi barcha ma'lumotni belgilash;
    - Esc – bajarilayotgan jarayonni bekor qilish;
    - Ctrl+Z – buyruqni bekor qilish;
    - Ctrl+Y – bekor qilingan buyruqni tiklash;

## PowerPoint dasturi, slaydlar va taqdimotlar

Diplom ishlari, dissertatsiya himoyalari, korxona, tashkilot, ta'lim mu'ssesalari taqdimotlari va boshqa ko'rgazmalar prezentatsiya dasturlari yordamida namoyish etiladi. Bundan tashqari televiziyedagi namoyish qilinadigan turli reklama roliklari, ko'rsatuvlarda ham taqdimot dasturlari animatsiya effektlariidan foydalaniladi.


PowerPoint taqdimot yaratishga mo'ljallangan dastur bo'lib, Microsoft Office paketi tarkibidagi dastur hisoblanadi.

PowerPointda yaratilgan fayl *pptx* kengaytmali fayl hisoblanadi.

**Taqdimot (Prezentatsiya)** – bu slaydlar ketma-ketligidir.

**Slayd** – bu o'zida matn, grafik, rasm, jadval, ovoz va boshqa animatsiya samaralarini mujassam etgan taqdimot varag'i idir.

PowerPoint dasturi odatda **Пуск-Все программы-Microsoft Office**-Microsoft PowerPoint menyular ketma-ketligi orqali ishga tushiriladi. Natijada PowerPoint dasturi oynasi hosil bo'ladı (35-rasmin).



35-rasm. PowerPoint dasturi oynasi

- Dastur oynasi elementlari quyidagilar:
- **sarlavha satri.** Bu satrda sistemali menu tugmasi, fayl va dastur nomi hamda oynani boshqarish tugmalari o'rinn olgan;
  - **menuy satri.** Sarlavha satridan keyin menu qatori joylashib, ularda dasturda foydalanish mumkin bo'lgan buyruqlar keltirilgan. PowerPoint dasturi menyulari quyidagilar: *Файл, Главная, Вставка, Дизайн, Переходы, Анимация, Показ слайдов, Рецензирование, Вид*;
  - **uskunalar paneli.** Menu buyruqlari panelda piktogrammali buyruqlar ko'rinishida joylashtirilgan bo'lib, birortasining tanlanishi mos buyruq bajarilishiga olib keladi;
  - **gorizontal va vertikal chizg'ichlar.** Bu chizg'ichlar sahifa parametrlarini o'zgartirish va ko'rib turish uchun mo'ljallangan;
  - **slaydlar maydoni.** Slaydlar ro'yxati joylashgan bo'lib, slaydlar ustidagi umumiy amallar, boshqa slaydlarga o'tish ishlari bajariladi;
  - **slayd ish maydoni.** Ish obyekti bo'lib, slayd ma'lumotlari, elementlari shu yerda hosil qilinadi va tahrirlanadi;
  - **o'tkazish paneli.** Matnning ekranga sig'magan qismlarini ko'rish va ularga o'tishni ta'minlaydi;
  - **Holatlар satri.** Bu yerda foydalanuvchiga cursor holati, taqdimot va slaydlar haqida umumiy ma'lumotlar, ba'zi tugmalar holatlari haqida ma'lumotlar berib boriladi. Shuningdek, dasturning boshqa rejimiga o'tish, sahifa mashtabini o'zgartirish ishlarini bajarish mumkin.

### **PowerPoint dasturida taqdimot yaratish**

PowerPoint dasturida taqdimot yaratish jarayoni shartli ravishda ikki bosqichga bo'linadi:

1. Taqdimotni loyihalashtirish va ma'lumotlarni kiritish;
2. Taqdimot va slaydlar animatsiya samaralarim hosil qilish.

Taqdimot kamida bitta slayddan iborat bo'ladi. Shuning uchun dastur ishga tushirilganda bitta bo'sh slayddan iborat **Презентация1** nomli taqdimot hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan slayd odadta titul slaydi mакет ko'rinishida bo'ladi. Slayd mакетini o'zgartirish uchun **Главная** menyusining **Слайды** bo'limidagi **Макет** buyrug'i bosiladi. Natijada bir qancha mакет ko'rinishlari hosil bo'ladi (36-rasm).

Ular quyidagilar:

- **Титульный слайд.** Titul slaydi mакетi slayd sarlavhasi va kichik sarlavha elementidan tashkil topadi.



36-rasm Slaytlar maketlari nomenclaturasi

- **Заголовок и объект.** *Sarlavha va obyekt* maketi slayd sarlavhasi hamda jadval, diagramma, SmartArt, rasm, kartina, multimediya ma'lumotlaridan birini joylashtirishga imkon beradi.
- **Заголовок раздела.** *Bo'shim sarlavhasi* maketi orqali kichik va katta sarlavha qo'yish mumkin.
- **Два объекта.** 2 ta obyekt maketi slayd sarlavhasi hamda 2 ta matn yoki obyektlar joylashtirishga mo'ljallangan.
- **Сравнение.** *Solishtirish* maketida slayd sarlavhasi hamda 2 ta matn yoki obyekt va ularning har biriga sarlavha qo'yish imkoniyati mavjud.
- **Только заголовок.** *Faqat sarlavha* maketida slayd sarlavhasinigina yozish mumkin.
- **Пустой слайд.** *Bo'sh slayd* maketida slaydg'a bevosita ma'lumot kiritish imkoniyati mavjud emas.
- **Объект с подписью.** *Izohli obyekt* maketi matn yoki obyekt va unga sarlavhali izoh yozishga mo'ljallangan.
- **Рисунок с подписью.** *Izohli rasm* maketida rasm va unga sarlavhali izoh yozish imkoniyati mavjud.

Yuqoridaqgi maketlarning har birida maketlarning ixtiyoriy elementini o'zgartirish, o'chirib tashlash, boshqa obyektlar joylashtirish imkoniyatlari mavjud.

Ixtiyoriy maketi slaydg'a ma'lumot kirish uchun kerakli shablon ustida sichqonchaning chap tugmasi bir marta bosiladi. Natijada matn kiritish uchun cursor yoki obyekt joylashtirish uchun mos ravishdagi oyna paydo bo'ladi.

## PowerPoint dasturida bajariladigan asosiy buyruqlar va amallar

### ➤ Файл төмөнкүлиги менюсінде:

- Сохранить (Ctrl+S) – faylni xotirada saqlash;
- Сохранить как (F12) – faylni boshqa nom va kengaytma bilan saqlash;
- Открыть (Ctrl+O) – saqlab qo‘yilgan faylni ochish;
- Закрыть (Ctrl+W) – taqdimot oynasını yopish;
- Сведения – joriy taqdimot haqida to‘liq ma'lumot olish;
- Последние – PowerPoint dasturi bo‘yicha ochilgan yoki foydalananligan oxirgi taqdimotlar hamda papkalar ro‘yxatini ko‘rish va ularni ochish;
- Создать (Ctrl+N) – yangi taqdimot yaratish;
- Печать (Ctrl+P) – slaydlarni chop qilish;
- Справка (F1) – dastur va unda ishlash bo‘yicha ma'lumotlar olish;
- Параметры – dasturda ishslash parametrlarini o‘zgartirish va uskunalar panelini sozlash;
- Выход (Alt+F4) – dasturdan chiqish.


### ➤ Главная менюси.

#### ■ Menyuning Буфер обмена бо‘лими buyruqlari:

- Вырезать (Ctrl+X) – belgilangan slaydni yoki ma'lumotlarni almashinuv buferiga ko‘chirish;
- Копировать (Ctrl+C) – belgilangan slaydni yoki ma'lumotlarni almashinuv buferiga nusxalash;
- Вставить (Ctrl+V) – almashinuv buferidagi slaydni yoki ma'lumotlarni cursor turgan joyga qo‘yish;
- Формат по образцу – belgilangan slayd yoki cursor turgan joydagи ma'lumot formatini mos ravishda boshqa slayd yoki ma'lumot sohasiga qo‘llash;

#### ■ Слайды бо‘лими buyruqlari:

- Maket – joriy slayd maketini o‘zgartirish;
- Создать слайд – slayd yaratish. Bu buyruq yuqori va pastki qismlardan iborat (37-rasm).



37-тасм. Главная менюсінинг Слайды бо‘лими


Buyruqning yuqori qismi bosilganda joriy slayddan keyin joriy slayd dizaynidagi yangi slayd hosil bo‘ladi.

Buyruqning pastki qismi bosilganda hosil bo‘lgan maketlar

nomunalaridan birini tanlash yordamida kerakli maktebdagi slaydni yaratish mumkin.

Bu yuqning pastki qismi bosilganda shuningdek, quyidagi buyruqlar ham hosil bo'ladi:

- Дублировать выделенные слайды – belgilangan slaydlarni nushalash;
- Слайды из структуры – faylda saqlangan boshqa struktura asosida slayd yaratish;
- Повторное использование слайдов – boshqa taqdimotlar slaydlaridan foydalanish;
- Шрифт bo'limi. Bo'lim orqali shrift turi, o'chhami, rangini o'zgartirish, shriftini qalin yoki kursiv ko'rinishga o'tkazish kabi ishlami bajarish mumkin.
- Абзац bo'limi buyruqlari:



38-rasm. Главная менюсining Абзац bo'limi

- Маркеры – abzatsga marker qo'yish;
- Нумерация – abzatslami raqamlash;
- Интервал – abzats qatorlari orasidagi masofani o'zgartirish;
- Выравнивание ... – joriy abzatsni kerakli tomonlar bo'yicha tekislash;
- Направление текста – matn yo'nalishini o'zgartirish;
- Выровнять текст – matni shablon bo'ylab vertikal tekislash;
- SmartArt – matnli ma'lumotlarni vizual ko'rinishida tasvirlash;
- Рисование bo'limi buyruqlari:
  - Упорядочить – obyektlarni tartiblash amallarini bajaradi;
  - Экспресс стили – matnli yoki ixtiyorli obyektini "ekspress" stiliga o'tkazish;
  - Заливка фигуры – obyekt fonini o'zgartirish;
  - Контур фигуры – obyekt chegaralarini o'zgartiradi;
  - Эффекты фигур – obyektga effekt qo'llash.
- Редактирование bo'limi buyruqlari:
  - Найти (Ctrl+F) – hujjatdagi ma'lumotlarni qidirish;
  - Заменить (Ctrl+H) – hujjatdagi bir xil ma'lumotlarni avtomatik tarzda boshqasiga almashtirish;
- > Вставка менюси:



39-rasm. Вставка менюси

- **Таблицы bo'limi:**

Bo'limdagи **Таблицы** buytug'i bosilganda jadval tuzishning quyidagi usullari taklif qilinadi:

- **Вставка таблицы** – katakchalarni belgilash usuli bilan jadval yaratish;
- **Вставить таблицу** – ustun va satrlar sonini ko'rsatish usuli bilan jadval yaratish;
- **Нарисовать таблицу** – jadvalni mustaqil qo'lda chizish;
- **Таблица Excel** – slaydga *Excel* jadvalini hosil qilish;

Hosil qilingan jadval tanlanganda avtomatik paydo bo'ladigan **Работа с таблицами** sarlavhali **Конструктор** va **Макет** nomli maxsus menyular yordamida jadvalni ixtiyoriy ko'rinishda tahrirlash mumkin.

- **Изображение bo'limi buyruqlari:**

- **Рисунок** – slaydga fayldan rasm qo'yish;
- **Картинка** – slaydga *Office* bazasidan kartina qo'yish;
- **Снимок** – ochiq holdagi oynalar yoki ekranining ixtiyoriy qismini rasmiga tushirish va uni slaydga joylashtirish;
- **Фотоальбом** – fayldan o'qilgan rasmlar asosida fotoalbom tayyorlash.

- **Иллюстрации bo'limi buyruqlari:**

- **Фигуры** – blok-sxemalar, turli geometrik figuralar, strelkalar qo'yish;
- **SmartArt** – slaydga *SmartArt* obyektini joylashtirish;
- **Диаграмма** – sonli ma'lumotlar asosida diagrammalar tashkil qilish;
- **Ссылки** bo'limining **Гиперссылка** va **Действие** buyruqlari belgilangan obyektga gipermurojaat o'matadi.

- **Текст bo'limi buyruqlari:**

- **Надпись** – matnli ma'lumotlarni obyekt sifatida qo'yish;
- **Колонтитулы** – slaydga kolontitul qo'yish;
- **WordArt** – belgilangan matnni *WordArt* stiliga o'tkazish;
- **Номер слайда** – slaydlarni raqamlash;
- **Объект** – turli dasturlar obyektlarini joylashtirish.

- **Символы bo'limi buyruqlari:**

- **Формула** – formulalar yozish va ularni tahrirlash;
- **Символ** – kerakli simvollarni qo'yish.

- **Мультимедия bo'limi buyruqlari:**

- **Видео** – slaydga videoklip o'matish;
- **Звук** – slaydga audioklip o'matish.

Yuqorida qo'yilgan **объектлар** tanlanganda ularni turli ko'rinishlarda qulay tarzda tahrirlashga imkon beruvchi maxsus menyular paydo bo'ladи.

- **Дизайн менюси:**

- **Параметры страницы bo'limi buyruqlari:**

- **Параметры страницы** – sahifa parametrlarini o'zgartirish;
- **Ориентация слайда** – sahifalarni kitob yoki album shakliga o'tkazish;
- **Темы bo'limi**. Bu yerda turli uslubdagi tayyor dizaynli slayd namunalarini mavjud. Slaydlar maydonida kerakli slaydlar belgilanib, bo'limdagi hivor namuna sichqoncha yordamida tanlanganda belgilangan slaydlar tanlangan dizayn turiga o'tadi. Bo'limdagi Цвета, Шрифты и Эффекты buyruqlari yordamida dizayn foni va shrift ranglari, effekti kabi parametrlami o'zgartirish mumkin.

➤ **Переходы** menyusi:

- **Просмотр bo'limining Просмотр** buyrug'i yordamida tanlangan o'tish parametrlari belgilangan slaydlarga qanday qo'llanilayotganligini ko'rish mumkin.
- **Переход к этому слайду** bo'limida slayd hosil bo'lishining turli usullari keltirilgan. Ulardan birortasini joriy slaydga qo'llash uchun kerakli usulni tanlash kifoya. Bo'limdagi **Параметры эффектов** buyrug'i yordamida tanlangan usulning yo'naliш uslubini o'zgartirish mumkin.
- **Время показа слайдов** bo'limi buyruqlari:

**Звук** – taqdimotga ovoz o'rnatish. Buning uchun **Звук** darchasini ochib, Access bazasidagi standart ovozlardan biri yoki **Другой звук** buyrug'i yordamida ochilgan oynadan ixtiyoriy wav kengaytmali fayl tanlanadi. Darchadagi **Непрерывно** buyrug'i bosilsa, tanlangan ovoz taqdimot namoyishi tugaguncha qaytadan yangrayveradi;

**Длительность** – joriy slayd hosil bo'lish vaqtini bildiradi;

**Смена слайда** – keyingi slaydga o'tishni aniqlaydi. Buyruqning **Но** щелчку bandi tanlansa, keyingi slayd kerakli tugma bosilgandagina hosil bo'ladi. Buyruqning **После** bandi avtomatik o'tishni bildiradi. Bunda joriy slayd namoyish vaqtini ko'rsatish mumkin;

Bo'limdagi **Применить** ko' всем buyrug'i bosilsa, menyudagi tanlangan parametrlar barcha slaydlar uchun qo'llaniladi.

➤ **Анимация** menyusi:

- **Просмотр bo'limining Просмотр** buyrug'i yordamida tanlangan animatsiya effektlari joriy slaydga qanday qo'llanilayotganligini ko'rish mumkin;

**Анимация** bo'limi oynasidan tanlangan slayd elementi uchun kirish belgilanish va chiqish effektlaridan biri o'matiladi. **Параметры эффектов** buyrug'i orqali tanlangan animatsiya uslubini o'zgartirish mumkin. Bo'limning quiy o'ng burchagidagi tugmani bosish yordamida hosil qilingan oynadan jony animatsiya parametrlari o'zgartiriladi.

**Расигренная анимация** bo'limi buyruqlari:

**Добавить анимацию** – elementga qo'shimcha animatsiya o'rnatish;

- **Область анимации** – joriy slayd uchun qo'llanilgan animatsiyalar ro'yxati oynasini hosil qilish yoki olib tashlash;
- **Анимация по образцу** – tanlangan element animatsiyalarini boshqa elementga qo'llash.
- **Время показа слайдов** bo'limi buyruqlari:
- **Начало** – animatsiya boshlanishini bildiradi. Buyruq parametrlari;
- **По щелчку** – animatsiya tugma bosilganda ishga tushadi;
- **С предыдущим** – oldingi animatsiya bilan birgalikda ishga tushadi;
- **После предыдущего** – oldingi animatsiyadan keyin ishga tushadi;
- **Длительность** – animatsiya vaqtini uzunligini aniqlaydi;
- **Задержка** – animatsiyadan keyingi pauza vaqtini aniqlaydi;
- **Изменить порядок анимации** – animatsiyalar tartibini o'zgartirish;
- **Показ слайдов** menyusi:
- **Начать показ слайдов** bo'limi buyruqlari:
- **С начала (F5)** – taqdimotni namoyish etish;
- **С текущего слайда** – taqdimotni joriy slayddan boshlab namoyish etish;
- **Произвольный показ** – qismiy taqdimot yaratish;
- **Настройка** bo'limi buyruqlari:
- **Настройка демонстрации** – taqdimot parametrlarini sozlash;
- **Скрыть слайд** – slaydni vaqtinchalik namoyishdan olib tashlash;
- **Настройка времени** – taqdimot namoyishini vaqtga moslashish;
- **Запись показа слайдов** – taqdimotga vaqt bo'yicha ovoz yozish.
- **Вид** menyusi buyruqlari:
- **Обычный** – taqdimot yaratish va uni tahrirlashga mo'ljallangan rejim bo'lib, odatda shu rejimda ishlanadi;
- **Сортировщик слайдов** – slaydlarni saralash rejimini o'matish;
- **Линейка** – ekranga lineykani qo'yish yoki olib tashlash;
- **Масштаб** – slayd mashtabini o'zgartirish;
- **Новое окно** – joriy taqdimot aks etgan yangi oyna ochish.

### Excel elektron jadvali, Excel interfeysi

Jadval ko'rinishdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, hisob-kitob ishlarni olib borish uchun maxsus amaliy dasturlar yaratilgan. Bunday dasturlar **elektron jadvallar** deb ataladi. **Excel** dasturi ham elektron jadvallar qatoriga kiradi.

Elektron jadvallar, xususan **Excel** dasturi bank, soliq sohalarida juda keng qo'llaniladi. Shu bilan birga barcha tashkilot, korxona va o'quv muassasalarining buxgalteriya bo'limlarida eng ko'p ishlatiladigan dastur

hisoblanadi. Bundan tashqari har bir kishi ish jarayonida Excel dasturiga murojaat qilishiga to'g'ri keladi.


Excel dasturi Microsoft Office paketi tarkibidagi dastur bo'lib, Пуск-Программы-Microsoft Office-Microsoft Excel menyular ketma-ketligi orqali ishga tushiriladi. Natijada Excel oynasi hozil bo'ldi (40-rasm):



40-rasm. Excel elektron jadvali interfeysi

Excel dasturi oynasi elementlari quyidagilar:

➤ **Sartalma satri** Bu yerda sistemali menyu tugmasi, tezkor buyruqlar paneli, dastur va fayl nomi, hamda oynani boshqarish tugmalari o'rinni oлган.



- **Uskunalar paneli.** Menyu satridan keyin uskunalar paneli joylashgan. Excel menyu buyruqlari piktogrammalar (tugmalar) ko'rinishida tasvirlangan.



- **Nomlar maydoni.** Nomlar maydoni uskunalar panelidan keyingi qatorning chap tomonida joylashgan. Bu maydonda faol yacheyska nomi (manzili) ko'riniib turadi.




- **Formulalar satri** faol katakdagi qiymatning formulasini ko'rish yoki joriy katakka ma'lumot va formulalar kiritish uchun mo'ljallangan.



- **Ishchi soha.** Ma'lumotlar va natijalar aks etiluvchi maydon.



- **Ishchi varaqlar paneli.** Panel orqali boshqa ishchi varaqqa o'tish va yangi ishchi varaq hosil qilish mumkin.



- **Holatlar satri.** Bu satrda bajarilayotgan buyruq va ba'zi tugmalar holati to'g'risidagi ma'lumotlar berib boriladi. Shuningdek, dasturning boshqa rejimiga o'tish, sahifa masshtabini o'zgartirish i'shlarni bajarish mumkin.



Excelda tayyorlangan fayl **xlsx** kengaytmali bo'lib, bu fayl *ishchi kitob* (**Книга**) deb yuritiladi. Ishchi kitob bir nechta *ishchi varaq* (**Лист**) lardan tashkil topadi. Ishchi varaq 16384 ta ustun 1048576 ta qatorlar (Excel 2010 versiyasiga ko'ra) kesishmasidan iborat bo'lgan mayda *kataklardan* (yacheykalardan) iborat. Ustunlar lotin alifbosining bosh harflari, qatorlar esa natural sonlar bilan nomlangan. Har bir kataknning ham o'z nomi (adresi) mavjud. Masalan, B ustun va 6-qator kesishgan yacheyska **B6** deb

nomlanadi. Faol katakning nomini nomlar maydoniga qarab ham aniqlash mumkin. Har bir katak son, matn, formula va boshqa ma'lumotlar aks etishi uchun mo'ljallangan.

Katakdan so'ng maydon tushunchasi kiritiladi. Maydon Excelda kataklar guruhidagi ma'lumotlarga funksiyalarni qo'llashda ishlataladi.

**Maydon** deb, yonma-yon yoki ketma-ket joylashgan kataklar guruhiga aytiladi. Maydonning adresini ko'rsatish uchun uning yuqori chap va pastki o'ng kataklarining nomi ikki nuqta bilan ajratib yoziladi.

Maydonga misollar:

**A1:B1** – A1 va B1 kataklardan iborat maydon;

**B1:B100** – B ustundagi birinchi 100 ta katak;

**B2:E6** – B dan E gacha bo'lgan 4 ta ustun va 2 dan 6 gacha bo'lgan 5 ta satrlarda joylashgan 20 ta katak.

*Ishchi kitob* va *ishchi varaglar* ustida bajariladigan ba'zi asosiy amallar:

❖ *Ishchi kitob (fayl) yaratish.* Файл - Создать - Новая книга - Создать buyruqlar ketma-ketligi bosiladi.

❖ *Xotiradagi faylni ochish.* Файл - Открыть buyrug'i yordamida ochilgaa muloqot oynadan kerakli fayl tanlanib, Открыть buyrug'i bosiladi.

❖ *Faylni xotirada saqlash.* Файл - Сохранить tugmasi bosiladi.

❖ *Faylni chop qilish.* Файл - Печать buyrug'i bosiladi va ochilgan oynadan printer turi, chop etiladigan varaqlar raqamlari va boshqa parametrler ko'rsatilib, Печать tugmasi bosiladi.

❖ *Faylni yopish.* Файл - Закрыть buyrug'i bosiladi.

❖ *Ishchi varaq yaratish va uni o'chirish.* Ishchi varaqlar panelining

■ - Вставить лист (Shift+F11) buyrug'i bosilganda yangi *ishchi varaq* hosil bo'ladi. Ishchi varaqni yo'qotish uchun esa panelda *ishchi varaq* yorlig'ining kontekst menyusi ochilib, Удалить buyrug'i tanlanadi.

❖ *Ishchi varaq nomini o'zgartirish.* Excel ishchi varaqlari odatda **Лист1**, **Лист2** va h.k. so'zlar bilan nomlanib boradi. Lekin ishchi varaq nomini xohishga qarab o'zgartirish ham mumkin. Buning uchun *ishchi varaq yorlig'i* ustida sichqoncha o'ng tugmasi bosilib, hosil bo'lgan kontekst menyudan **Переименовать** buyrug'i bosiladi. Bu holda *ishchi varaq yorlig'i*da cursor paydo bo'ladi. Yangi nom kiritilib, **Enter** tugmasi bosiladi.

❖ *Maydonlarni mahkamlash va uni hekor qilish.* Ishchi varaqlarning barcha kataklari ekranga sig'maganligi sababli ishslash jarayonida ba'zan mo'jal yo'qotib qo'yiladi, ya'ni ishlayotgan soha ko'rinnmay qoladi. Bu hol bo'lmasligi uchun maydon mahkamlab qo'yiladi.

**Mahkamlangan** maydon doimo ekranda ko'rinib turadi. Maydonni mahkamlash uchun **Вид** menyusining **Закрепить области** buyrug'i bosiladi. Hosil bo'lgan navbatdagi menyudan yana **Закрепить области** buyrug'i bosilganda faol kataknинг chap va yuqori qismi mahkamlanadi. **Закрепить верхнюю строку** yoki **Закрепить первый столбец** buyrug'i bosilganda mos ravishda birinchi qator yoki birinchi ustun mahkamlanadi. Mahkamlashni bekor qilish uchun **Снять закрепление областей** buyrug'i bosiladi.

- ❖ **Satr va ustun qo'shish.** Bir yoki bir nechta satrlar yoki ustunlarni ularning nomlari orqali belgilab, kontekst menyuning **Вставить** buyrug'i bosish mos ravishda yangi satrlar yoki ustunlar qo'shilishiga olib keladi.
- ❖ **Satr va ustunlarni yo'qotish.** Satr yoki ustunlarni ularning nomlari orqali belgilab, kontekst menyuning **Удалить** buyrug'i bosiladi.
- ❖ **Ustun kengligini o'zgartirish.** Главная менюсining **Формат** buyrug'i yordamida ochilgan menyudan **Ширина столбца** buyrug'i bosiladi. Hosil bo'lgan muloqot oynasida kerakli qiymat kiritilib, **OK** tugmasi bosiladi.
- ❖ **Satr balandligini o'zgartirish.** Excelda odatda satr kengligi "normal" stilidagi shrift o'lchamida bo'ladi. Bu holda katakka kiritilgan eng katta harf yoki son ham ko'rinib turadi. Shrift o'lchami qanchalik kattalashdirilsa, satr balandligi shunga mos ravishda o'zgaradi. Satr balandligini ixtiyoriy o'zgartirish xuddi ustun kengligini o'zgartirish kabi amalga oshiriladi.
- ❖ **Dasturdan chiqish.** Dasturni butunlay yopish uchun **Файл** menyusining **Выход** buyrug'i, yoki Alt+F4 tugmalar kombinatsiyasi, yoki oynaning yuqori o'ng burchagidagi tugmasi bosiladi.

### Ma'lumotlarni kiritish va tahrir qilish

Excel kataklaridagi ma'lumotlar odatda quyidagi 3 turda bo'lishi mumkin: sonli qiymat, matn, formula. Bundan tashqari ishchi varaqlarda rasmlar, diagrammalar, tugmalar va boshqa obyektlar joylashishi mumkin.


Sonli qiymat, matn, formula va funksiyalarni kiritish uchun avvalo sichqonchaning chap tugmasi ma'lumot kiritilishi lozim bo'lgan katakdakda bir marta bosiladi. Ma'lumot kiritilib, **Enter** tugmasi bosiladi.

- **Sonli qiymatlar**

Excelda kiritilayotgan sonlar quyidagi raqam va belgilardan tashkil topishi mumkin: **0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, +, -, 0, /, ., \$, %, ., E, e.**

Kiritilgan sonlar odatda kataknинг o'ng tomoniga tekislanadi.

**Soni formatlarni qo'llash.** Excelda turli tuman masalalarni yechish imkoniyati mavjud. Bu masalalarda sonlar har xil ko'rinishda ishlatalishi mumkin. Masalan, foiz, pullik, vaqt, sana, matn, moliyaviy, eksponensial, kasr, umumiy va boshqa formatlar ko'rinishida. Bunday formatlarni qo'l-lash uchun katak yoki kataklar guruhi belgilanib, Главная менюсining **Формат** – **Формат ячеек** буюгуqlar ketma-keiligi yoki kontekst menyuning **Формат ячеек** буютуг'i tanlanadi. Natijada quyidagi muloqot oynasi ochiladi (41-rasm):



41-rasm. Формат ячеек супаси

Bu oynaning **Число** panelidagi **Числовые форматы** bo'limidan kerakli format tanlanganda o'ng tomonidagi **Образец** sohasida son formatining umumiy ko'rinishi bosil bo'lib, uning pastki qismida tanlangan format to'g'risida qisqacha tushuntirma paydo bo'ladi. Biror turdag'i format tanlanib, **OK** tugmasi bosiladi.

#### • Matnlar va ularni kiritish

Ko'p hollarda ishchi varaqlarga matn yozishga ham to'g'ri keladi. Misol uchun, satr va ustun sarlavhalari, sonli ma'lumotlarga tushuntirma, jadval mavzusi matnlar yordamida ifodalanadi. Matnlar sonlar, harflar, belgililar ketma-ketligidan tashkil topishi mumkin. Masalan, biror katakka 128-qator deb kiritilsa, Excel bu ma'lumotni matn sifatida tushunadi. Matnlar ham xuddi sonlar kabi kiritiladi va odatda chap tomonga tekislanadi.

#### • Ma'lumotlarni tahrirlash

Excel kataklaridagi ma'lumotlar ustida har qanday amalni bajarish uchun kerakli katak yoki maydon belgilab olinishi lozim.

**Katakni belgilash.** Har qanday katak ustida sichqonchaning chap

tugmasini bir marta bosish natijasida katak belgilanganadi. Belgilangan katak *faol katak* (faol yacheyska) yoki *joriy katak* deyiladi.

**Maydon tanlash.** Maydon ustida har qanday amalni bajarish uchun avvalo maydon belgilanishi (tanlanishi) lozim. Buning uchun sichqonchaning chap tugmasi kerakli maydonning yuqori chap katagi ustida bosilib, qo'yib yuborilmasdan quyi o'ng katagigacha surib boriladi. Bu ishni Shift tugmasi va kursorni boshqarish tugmalaridan foydalanib ham bajarish mumkin. Bu amallar yonma-yon joylashgan kataklar uchun o'rinnlidir. Yonma-yon joylashmagan kataklar uchun esa, Ctrl tugmasini bosib turgan holda sichqoncha yordamida kerakli maydonlar tanlanadi.

**Excelda kiritilgan ma'lumotlarni tahrirlash amallari mavjud.** Ularning ayrimlari quyida keltirilgan:

- ❖ **kiritilgan ma'lumotni o'chirish.** Buning uchun ma'lumot turgan yacheyska faollashtiriladi va klaviaturadagi Delete tugmasi bosiladi;
- ❖ **ma'lumotlarni nusxalash.** Katakdagi ma'lumotning nusxasini olish uchun katak faollashtiriladi va Главная менюсining **Копировать** yoki kontekst menyuning **Копировать** (yoki Ctrl+C) buyrug'i bosiladi. Qo'yilishi kerak bo'lgan katak faollashtirilib, Главная менюсining **Вставить** yoki kontekst menyuning **Вставить** (yoki Ctrl+V) buyrug'i bosiladi;
- ❖ **ma'lumotlarni ko'chirish.** Katakdagi ma'lumotni ko'chirish uchun katak faollashtiriladi va Главная менюсining **Вырезать** yoki kontekst menyuning **Вырезать** (yoki Ctrl+X) buyrug'i bosiladi. Qo'yilishi kerak bo'lgan katak faollashtirilib, Главная менюсining **Вставить** yoki kontekst menyuning **Вставить** (yoki Ctrl+V) buyrug'i bosiladi;
- ❖ **katakdagi ma'lumotni o'zgartirish.** Ba'zi hollarda katakka noto'g'ri kiritilgan ma'lumotlarni to'g'rilash uchun uni o'chirib, qaytadan yozmasdan unga ozgina o'zgartirish kiritish yetarli bo'ladi. Bu ishni bir necha usullar bilan bajarish mumkin:
  - a) katakcha ustida sichqonchaning chap tugmasi 2 marta bosiladi va bu holda katak ichida cursor paydo bo'ladi. Kerakli qism to'g'rilanib, **Enter** tugmasi bosiladi;
  - b) katakcha faollashtiriladi va F2 funksional tugma bosiladi. Kerakli o'zgartirishlar kiritilib, **Enter** tugmasi bosiladi;
  - c) katakcha faollashtiriladi. Bu vaqtida katakdagi ma'lumotlar *formular satrida* ko'rindi. Sichqonchaning chap tugmasi formulalar satrida bir marta bosiladi. Kerakli o'zgartirishlar kiritilib, **Enter** tugmasi bosiladi. Bu uch usulni qo'llaganda ham formulalar satrining chap tomonida ao'shimcha 2 ta tugma hosil bo'ladi:  Bunda  tugmasi tahrirlashni tugatadi. Bu tugmalarning o'miga bekor qiladi,  tugmasi esa tahrirlashni tugatadi. Bu tugmalarning o'miga

mos ravishda Esc va Enter tugmalarini bosish ham mumkin.

- **Ma'lumotlarni formatlash**

Ma'lumotlarni formatlash bo'yicha bir qancha amallar mavjud. Ularning barchasini yuqoridagi **Формат ячеек** oynasidan bajarish mumkin. Barcha formatlash amallarini qo'llash uchun albatta formatlanish kerak bo'lgan soha belgilab olinishi lozim. Ba'zi formatlash amallari:

- ❖ **tekislash.** Bu kabi ishlarni bajarish uchun **Формат ячеек** oynasining **Выравнивание** paneli ochiladi. Panelning **Выравнивание** sohasida-gi **по горизонтали** oynachasidan gorizontal tekislash, **по вертикали** oynachasidan vertikal tekislash buyruqlari tanlanadi. Panelning **Отображение** sohasidan katakka sig'magan ma'lumotni qanday joylashtirilish kerakligi ko'rsatiladi. Masalan, **переносить по словам** bandi tanlansa, kataknинг qatoriga sig'magan ma'lumot katakning navbatdagi qatoridan yozilishini ko'rsatadi. **Автоподбор ширины** bandi tanlansa, katakdagi uzun ma'lumot katakka moslashishini bildiradi. Agar **объединение ячеек** bandi tanlansa, ma'lumot uzunligiga qarab katak keymg'i kataklar bilan birlashadi. Kerakli bandlar tanlab bo'lingandan so'ng **OK** tugmasi bosiladi.
- ❖ **ma'lumot shrifti va o'lgchamini o'zgartirish.** Ma'lumotlar shrifti va o'lgchamini o'zgartirish uchun **Формат ячеек** oynasining **Шрифт** panelidan mos ravishda **Шрифт** va **Размер** oynachalaridan kerakli qiymatlar tanlanib, **OK** tugmasi bosiladi. Bu amalni uskunalar panelining oynachalaridan foydalanib bajarish ham mumkin;
- ❖ **rang berish.** Ma'lumotlar va ma'lumotlar egallab turgan soha ajralib, chiroqli ko'rniib turishi uchun ularga biror rang berish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun kerakli katak yoki soha belgilanib, katak yoki soha foni uchun tugmasi, katak yoki sohada joylashgan ma'lumotlar rangi uchun esa tugmasini bosish kerak;
- ❖ **katakk yangi satr qoshish.** Ba'zi vaziyatlarda bir katakka katak enini o'zgartirmagan holda uzun matnni joylashtirishga to'g'ti keladi. Bunday hollarda Alt+Enter tugmalar kombinatsiyalaridan foydalanib, matning qolgan qismini navbatdagi qatordan yozish mumkin. Bu holda Excel joriy katak uchun matnni ko'chirish holatini o'matadi.

### Excelda formula va funksiyalar

Formula va funksiyalar Elektron jadvalda ishlashda eng asosiy vosita hisoblanadi. Excel oddiy matn muharriridan shunisi bilan farq qiladi. Formula va funksiyalar kataklardagi boshlang'ich qiymatlar orqali ma'lum amallar yordamida yangi zarur qiymat hosil qilish uchun ishlataladi.

Boshlang'ich qiymatlar o'zgartirilganda formula yoki funksiya yordamida hosil qilingan qiymat ham avtomatik ravishda o'zgaradi. Bu esa formula yoki funksiyalarni bir marta yozib, boshlang'ich qiymatlarni xohlagancha o'zgartirib, yangi-yangi natijalar olish imkonini beradi.

Agar biror katakka qandaydir formula kiritilib, Enter tugmasi bosilsa, formula o'mida shu formula bo'yicha hisoblangan qiymat hosil bo'ladi. Biror katakdagi sonli qiymat qanday formula yordamida hisoblanganligini bilish uchun katak faollashtiriladi. Natijada formulalar satrida yozilgan formula hosil bo'ladi.

Katakka kiritiladigan formulada quyidagi elementlar bo'lishi mumkin:

- arifmetik amallar;
- katak yoki maydon adresi, yoki ularning nomi;
- sonlar;
- ishchi jadval funksiyalari.

Formulada quyidagi amallardan foydalanish mumkin:

**6-jadval. Excelda amal belgilari**

Amal belgisi	Nomi	Ustunlik darajasi
^	Darajaga ko'tarish	1
*	Ko'paytirish	2
/	Bo'lish	2
+	Qo'shish	3
-	Ayirish	3
&	Konkatenatsiya (ulash)	4
=	Tenglikni mantiqiy solishtirish	5
>	Katta mantiqiy solishtirish	5
<	Kichikka mantiqiy solishtirish	5

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, misol uchun darajaga ko'tarish amali birinchi bo'lib bajariladi. Oddiy qavslar yordamida amallarning tabiiy bajarilish ketma-ketligini o'zgartirish mumkin.

Formulalarga misollar:

=15\*0,5 - 15 soni 0,5 soniga ko'paytiriladi;

=A1+C1 - A1 va C1 katakdagi sonlar qo'shiladi;

=MAKC(B1:D5) - B1:D5 maydonda joylashgan eng katta qiymat topiladi;

=B2^(2/3) - B2 katakda turgan sonning  $\frac{2}{3}$  - darajasi topilmoqda;

=-(2-ABS(0,2+A2))/(1+A2^3) -  $\frac{2-|0,2+A2|}{1+A2^3}$  formula hisoblanmoqda.

## Formulalarni kiritish

Formulani kiritish uchun dastlab formula kiritilishi kerak bo'lgan katak faoliyatlari bilan. Shundan so'ng kataknинг o'zida yoki formulalar satrida mat'lum formula kiritiladi. Formula har doim  $=\text{tenglik}$  (tenglik) belgisidan boshlanishi shart.

Formula to'liq kiritib bo'lingandan so'ng albatta Enter tugmasi bosilishi lozim.

### Adreslar

Formulalarda adreslar muhim o'rinni tutadi. Adreslar *nisbiy*, *mutlaq* va *aralash* adreslarga bo'linadi. Ularning bir-biridan farqi *quyida* misollar yordamida tushuntirilgan.

**Nisbiy adreslar.** Faraz qilaylik, D4 katakdagi =B4+C4 formula yozilgan bo'lsin. Agar bu formuladan D5 va D6 kataklarga nusxa olinsa, bu kataklarda mos ravishda =B5+C5 va =B6+C6 formulalar paydo bo'ladi. Bu yerda Excel formulalarda qatnashgan adreslarni ulaming tutgan o'miga qarat o'zgartirmoqda. E'tibor beriladigan bo'lsa, birinchi formula ikki katak chapda joylashgan son bilan bir katak chapda joylashgan son yig'indisidan iborat. Ikkinchisi va uchinchi formulalarda ham aynan birinchi qoidadan nusxa olingan, ya'ni bu formulalar ham ikki katak chapda joylashgan son bilan bir katak chapda joylashgan son yig'indisidan iborat. Bu misolda **birinchi** formuladagi **B4** va **C4** adreslar nisbiy adreslar hisoblanadi. Xullas, formuladan nusxa olinganda unda qatnashgan adreslar o'zgarsa, ular **nisbiy adreslardir**.

**Mutlaq adreslar.** Ba'zi holatlar bo'ladiki, formuladan nusxa olinganda unda qatnashgan ba'zi adreslar o'zgarmay qolishi lozim 42-rasmida Excel jadvaliga qaraylik.

			=B6*\$B\$2
2	Soliq hajni	25%	
3			
4	F.I.O	Pul	Soliq
5	Abdullaev	10 000	2500
6	Daniyarov	12 000	3000
7	Murodov	9 000	2250

42-rasm. Excel elektron jadvalida masala

Bu misolda B2 katakdagi soliq foizi, C5 katakdagi B5 katakdandan olingan soliq minordori keltirilgan. C5 katakdagi =B5\*\$B\$2 formula yozilgan. Bu formuladan C6 va C7 kataklarga nusxa olinsa, mos ravishda =B6\*\$B\$2 va =B7\*\$B\$2 formulalar bosil bo'ladi. Bu misoldan ko'rinish turibdiki, nisbiy adres o'zgardi, mutlaq adres o'zgarmadi, bu yerda \$B\$2 adres mutlaq

adresdir. Xullas, har bir mutlaq adresda ikkitadan \$ belgi ishtirok etadi, birinchisi ustun, ikkinchisi satr raqami oldida.


**Aralash adreslar.** Yana shunday holatlar bo'ladiki, formulada qatnashgan adresning faqat bir qismi, ya'nii yoki ustun nomi yoki satr raqami o'zgaradi. Bunday adreslar **aralash adreslar** deyiladi.

### Funksiyalar

Funksiyalar Excel bazasiga oldindan kiritilgan bo'lib, ular formulalar yozishda qo'llaniladi. Funksiyalarning qo'llanilishi:

- *ba'zi to'g'ridan-to'g'ri hisoblash mumkin bo'lмаган formulalarni yozishda;* masalan, **B2** dan **B20** gacha bo'lgan kataklarda joylashgan sonlarning eng kattasini **B22** katakda hosil qilish kerak bo'lsin. Bu masalani oddiy formulalar yordamida hosil qilib bo'lmaydi. Buning uchun maxsus **MAKC** funksiyasi mavjud bo'lib, **B22** katakda  $=\text{MAKC}(\text{B2:B20})$  formulani yozish zarur va yetarli;
- *katta hajmli ma'lumotlar ustida bajariladigan formulalarni sodda ko'rinishda yozishda;* masalan, **B15** katakda **B4** dan **B14** gacha bo'lgan kataklarda joylashgan sonlarning o'rta arifmetigini hosil qilish kerak bo'lsin. Buni formula yordamida hal qiladigan bo'lsak, **B15** katakka  $=(\text{B4}+\text{B5}+\text{B6}+\text{B7}+\text{B8}+\text{B9}+\text{B10}+\text{B11}+\text{B12}+\text{B13}+\text{B14})/11$  formula kiritilishi lozim. Ushbu oddiy formulani kiritish uchun ancha vaqt va mehnat talab etiladi. Agar bu son 11 ta emas, juda ko'p bo'lsachi? Bunday kattaroq formulalarni yozishda funksiyalardan foydalaniladi. Yuqoridaq formula **СРЗНАЧ** funksiyasi yordamida yoziladigan bo'lsa, **B15** katakka  $=\text{СРЗНАЧ}(\text{B4:B14})$  formula kiritilishi kifoya;
- *matematikadagi ko'pgina maxsus funksiyalarni hisoblashlarda;* masalan, **D3** katakda joylashgan sonning sinusini **D4** katakka chiqarish lozim bo'lsa, **D4** katakka  $=\text{SIN}(\text{D3})$  formula yoziladi.

Funksiyalarni katakka to'g'ridan-to'g'ri katakning o'zida yoki formulalar satrida kiritish mumkin. Lekin Excelda funksiyalarni kiritish bundanda osonlashtirilgan bo'lib, bu ish funksiya ustasi yordamida amalga oshiriladi. Funksiya ustasini ishga tushirish uchun **Формулы** menyusining **Вставть функцию** yoki formulalar satridagi tugmasi bosiladi. Natijada funksiya ustasi oynasi hosil bo'ladi (43-rasm).



43-rasm. Funksiya ustasi oynasi

Bu oynaning **Категория** darchasida **13** turkumdagи funksiyalar menyusi joylashgan. Biror turkumdagи menu tanlansa, oynaning **Выберите функцию** darchasida shu turkumga mos funksiyalar ro'yxati paydo bo'ladi. Bu ro'yxatdan kerakli funksiya tanlanadi, shunda darchaning pastki tomonida tanlangan funksiyaning qisqacha tavsifi va yotiqnomasi paydo bo'ladi. Bu yerdan funksiyaning nima uchun va qanday ishlatalishini biliб olish mumkin. Funksiya tanlanib, **OK** tugmasi bosiladi. Natijada shu funksiyaning paneli paydo bo'ladi. Odatda bu panelda kopmcha funksiya ustasining o'zi hisoblanayotgan maydon va usulni taklif etadi. Tekshirib, to'g'riligiga ishonch hosil qilinsa, **OK** tugmasini bosish mumkin. Bunday bo'lmasa, o'zimiz panel oynasiga to'g'ri qiymatlarni kiritib, **OK** tugmasini bosishimiz lozim.

Bu funksiyalarning ba'zilari quyidagilar:

- CYMM.** Excelda eng ko'p ishlataladigan funksiyalardan biri **CYMM** hisoblanadi. Bu funksiya sonlar va ko'rsatilgan maydondagi qiymatlar yig'indisini topishga imkon beradi.

*Umumiy ko'rinishi:* **CYMM(1-qiymat;2-qiymat; ... ;n-qiymat)** bu yerda 1-qiymat; 2-qiymat; ... ; n-qiymatlar argumentlar ro'yxati. Ular o'rinda aniq sonlar, maydon yoki katak adreslari kelishi mumkin.

Masalan, **B2:D50** maydonda joylashgan sonlar yig'indisini topish uchun -**CYMM(B2:D50)** formulani yozish, 30 soni bilan **A2:E2** maydonda joylashgan sonlar yig'indisini topish uchun =**CYMM(A2:E2;30)** formulani yozish, **C2:E10** va **F11:H15** maydonlarda joylashgan sonlar yig'indisini topish uchun esa =**CYMM(C2:E10;F11:H15)** formulani yozish kifoyadir.

*Joylashishi:* Мастер функций оynasi Категория darchasining Математические bo'limi.

2. **СРЗНАЧ.** Bu funksiya sonlar va berilgan maydonda joylashgan qiymatlar o'rta arifmetigini topishda ishlataladi.

*Umumiy ko'rinishi:* СРЗНАЧ(1-qiymat;2-qiymat; ... ;n-qiymat)

- Masalan, C3:C20 maydonda joylashgan sonlarning o'rta arifmetigini topish uchun =СРЗНАЧ(C3:C20) formuladan foydalanish mumkin.

*Joylashishi:* Статистические bo'limi.

3. **МАКС.** Bu funksiya sonlar va berilgan maydonda joylashgan qiymatlarning eng kattasini topish uchun qo'llaniladi.

*Umumiy ko'rinishi:* МАКС(1-qiymat;2-qiymat; ... ;n-qiymat)

- Masalan, B2:D10 maydonda joylashgan sonlarning eng kattasini topish uchun =МАКС(B2:D10) formula yozilishi lozim.

*Joylashishi:* Статистические bo'limi.

4. **МИН.** Bu funksiya sonlar va berilgan maydonda joylashgan qiymatlarning eng kichigini topish uchun qo'llaniladi.

*Umumiy ko'rinishi:* МИН(1-qiymat;2-qiymat; ... ;n-qiymat)

- Masalan, 30 soni bilan C2:C10 maydonda joylashgan sonlarning eng kichigini C11 katakda hosil qilish kerak bo'lsa, C11 katakka =МИН(30;C2:C10) formula kiritilishi lozim.

*Joylashishi:* Статистические bo'limi.

5. **ПРОИЗВЕД.** Sonlar va berilgan maydonda joylashgan qiymatlar ko'paytmasini topish uchun ishlataladi.

*Umumiy ko'rinishi:* ПРОИЗВЕД(1-qiymat;2-qiymat; ... ;n-qiymat)

- Masalan, B17 katakda B2:B15 maydonda joylashgan sonlar ko'paytmasini hosil qilish uchun B17 katakka =ПРОИЗВЕД(B2:B15) formulani kiritib, Enter tugmasini bosish yetarli.

*Joylashishi:* Математические bo'limi.

6. **ФАКТР.** Faktorialni hisoblash uchun ishlataladi.

*Umumiy ko'rinishi:* ФАКТР(qiymat)

- Masalan, C5 katakda turgan son faktorialini hisoblash uchun =ФАКТР(C5) formula yoziladi.

*Joylashishi:* Математические bo'limi.

7. **СТЕПЕНЬ.** Darajani hisoblash uchun ishlataladi.

*Umumiy ko'rinishi:* СТЕПЕНЬ(qiymat;daraja)

- Masalan, 5<sup>10</sup> ni hisoblash uchun =СТЕПЕНЬ(5;10) formula yozilishi lozim.

*Joylashishi:* Математические bo'limi.

8. **НАИБОЛЬШИЙ.** Massivning k-katta elementini topish uchun ishlataladi.

*Umumiy ko'rinishi:* НАИБОЛЬШИЙ(massiv;k)

- Masalan, A2:B6 maydonda joylashgan sonlarning 3-kattasini topish

uchun =**НАИБОЛЬШИЙ(A2:B6;3)** formula ishlataladi.

*Joylashishi:* Статистические bo'limi.

**9. НАИМЕНЬШИЙ.** Massivning k-kichik elementini topish uchun ishlataladi.

*Umumiy ko'rinishi:* **НАИМЕНЬШИЙ(massiv;k)**

Masalan, A2:D3 maydonda joylashgan sonlarning 2-kichigini topish uchun =**НАИМЕНЬШИЙ(A2:D3;2)** formula ishlataladi.

*Joylashishi:* Статистические bo'limi.

**10. МУМНОЖ.** Massivlar ko'paytmasini topadi.

*Umumiy ko'rinishi:* **МУМНОЖ(1-массив, 2-массив)**

Masalan, A1:D3 maydonda joylashgan massivga B5:C8 maydondagi massivni ko'paytirish uchun  $3 \times 2$  o'lchamli maydon belgilab olinadi va =**МУМНОЖ(A1:D3;B5:C8)** formula kiritilib, Ctrl+Shift+Enter tugmalariga birlgilikda bosiladi.

*Joylashishi:* Математические bo'limi.

**11. ЕСЛИ.** Qiymatlarni mantiqiy ifodaga ko'ra chiqarishni ta'minlaydi.

*Umumiy ko'rinishi:* **ЕСЛИ(mantiqiy ifoda;1-qiymat;2-qiymat)**

Bunda, mantiqiy ifoda bajarilsa, 1-qiymat, bajarilmasa, 2-qiymat ekraniga chiqadi.

Masalan, B2 katakka kiritilgan son 55 dan katta bo'lsa, o'tdi, 55 va undan kichik bo'lsa, o'tmadni so'zini B4 katakka chiqarish lozim bo'lsa, R4 katakka =**ЕСЛИ(B2>55; "o'tdi"; "o'tmadni")** formulasi yoziladi.

*Joylashishi:* Логические bo'limi.

**12. СЧЁТЕСЛИ.** Massivning berilgan shartni qanoatlantiradigan qiymatlari sonini topishga imkon beradi.

*Umumiy ko'rinishi:* **СЧЁТЕСЛИ(massiv;shart)**

Masalan, B2:B5 maydonda joylashgan sonlarning 55 dan kattalari sonini topish uchun =**СЧЁТЕСЛИ(B2:B5;">55")** formula kiritilishi lozim.

*Joylashishi:* Статистические bo'limi.

**13. СУММЕСЛИ.** Massivning berilgan shartni qanoatlantiradigan qiymatlari yig'indisini topishga imkon beradi.

*Umumiy ko'rinishi:* **СУММЕСЛИ(1-maydon;shart;2-maydon)**

Masalan, A2:A6 maydonda joylashgan sonlarning 55 dan kattalari yig'indisini topish uchun =**СУММЕСЛИ(A2:A6;">55")** formula kiritilishi lozim.

Masalan, biror katakka =**СУММЕСЛИ(A2:A56;"Aprel";B2:B56)** formula kiritilgan bo'lsa, A2:A56 maydondagi "Aprel" so'zlariga mos keluvchi B2:B56 maydon kataklaridagi sonlar yig'indisi hosil bo'ladi.

*Joylashishi:* Математические bo'limi.

**14. СУММПРОИЗВ.** Massivlaming mos ravishdagi qiymatlari ko'payt-malarining yig'indisini topishda ishlataladi.

*Umumiy ko'rinishi:* СУММПРОИЗВ(1-массив, 2-массив,...) Masalan, A2:B6 va D3:E7 maydonlarda joylashgan massivlarning mos ravishdagi qiymatlarining ko'paymalari yig'indisini topish uchun =СУММПРОИЗВ(A2:B6;D3:E7) formula kirulishi lozim.

*Joylashishi:* Математические функции.

Shunday standart funksiyalar ham borki, ularni funksiya ustasi yordamida yozgandan ko'ra, ularni klaviatura orqali tezroq kiritish mumkin. Quyida shunday ba'zi matematik standart funksiyalar keltirilgan:

7-jadval. Excelda matematik standart funksiyalar

Funksiya	Nomi
ABS(argument)	Absolyut qiymal
ACOS(argument)	Arkkosinus
ASIN(argument)	Arksinus
ATAN(argument)	Arktangens
COS(argument)	Kosinus
EXP(argument)	Eksponenta
LN(argument)	Natural logarifm
LOG10(argument)	O'nli logarifm
LOG(argument;asos)	Berilgan asosga ko'ra argumenti logarifmi
ПИ()	
SIN(argument)	Sinus
TAN(argument)	Tangens

Yuqoridagi funksiyalarda argument o'tniga katak adresi yoki aniq son yoziladi.

### Excelda diagrammalar qurish va ularni tahrirlash


Excelning asosiy imkoniyatlaridan yana biri diagrammalar qurishdir.

*Diagrammalar* jadval ko'rinishdagi ma'lumotlaming grafik ko'rinishdagi tasviridir. Inson ko'zi sonli ma'lumotlardan ko'ra, grafik va tasvirlarni yaxshiroq ko'ra oladi. Aslida diagramma bizga hech narsa bermaydi. Lekin sonli ma'lumotlarni tushunish va tasavvur qilishda diagrammalarning roli beqiyosdir. Shuning uchun ham odatda Excelda barcha hisob-kitob shlari hajarib bo'lingandan so'ng, boshlang'ich qiymat va natijalar asosida diagrammalar quriladi.

Har xil masalalarni yechish jarayonida turli ma'lumotlar hosil bo'ladi. Tabiiyki, bu ma'lumotlarning grafiklari ham turlicha bo'ladi. Excelda juda ko'p turdag'i diagrammalami yasash imkon mavjud. Masalan, chiziqli

*doira, gistogramma, yuza, halqa* ko'rinishdagi diagrammalar. Bir masala uchun bu diagrammalarning barchasidan foydalanish o'rini emas. Misol uchun, guruh talabalarining fanlar bo'yicha olgan ballarini yoki stipendiya miqdorlarini tasvirlash uchun diagrammalarning *chizigli* (линейчатая), *Gistogramma* turlaridan, jahon mashina bozorida davlatlarning ulushlari yoki uyali aloqa kompaniyalarining abonentlar bo'yicha ulushlarini tasvirlash uchun *doira, xalqa* turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Diagramma hosil qilish uchun odatda avvalo kerakli maydon yoki maydonlar belgilab olinadi. So'ngra **Вставка** menyusining diagrammalar bo'limiga o'tiladi (44-rasm).



44-rasm. Diagrammalar bo'limi

Bu yerda diagrammlarning bir qancha turlari mavjud. Ularning birortasi tanlanganda shu turga mos diagramma ko'rinishlari paydo bo'ladi. **Другие** bo'limi tanlanganda boshqa turdagi diagrammalar va ularning ko'rinishlari ham paydo bo'ladi. Bu ko'rinishlardan keraklisi bosilganda ishchi sohada diagramma hosil bo'ladi.

Hosil qilingan diagramma odatda ba'zi tahrirlashlarga muhtoj bo'ladi. Diagramma tanlanganda uni tahrirlovchi **Конструктор**, **Макет**, **Формат** menyuulari paydo bo'ladi.

**Конструктор** menysi: –

- Menyuning **Тип** bo'limidagi **Изменить тип диаграммы** buyrug'i tanlanganda barcha turdagi diagramma turlari paydo bo'ladi. Bu turlarning biror ko'rinishi tanlanib, **OK** buyrug'i bosiladi.
- **Тип** bo'limidagi **Сохранить как шаблон** buyrug'i yordamida hosil qilingan diagramma yangi tur sifatida saqlab qo'yilishi va keyinchalik boshqa ma'lumotlar sohasiga qo'llanilishi mumkin.
- Menyuning **Данные** bo'limidagi **Строка/столбец** buyrug'i yordamida ma'lumotlarning aniqlanish va qiymatlar sohasini almashtirish mumkin.
- **Данные** bo'limidagi **Выбрать данные** buyrug'i orqali ma'lumotlar sohasi o'zgartiriladi.
- Menyuning **Макеты** diagramm bo'limi yordamida joriy diagramma maketini o'zgartirish imkoniyati mavjud.
- Menyuning **Стили** diagramm bo'limi orqali diagramma kerakli dizaynga o'tkaziladi.

- Menyuning **Переместить диаграмму** buyrug'i yordamida diagrammani alohida varaqqa yoki mavjud ishchi varaqlarning birortasiga o'tkazish mumkin.
  - Макет** menyusi:
  - Menyuning **Подписи** bo'limidagi **Название диаграммы** buyrug'i yordamida diagrammaga sarlavha qo'yish yoki olib tashlash mumkin.
  - **Подписи** bo'limidagi **Названия осей** buyrug'i orqali diagrammaning koordinata o'qlarini nomlash yoki ularni olib tashlash imkoniyati mavjud.
  - **Подписи** bo'limidagi **Легенда** buyrug'i diagrammani tasvirlash uchun izoh joylashtirishga imkon beradi.
  - **Подписи** bo'limidagi **Подписи данных** buyrug'i yordamida bevosita diagrammada qiymatlarni aks ettirish mumkin.
  - **Подписи** bo'limidagi **Таблица данных** buyrug'i diagrammaga jadvalning o'zini ham joylashtiradi.
  - Menyuning **Оси** bo'limidagi **Оси** buyrug'i diagrammaga koordinata o'qlarini joylashtiradi yoki olib tashlaydi.
  - **Оси** bo'limidagi **Сетка** buyrug'i diagrammani tushunishni osonlash-  
tirish uchun gorizontal va vertikal ko'rinishlarda to'rlar joylashtiradi.
- Формат** menyusi yordamida diagrammadagi yozuvlar va diagramma elementlarini turli ko'rinishlarda tasvirlash ishlari bajariladi.

### **MBBT, Access dasturi, Access interfeysi**

Ma'lumki, hozirgi kunda fan-tehnika sohasining rivojlanishi, axborot texnologiyalarining rivojlanishi, umuman insoniyat faoliyatining kengayib, rivojlanib va takomillashib borishi natijasida har bir sohada katta hajmdagi axborotlar oqimi hosil bo'lmoqda. Bu esa kompyuter va axborot texnologiyalari yordamida axborotlarni yig'ish, saralash, qayta ishlash, saqlash, qulay tarzda ifodalash, uzatish ishlarini tez va aniq tarzda bajarishga mo'ljallangan ma'lumotlar bazalarini yaratishni taqozo etadi. Bunday masalalar ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari yordamida hal etiladi.

**Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT)** – bu ma'lumotlar bazasini yaratishga mo'ljallangan dasturlar tizimidir.

**Ma'lumotlar bazasi (MB)** – bu o'zaro bog'langan va tartiblangan ma'-lumotlar majmuasini kiritish, saqlab turish, kerakli parametrlar bo'yicha saralash, qidirish, foydalanuvchiga qulay tarzda chiqarib berish va uzatish ishlarini bajarishga mo'ljallangan yaxlit tizimdir.

MBBT vazifasiga ma'lumotlar bazasini boshqarishning quyidagi xususiyatlari kiradi:

- *ma'lumotlar olish*: foydalanuvchining talabiga binoan axborot va so'rov turidan qat'iy nazar unga qulay tarzda javob berish;
  - *ma'lumotlarni modifikatsiyalash*: berilgan axborotni foydalanuvchi talabiga mos holda o'zgartirish;
  - *ishonchlik darajasi*: qurilmalar ishi tasodifan to'xtatilganda ma'lumotlar bazasini qayta tiklash imkoniyati;
  - *ma'lumotlarni himoyalash*: MBdan ruxsatsiz foydalanishning cheklanganligi;
  - *MBdan tarmoqda foydalanish*: ma'lumotlardan bir vaqtida bir necha kishining bir-biriga halaqit bermasdan foydalanishi.
- MB asosan quyidagi modellar asosida tuziladi:
- **daraxtisimon (iyerarxik) modellar;**
  - **tarmoqli (to'qli) modellar;**
  - **relyatsion modellar.**

Iyerarxik modelda obyektlar shajaraviy struktura ko'rinishida joylashtiriladi. To'qli modelda esa quyi sinfdagi obyektlar ham bog'langan bo'lishi mumkin. Relyatsion modelda obyektlar ikki o'chovli jadval ko'rinishida beriladi va bu jadvallar unikal maydon orqali bog'langan bo'ladi.

MBBT samaradorligi quyidagilar bilan baholanadi:

- so'rovlarni vaqtida bajarish;
- ma'lumotlarni qidirish vaqt;
- ma'lumotlar bazasidagi obyektlarni import va eksport qilish qobiliyati;
- yangilash, qo'shish, yo'qotish kabi ko'p ishlatiladigan amallarni bajarish tezligi;
- ko'p foydalanuvchili rejimda parallel murojaat qilishning ko'pligi;
- hisobotni hosil qilish tezligi.

Umuman olganda ma'lumotlar bazasi bilan ishlovchi juda ko'p dasturlar mavjud. Hozirgi kunda *Oracle*, *SQL Server*, *MySQL*, *dBASE*, *FoxPro*, *Informix*, *Paradox*, *Microsoft Access* kabi MBBTlar keng qo'llanilmoqda. Bundan tashqari *Visual Basic*, *Delphi*, *C#*, *Java* kabi universal dasturlash muhitlarida ham ma'lumotlar bazasini yaratish va uni boshqarish uchun qulay imkoniyatlar yaratilgan.

*Microsoft Access* dasturi MB yaratishga va uni boshqarishga mo'ljallangan, relyatsion modellar asosida qurilgan MBBTdir.

Access dasturi **Пуск - Все программы - Microsoft office - Microsoft Access** menyular ketma-ketligi orqali ishga tushiriladi. Natijada dastur oynasi hosil bo'lib, dastlab xotiradagi MBni ochish yoki yangi MB yaratish kerak bo'ladi (45-rasm).



45-rasm. Access dasturi oynasi

**Файл** menyusining **Открыть** buyrug'i orqali xotiradagi ixtiyoriy MBni ochish mumkin. Bundan tashqari **Файл** menyusining **Последние** buyrug'i yordamida ochilgan ro'yxatdan yoki bevosita menyudan oxirgi ochilgan fayllardan birini tanlash ham mumkin.

Yangi MB yaratish uchun **Файл** menyusining **Создать** buyrug'i yordamida ochilgan bo'limdan **Новая база данных** bandi tanlanadi va o'ng tomonidagi paneldagi **Имя файла** darchasida fayl nomi hamda saqlanish obyekti ko'rsatilib, **Создать** buyrug'i bosiladi.

**Izoh** Access MBBTda MB yaratish jarayonidagi hosil qilingan har bir obyekti alohibda saqlab boriladi Shuning uchun yangi MB yaratishda dastlab MB nomi va saqlanish obyekti ko'rsatilishi lozim.

Natijada dastur interfeysi MB obyektlarini yaratishga tayyor holatga keladi.

Access dasturi **Файл**, **Главная**, **Создание**, **Внешние данные**, **Работа с базами данных** menyularidan iborat.

**Файл** menyusi buytuqlari quyidagilar:

**Сохранить** (Ctrl+S) – MB dagi joriy obyektni saqlash;

**Сохранить объект как** – joriy obyektni boshqa nom va obyekt ko'tinishida saqlash;

**Сохранить базу данных как** – MBni boshqa nom bilan saqlash;

**Открыть** (Ctrl+O) – xotiradagi MBni ochish;

*Закрыть базу данных – MBni yopish;*

*Сведения – joriy MB haqida to'liq ma'lumot olish hamda MBni shifflash;*

*Последние – ochilgan yoki foydalanylган oxirgi MBlar ro'yxatini ko'rish va ularni o'chish;*

*Создать – yangi MB yaratish;*

*Печать (Ctrl+P) – joriy obyektni chop etish;*

*Справка (F1) – dastur va unda ishslash bo'yicha ma'lumotlar olish;*

*Параметры – dasturda ishslash parametrlarini o'zgartirish va uskunalar panelini sozlash;*

*Выход (Alt+F4) – MBBTdan chiqish.*

Dasturing boshqa menyulari buyruqlari bevosita MB obyektlari bilan ishslashga mo'l gallanligi uchun ularni o'rni kelganda ko'rib o'tamiz.

### Accessda jadval tuzish

Ma'lumotlar bazasidagi asosiy obyekt jadval hisoblanadi. Chunki barcha ma'lumotlar jadvallarda saqlanadi. Har qanday MB kamida bitta jadvaldan tashkil topadi. Shuning uchun ham yangi MB yaratish buyrug'i bosilganda avtomatik ravishda **Таблица1** nomli bo'sh jadval hosil bo'ladi. Bunda jadvaldagi ustunlar maydon, satrlar esa yozuv deb ataladi. Har bir maydon bir xil turga mansub turli ma'lumotlardan iborat bo'ladi. Har bir yozuv esa bitta obyektga doir turli ma'lumotlardan tashkil topadi.

Maydon turlariga misollar:

- ◆ **Текстовый.** Bu turdag'i maydonga 255 tagacha simvollar kiritilishi mumkin.
  - ◆ **Поле MEMO.** Maydon odatda xarakteristik ma'lumotlarni kiritishga mo'ljallangan bo'lib, 65535 tagacha bo'lgan simvollarni qabul qila oladi.
  - ◆ **Числовой.** Sonli ma'lumotlarni kiritish;
  - ◆ **Дата/время.** Vaqt va sanani ifodalash;
  - ◆ **Денежный.** Pul formatidagi ma'lumotlarni kiritish;
  - ◆ **Счетчик.** Qatorlarni avtomatik sanash.
  - ◆ **Логический.** Mantiqiy tanlash amalini o'tnatish;
  - ◆ **Поле объекта OLE.** OLE turidagi ma'lumotlarni kiritish;
  - ◆ **Вложение.** Rasm, tasvir va ixtiyoriy fayllarni saqlash;
  - ◆ **Вычисляемый.** Ma'lumotni hisoblash natijasida hosil qilish;
  - ◆ **Гиперссылка.** Obyektiga gipermurojaat o'tnatish.
- Accessda MB obyektlari bilan ishslash uchun turli rejimlar mavjud.

Xususan, jadvallar bilan quyidagi rejimlarda ishlash mumkin:

- **Таблица** – ma'lumotlarni ko'rish va bevosita kiritishga mo'ljalangan;
- **Сводная таблица** – jadvalning kerakli qismidan hisobot jadvali tuzishga mo'ljallangan;
- **Сводная диаграмма** – jadvalning kerakli qismini diagramma ko'rinishida ifodalashga xizmat qiladi;
- **Konstruktor** – jadval maydonlari xossalarni o'zgartirish va yangi maydonlar qo'shishga mo'ljallangan.

Ochilgan jadvalni boshqa rejimga o'tkazish uchun Главная menyusining Режим buyrug'i bosiladi.

Yangi jadval Создание menyusining Таблицы bo'limidagi quyidagi usullardan biri yordamida yaratiladi:

- **Таблица** – yangi bo'sh jadval yaratish. Bunda jadval maydonlari nomlari va turlari bevosita ma'lumot kiritish yo'li bilan aniqlanadi. Buyruq bosilganda Таблица рејимида Таблица1 nomli bo'sh jadval hosil bo'ladi.



46-rasmi. Accessda Таблица рејимida jadval yaratish muhit

Jadvalning 1-ustunida Счетчик turidagi Код maydoni hosil bo'lib, avtomatik tarzda natural sonlar bilan raqamlab boriladi. Код maydoni unikal maydon hisoblanadi va *ключ maydon* deyiladi hamda jadval shu maydon orqali boshqa jadvallar bilan bog'lanadi. Yangi maydon qo'shish uchun uskunalar panelidan yoki jadvaldagi Щелкните для добавления buyrug'i bosilganda hosil bo'lgan ro'yxatdan maydon turi tanlanadi va ustun nomi kiritilib, Enter tugmasi bosiladi. Shu tariqa boshqa maydonlar ham yaratiladi. Shundan so'ng yozuvlar hosil qilinadi, ya'ni ma'lumotlar kiritiladi. Hosil bo'lgan jadval yopilayotganda jadvalga nom beriladi.

- **Конструктор таблиц** – konstruktor rejjimida jadval yaratish. Bunda maydonlar nomlari va turlari oldindan ko'rsatiladi. Buyruq bosilganda Конструктор рејимида Таблица1 nomli jadval hosil bo'ladi.




47-rasm. Accessda Конструктор рејимida jadval yaratish muhiti

Jadvalning **Имя поля** ustuniga maydonlar nomlari kiritiladi. **Тип данных** ustunidan mos ravishda maydonlar turlari tanlab boriladi. Jadvalning pastki qismidagi **Свойства поля** bo'limidan maydon xossalarini o'zgartirish mumkin. Jadvalni keyinchalik boshqa jadvallar bilan bog'lash uchun biror unikal maydonga uskunalar panelidagi **Ключевое поле** buyrug'ini bosish orqali kalit qo'yiladi. Shundan so'ng jadval yopiladi va yangi nom kiritib saqlab qo'yiladi. Agar biror maydonga kalit qo'yilmagan bo'lsa, jadval yopilayotganda dasturning o'zi avtomatik kalit maydon qo'yishiga rozilik berish lozim. Ma'lumot kiritish uchun jadval **Таблица** rejiunida qaytdan ochiladi.

➤ **Списки SharePoint** – internet tarmog'i orqali SharePoint bazasi yordamida jadval bosil qilish.

Bu usullardan tashqari ma'lumotlami import qilish yo'li bilan jadval yaratish yoki jadval yaratmasdan MBga boshqa MBdagi yoki Excel ishchi varag'idagi jadvallami bog'lab qo'yish ham mumkin. Buning uchun **Внешние данные** menyusi ochiladi (48-rasm).




48-rasm. Внешние данные менюсининг Импорт и связи bo'limi

Bu holda **Импорт и связи** bo'limida Excel, Access va boshqa import qilish va bog'lash mumkin bo'lgan dasturlar ro'yxati hosil bo'ladi.

Masalan, Excel ishchi varag'iga murojaat qilish uchun menu bo'limidagi **Excel** buyrug'i bosiladi. Hosil bo'lgan **Внешние данные** – Excel oynasining (49-rasm) **Имя файла** darchasida **Обзор** buyrug'i

orgali Excelda tayyorlangan fayl manzili va nomi ko'rsatiladi. Shuningdek, oynadagi quyidagi usullardan biri tanlanib, OK buyrug'i bosiladi:

- **Импортировать данные источника в новую таблицу в текущей базе данных – ma'lumotlarni joriy MB yangi jadvaliga import qilish.** Hosil bo'Igan navbatdagi oynalardan maydonlar nomi va turini o'zgartirish, kalit maydon aniqlash, jadvalni nomlash ishlari bajarilib, Готово tugmasi bosiladi. Agar import jarayonida xatoliklar aniqlansa, bu haqda xabar paydo bo'ladi va ular alohida jadvalda ko'rsatiladi;
- **Добавить копию записей в конец таблицы – ma'lumotlarni ko'rsatilgan jadval oxiriga qo'shish.** Bunda OK tugmasini bosishdan oldin buytuq yonidagi darchadan joriy MB jadvalini tanlab olish lozim. Shuningdek, import qilinayotgan va joriy jadval maydonlari soni, nomi va turi mos kelishi zarur.
- **Создать связанную таблицу для связи с источником данных – boshqa manbadagi jadvalga bog'liq bo'Igan jadval yaratish.** Bu holda tashqi jadval o'zgartirilganda avtomatik ravishda joriy MBdagi jadval ham o'zgaradi. Ammo MBdagi bog'liq jadvalni o'zgartirib bo'lmaydi.



49-tasm. Внешние данные – Excel оynasi

Import qilingan jadvallarning ustun turlari va parametrlarini ixtiyoriy vaqtida o'zgartirish va ma'lumotlarini tahrirlash mumkin.

MBdagi qator bo'yicha bog'liq jadvallarni ulaming kalit maydonlari

yordamida bir-biriga bog'lab qo'yish lozim. Buning uchun Работа с базами данных menyusining Схема данных buyrug'i bosiladi. Hosiб bo'lgan Конструктор menyusining Отобразить таблицу buyrug'i orqali ochilgan oynadan kerakli jadvallar Добавить ҳуятуг'i yordamida tashlab olinadi. Jadvallarning kalit maydonlari sichqonchani surish yo'li bilan bog'lanadi (50-rasm).



50-rasm. Схема данных oynasi

### Access da forma yaratish

MBga ma'lumotlarni kiritish, o'zgartirish, ularni ko'rish, so'rovlar tashkil qilish va umuman MB interfeysi yaratish maqsadida foydalanuvchilarga qulay bo'lgan elektron shablonlar tuziladi. Bunday shablonlar **formalar** deb ataladi. Formalar ma'lumotlar manbalari, masalan jadvallar yoki so'rovlar bilan bevosita bog'langan bo'ladi.

Accessda formalar bilan quyidagi rejimlarda ishlash mumkin:

- **Форма.** Formaning foydalanish uchun mo'ljalangan ishchi ko'rinishi;
- **Макет.** Formani sozlashning umumiyo ko'rinishi bo'lib, bunda ma'lumotlar real aks etib turadi. Bu esa forma elementlarini ma'lumotlarga moslashtirgan holda sozlash imkonini beradi;
- **Konstruktor.** Formani sozlashning batafsil ko'rinishi bo'lib, forma va undagi elementlar ko'rinishi va xossalari ixtiyoriy tarzda o'zgartirish, yangi elementlar joylashtirish va boshqa **Макет** rejimida mumkin bo'lмаган o'zgartirishlarni amalga oshirishga imkon beradi.

Ochilgan formani boshqa rejimga o'tkazish uchun Главная menyusining Режим buyrug'i bosiladi va yuqoridagilardan biri tanlanadi.

Odatda formalar turli maqsadlarda tuziladi. Kerakli formani yaratish uchun Создание menyusining **Формы** bo'limidagi quyidagi buyruqlardan biri tanlanadi:

- **Форма.** Jadval yoki so'rov ma'lumotlari bilan ishlovchi formalar yaratishga mo'ljalangan bo'lib, kerakli manba tanlangandagina buyruq aktivlashadi. Buyruq bosilganda **Макет** rejimida tanlangan manbaning barcha ma'lumotlari aks etgan forma hosiб bo'ladi. Yaratilgan formadan **Форма** rejimida to'g'ridan-to'g'ri foydalanish yoki zaruriyat

- bo'lsa, uni **Макет** yoki **Конструктор** rejimida o'zgartirish mumkin.
- Конструктор форм.** Formani to'liq mustaqil yaratishga mo'ljallangan bo'lib, buyuq bosilganda **Конструктор** rejimida boshqa obyektlar bilan bog'lamagan bo'sh forma hosil bo'ladi. Unga kerakli komponentlarni mustaqil ravishda joylashtirish, formani manba bilan bog'lash va boshqa forma bilan bog'liq ixtiyoriy amallarni bajarish mumkin.
- Пустая форма.** Bunda ham yuqoridagi kabi formani mustaqil ravishda yaratish mumkin. Buyruq bosilganda **Макет** rejimida bo'sh forma hosil bo'ladi. Shuningdek, o'ng tomonda **Список полей** paneli paydo bo'lib, undagi jadvallardan kerakli maydonlarni formaga joylashtirish imkoniyati mavjud.
- Мастер форм.** Master yordamida jadval va so'rovlar asosida forma yaratish. Bu usul tanlanganda oyna hosil bo'lib, undagi **Таблицы и запросы** darchasidan jadval yoki so'rov tanlab olinadi (51-rasm).



51-rasm. Мастер форм супаси

Darchaning pastki qismidagi **Доступные поля** sohasidan kerakli maydonlar strelkalar yordamida **Выбранные поля** maydoniga o'tkaziladi. Bunda bog'langan bir nechta jadval yoki so'rovlar maydonlaridan foydalanish mumkin. Далее tugmasi bosilganda hosil bo'lgan oynada quyidagi strukturalar taklif etiladi:

- в один столбец** – jadvalning bitta qatoridagi ma'lumotlar ustun bo'ylab ketma-ket joylashgan maydonlarda hosil bo'ladi;
- ленточный** – barcha ma'lumotlar ustun ko'rinishda ketma-ket joylashadi;
- табличный** – barcha ma'lumotlar odatdagji ikki o'lchovli jadval ko'rinishida joylashadi;
- выровненный** – maydonlarning ko'rinishi va turiga qarab tartiblashtirilgan forma tuzish.

Kerakli struktura tanlanib, Далее тумаси босилди. Navbatdagi oynada formaga nom kiritilib, Готово тумаси босилди.

Yaratilgan forma Конструктор yoki Макет rejimiga o'tkazilganda formani sozlashga mo'ljallangan Конструктор, Упорядочить, Формат nomli qo'shimcha menyular hosil bo'ldi.

Конструктор menyusidagi ba'zi komponentlar va ulaming vazifalarini:

- **Поле (maydon - )** – jadval qiymatlarini aks ettirish;
- **Надпись (yozuv - **) – ma'lumot yozish;
- **Кнопка (tugma - **) – buyruqqa gipermurojaat o'rnatish;
- **Поле с списком (ro'yxatli maydon - **) – ma'lumotni ro'yxatdan tanlash;

- **Рисунок (rasm - **) – fayldagi rasmni joylashtirish;


Barcha komponentlar quyidagi turlardan biriga tegishli bo'ldi:

- **bog'langan komponentlar** – MB manbasidagi ma'lumotlarni aks ettirishga yoki manbaga ma'lumotlar kiritishbga xizmat qiladi;
- **erkin komponentlar** – MB interfeysini hosil qilish, kerakli ma'lumotlarni ekranda aks ettirishda ishlataladi;
- **hisoblanuvchi komponentlar** – ma'lumotlari hisoblash natijasida hosil bo'ladigan komponentlar tushuniladi.

Конструктор menyusi buyruqlari:

- Эмблема – formaga emblema qo'yish;
- Заголовок – formaga sarlavha qo'yish;
- Дата и время – joriy sana va vaqtini ifodalash;
- Добавить поля – jadvaldag'i mavjud maydonni joylashtirish;
- Формат menyusi buyruqlari:
- **Фоновый рисунок** – fon sifatida rasm joylashtirish;
- **Заливка фигуры** – komponent font uchun rang tanlash;

Forma va uning barcha elementlari xossalari maxsus *Xossalar oynasi*da (Окно свойств) aniqlab boriladi. Formadagi ixtiyoriy obyekt **Макет** yoki **Конструктор** rejimida tanlanib, **Конструктор** menyusining **Страница свойств** buyrug'i (F4) bosilganda obyektning to'liq xossalari, masalan, nomi, qiymati, joylashish holati, bajaradigan vazifasi kabilar aks etgan *Xossalar oynasi* hosil bo'ldi (52-rasm). Oynada joriy komponentning ixtiyotiy xossasini o'zgartirish mumkin.



52-rasm. Xossalalar oynasi

Jadval kabi formalarni ham boshqa MBlardan import qilib olish yoki eksport qilish mumkin.


### Accessda so‘rov tuzish

*So‘rovlarning ma'lumotlari bazasidagi ma'lumotlarni ko'rish, ma'lumotlarni qo'shish, o'zgartirish va o'chirishda katta qulayliklar yaratadi. So‘rovlarning shuningdek, ma'lumotlarni filtrlashda, hisoblash jarayonlarini amalga oshirishda, hisobotlar tashkil qilishda hamda ma'lumotlarni boshqarish ishlarini avtomatlashtirishda keng foydalaniлади.*

So‘rovlarning ba'zi turlarini ko'rib chiqarmiz.

- **Tanlangan maydonlarni chiqarish.** Ba'zan jadval yoki bog'langan jadvallarning kerakli maydonlarini gina ko'rishiga to'g'ri keladi. Bunday so‘rovni yaratish uchun **Создание** menusining **Запросы** bo'limidagi **Конструктор запросов** buyrug'i bosiladi. Hosil bo'lgan oy-nadan kerakli jadvallar **Добавить** buyrug'i yordamida so‘rov oynasiga tashlanadi. Jadvallardagi kerakli maydonlar sichqoncha chap tugmasini ikki marta bosish orqali **Поле** maydoniga joylashtiriladi (53-rasm).

**Сортировка** bo'limidan maydonlarni o'sish yoki kamayish tartibida chiqarish, **Выход на экран** bo'limidan maydonlarning ekranga chiqish yoki chiqmaslik sharti tanlanadi. **Конструктор** yordamchi menusining **Выполнить** buyrug'i yordamida so‘rovni ishlatiб ko'rish mumkin. Tayyorlangan so‘rov oynasini yopib unga nom beriladi.



53-rasm. So'rov oynasi

- **Tanlangan maydonlarni shartlarga ko'ra chiqarish.** Ba'zi hollarda jadvalarning kerakli maydonlaridagi barcha qator ma'lumotlari emas, balki shartni qanoatlantiradiganlari kerak bo'ladi. Bu kabi so'rov ham yuqoridagidek yaratiladi. Ammo hunda maydonlarning **Условие отбора** darchasiga kerakli shartlar yoziladi. Masalan, *tug'ilgan sanasi* maydoni shartiga Like [*Tug'ilgan sanasi:*] protsedurasi kiritilsa, so'rov ishga tushirilganda darcha hosil bo'ladi (54-rasm).



54-rasm. So'rov darchasi

Bunda kerakli sana kiritilib, OK tugmasi bosiladi. Natijada kiritilgan sanada tug'ilganlar ma'lumotlari hosil bo'ladi. Darchada masalan, \* begisi kiritilsa, barcha qotorlar, 02\* kiritilsa, 02 bilan bosblangan sana, \*7 kiritilsa, 7 raqami bilan tugagan sana, \*5\* kiritilsa, 5 raqami qatnashgan sanada tug'ilganlar ma'lumotlari hosil bo'ladi.

- So'rovlarning so'rovnoma orgali taqdim etilishi foydalanuvchilarga juda qulaydir. So'rovnoma yaratishni bir misol yordamida ko'rib chiqamiz. So'rovlardan tashkil qilish uchun avvalo so'rovnoma tuziladi. Buning uchun konstruktur rejimida forma yaratamiz va unga izlanadigan ma'lumotlar turlari uchun maydonlar va yozuvlar joylashtirib chiqamiz. Maydonlarning yozuvlariga maydon nomlarini, yozuvlarga yulduzcha (\*) belgisini kiritib chiqamiz (55-rasm).

Матиматларни о'ниси	
Им:	Свободный
Familyasi:	Свободный
Статус:	Свободный
Тип жадига:	Свободный
Личность:	Свободный
Телефон номера:	Свободный

55-rasm. Izlash forması loyihasi

Yozuvlar maydonlardagi qiymatlarni qabul qiladi va so'rovda maydonlar qiymati o'mida ishlataladi. Yozuvlardagi yulduzchalar forma rejimida ko'rinnmasligi uchun yozuvlarning xossalari oynasidan **Выход на экран** darchasidagi qiymatlar **Нет** qiymatga aylantirib chiqiladi.

Biror maydon ustida sichqoncha o'ng tugmasini bosib, hosil bo'lgan kontekst menyudan **Обработка событий** buyrug'i bosiladi. Hosil bo'lgan oynadan **Программы** bandi tanlanib, **OK** tugmasi bosiladi. Natijada Access ning **Visual Basic** dasturlash muhitini ochiladi.

Bu yerda **Поле** maydoni uchun avtomatik yozilgan bo'sh protsedurani o'zgartiramiz. Avvalo **Поле** uchun hodisa darchasidan **change** hodisasini tanlaymiz.

Protseduraga quyidagi dasturni kiritamiz:

```
Private Sub Поле0_Change()
Надпись13.Caption = Поле0.Text
If Надпись13.Caption = "" Then Надпись13.Caption = " "
End Sub
```

Bunda protseduraning dastlabki qatorida izlash formasida **Поле0** yoniga joylashtirilgan **Надпись13** yozuviga **Поле0** maydonidagi ma'lumot o'zlashtirilmoqda. Keyingi qatorda agar **Надпись13** bo'sh qiymat qabul qilgan bo'lsa, fil'trlash olib tashlanadi. Bu protsedurani boshqa maydon va yozuvlar uchun ham yozib chiqamiz va **Visual Basic** oynasini hamda izlash formasini yopamiz.

**Создание** menusining **Запросы** bo'limidagi **Конструктор запросов** buyrug'ini bosamiz. Hosil bo'lgan oynadan kerakli jadvallarni **Добавить** buyrug'i yordamida so'rov oynasiga tashlaymiz.

Jadvallardagi kerakli maydonlarni sichqoncha chap tugmasini ikki marta bosish orqali **Поле** maydoniga joylashtiramiz va so'rov tuzilayotgan maydonlarning **Условие отбора** darchasiga kerakli shartlarni yozib chiqamiz. Masalan, Ismi maydoni uchun: Like[forms]!|Izlash|![Надпись13].

[Caption]+\*\* Or Like[forms]![Izlash]![Надпись 13].[Caption]+\*\*.

So'rov oynasini yopib, izlash formasini ochamiz. Konstruktor rejimiga o'tib, formaga bitta tugma joylashtiramiz. Avtomatik ochilgan oynadan Разное – Выполнить запрос bandini tanlab, Далее tugmasini bosamiz. Ochilgan navbatdagi oynalardan yaratilgan so'rov, tugmaga yozuv, nom tanlanib, Готово tugmasi bosiladi.

Izlash formasini boshqa formalar bilan bog'lash uchun tugmalar tashlanib gipermurojaatlar qo'yiladi. Shu bilan so'rovnomada tayyor bo'ladi va ma'lumotlarni kerakli parametrlar bo'yicha qidirish mumkin (56-rasm).




56-rasm. Izlash formasi

### Accessda ma'lumotlarni izlash, saralash, filtrlash

MBda ma'lumotlar odatda juda ko'r bo'lganligi uchun kerakli ma'lumotlarni qidirish, saralash, biror parametr bo'yicha filtrlash ishlarini bajarishga to'g'ri keladi.

➤ **Ma'lumotlarni izlash.** Buning uchun Главная menyusining Найти buytug'i bosiladi. Natijada Понек и замена оynasining Понек paneli ochiladi (57-rasm).



57-rasm. Ma'lumotlarni qidirish oynasi

Bunda panelning **Образец** darchasiga izlanayotgan ma'lumot yoziladi. **Поиск в** darchasidan qidiruv obyekti uchun joriy maydon (Текущее поле) yoki *to'liq* obyekt (Текущий документ) tanlanadi. **Совпадение** darchasidan qidirilayotgan ma'lumot uchun *ixtiyoriy qismiga mos* (С любой части поля), *to'liq mos* (Поля целиком), *boshlang'ich qismi mos* (С начала поля) turlaridan biri tanlanadi. Просмотр darchasidan barcha qatorlar bo'yicha (Все), oldingi qatorlardan (Вверх), keyingi qatorlardan (Вниз) izlash kerakligi ko'rsatilib, **Найти** Далее tugmasi bosiladi.

- **Ma'lumotlarni saralash.** Главная менюсining **Сортировка и фильтр** bo'limidagi **По возрастанию** buyrug'i bosilganda joriy maydon ma'lumotlari o'sish tartibida (alifbo asosida) joylashadi. Boshqa maydonlar ma'lumotlari ham mos ravishda o'zgaradi. **По убыванию** buyrug'i ma'lumotlarni kamayish tartibida joylashtiradi. Удалить сортировку buyrug'i saralashni bekor qiladi.
- **Ma'lumotlarni filrlash.** Главная менюсining **Сортировка и фильтр** bo'limidagi **Фильтр** buyrug'i yoki maydon sarlavhasi o'ng qismidagi lug' ma bosilganda joriy maydon turiga mos buyruq hosil bo'ladi. Bunda sonlar (Числовые фильтры), matnlar (Текстовые фильтры), sana (Фильтры дат) yoki boshqa turlar bo'yicha filrlash buyruqlari foydalanuv-chilarga ma'lumotlami filrlashning barcha imkoniyatlarini yaratadi.

### Accessda hisobot tayyorlash


Ma'lumotlar bazasidagi jadval yoki so'rov ma'lumotlarini foydalanuv-chilarga tushunarli tarzda yetkazib berish yoki chop etish uchun maxsus hisobotlar yaratiladi.

**Hisobot** – bu natijalar aks e'tgan qog'ozli hujjatdir.

Hisobot yaratish uchun **Создание** menyusining **Отчеты** bo'limidagi quyidagi buyruqlardan biri tanlanadi:

**Отчет.** Obyektlar panelidan biror jadval yoki so'rov tanlanib, **Отчет** buyrug'i tanlanganda mos ravishda jadvaldagi barcha ma'lumotlar yoki so'rov bo'yicha ma'lumotlar avtomatik ravishda hisobot varaqlari ko'rinishida joylashadi. Hisobot yopilganda unga nom beriladi.

**Мастер отчетов.** Bu usulda hisobotning ko'pgina parametrlarini tanlashga imkoniyat bo'ladi. Buyruq bosilganda bir nech bosqichli hisobot yaratish paneli paydo bo'ladi (58-rasm).



58-rasm. Hisobot yaratish oynasi

Panelning **Таблицы и запросы** bo'limidan kerakli jadval yoki so'rov tanlanib, Доступные поля darchasidan kerakli maydonlar strelka yordamida Выбранные поля darchasiga o'tkaziladi (bunda bog'langan bir nechta jadvallardan kerakli maydonlarni tanlab olish ham mumkin). Далее tugmasi bosilganda bosil bo'lgan navbatdagi oynalardan yozuvlarni saralash parametri, hisobot mакeti, varaq shakli (kitob yoki albom shaklida) tanlanib, hisobotga nom kiritiladi va **Готово** tugmasi bosiladi.

Bundan tashqari **Конструктор отчетов** yoki **Пустой отчет** buyruqlari orqali hisobotlarni mustaqil yaratish ham mumkin.

Yaratilgan hisobotlarga konstruktor yoki mакet rejimida turli o'zgartirishlar kiritish mumkin.

### Kompyuter tarmoqlari, Internet

Kompyuterlar o'tasida ma'lumot almashish imkonini beruvchi tizim **kompyuter tarmoqlari** deyiladi. Bunda tizim deganda tarmoqni boshqaruvchi tashkilotlar, kompyuterlar, ulanish simlari, portlari, boshqa kerakli qurilmalar, dasturiy tizimlar majmuasi tushuniladi.

Kompyuter tarmoqlarining yaratilishi juda katta imkoniyatlar eshigini ochdi: axborotlar oqimini keskin tezlashtirdi, dunyoning istalgan nuqtasi bilan o'ta tezkor, arzon, qulay ravishda ma'lumotlar almashish imkonini berdi. Doimiy ravishda kerakli xabarlar istalgan joyga yetib bormoqda. Kompyuterlarning qimmat resurslaridan, masalan printer, plotter, modem kabi qurilmalardan birgalikda foydalanish, kataloglar, fayllar va dasturiy tizimlarni bir vaqtida yoki istalgan vaqtida birgalikda ishlatalish, boshqarish imkoniyatlari paydo bo'ldi.

Tarmoqlar mablag' larning, vaqtning, isbchi kuchlarning minimal tejalishiga olib kelmoqda.

Hozirgi kunda tarmoqlar orqali juda ko'p servis xizmatlari yo'lga qo'yilmoqda. Tarmoqlar shu qadar keng qo'llanilmoqdaki, ularning yo'qligini hattoki tasavvur etish mumkin bo'lmay qoldi.

Kompyuter tarmoqlari lokal va global tarmoqlarga bo'linadi.

Biror institut, korxona, tashkilot, kompaniya ichida mavjud kompyuterlar o'tasida ma'lumot almashish imkonini beruvchi tizim *lokal tarmoq* deyiladi. Lokal tarmoq yaratishdan asosiy maqsad ofis ishlarini avtomatlashtirish, korxona boshqaruv sistemalarini, loyihibar, texnologik jarayonlar, bank va axborot sistemalarini boshqarish, kompyuter resurslaridan birgalikda foydalanish, ma'lumot almashish va boshqalar hisoblanadi.

*Global kompyuter tarmog'i* deb, ma'lum bir qit'a yoki dunyo miqyosidagi kompyuterlar o'tasida ma'lumot almashish imkonini beruvchi tizimga aytildi.

Hozirgi kungacha dunyo bo'yicha ko'plab global kompyuter tarmoqlari yaratilgan. Ularning ba'zilari quyidagilar:

ARPANET (Advanced research projects agency network) (1969 yilda yaratilgan) – AQShning mudofaa vazirligi tomonidan tashkil qilingan eng mashhur eski tarmoqlardan biri.

BITNET (Because it's time network) (1981 yil) – Shimoliy Amerika va Yevropa qit'asi mamlakatlarini birlashtiruvchi tarmoq.

CSNET (Computer and science network) (1981 yil) – kompyuter va fan tarmog'i bo'lib, butun dunyo bo'yicha amal qiladi.

EARN (European academic research network) – Yevropa ilmiy tadqiqot muassasalarini o'tasidagi aloqani ta'minlovchi tarmoq.

EUNET (Europe union network) – Yevropa kompyuterlar tarmog'i uyushmasi.

USENET (United states education network) (1979 yil) – AQShning barcha oliy ta'lim muassasalarini birlashtiruvchi tarmoq.

NSFNET – (National science foundation network) – AQShning milliy ilmiy fondi tarmog'i bo'lib, AQShdagi mingdan ortiq ilmiy-tadqiqot institutlarini, korporatsiya va hukumat idoralarini birlashtiradi. Dunyodagi eng yirik superkompyuterga ulangan bo'lib, murakkab masalalarni yechishda undan foydalanish imkonini beradi.

INTERNET (International network) – xalqaro kompyuter tarmog'i bo'lib, butun dunyo kompyuterlari o'tasida ma'lumot almashish imkonini beradi.

INTERNET tarmog'i ARPANET tarmog'i rivojlantirilib, unga CSNET, NSFNET kabi ko'plab tarmoqlar birlashtirilishi natijasida

vujudga kelgan.

Internet dunyodagi eng katta va keng qamrovli global kompyuter tarmog'i bo'lib, 200 dan ortiq mamlakatlarga kirib borgan. 150 dan ko'proq mamlakatlarda keng miqyosda ishlataladi va 150 milliondan ortiq abonentlarga ega.

Internet tarmog'ining asosiy yacheyskalari bu kompyuterlar va ularni bog'lovchi lokal tarmoqlardir.

Internet texnik, dasturiy ta'minot va *informatsion* qismlardan tashkil topgan.

*Internetning texnik qismi* kompyuterlar, ularish simlari, telefon tarmog'i, modem, Switch, Hub kabi qurilmalar majmuasidan tashkil topgan bo'lib, ulardan ixtiyorisiining vaqtinchalik ishdan chiqishi internet tarmog'ining umumiy faoliyatiga aslo ta'sir etmaydi.

*Internetning dasturiy ta'minoti* tarmoqqa ulangan turli kompyuterlar va tarmoq vositalarini bir-biriga mantiqiy bog'lash, ma'lumotlarni ma'lum bir standart ko'rinishda foydalanuvchilarga yetkazib berish, axborotlarni qidirish, ularni saqlab turish, tarmoqda axborot xavfsizligini ta'minlash vazifalarini bajaradi.

*Internetning informatsion qismi* tarmoqqa joylashtirilgan turli matnli, sonli, grafik, rasm, audio, video va boshqa ko'rinishidagi ma'lumotlardir.

Kompyuterni internetga ulash uchun telefon liniyasi, ichki yoki tashqi modem, qaydnomalar dastur ta'minoti bo'lishi lozim va yaqinroq bo'lgan provayderlarga murojaat qilinadi.

Provayderlar bu kompyuterlarning internet tarmog'i bilan aloqasini ta'minlovchi va ularga turli internet xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlardir. Hozirda **Uzpak**, **Sarkor**, **Uznet**, **Boston** provayderlari keng turdag'i internet xizmatlarini ko'rsatmoqda.

Internet tarmog'iga tashkilot yoki muassasalar kompyuterlarini ulash uchun qo'shimcha ravishda koaksiyal yoki optik totali simlar, xab (Hub), modem va Svich (Switch) qurilmalari, qo'shimcha dasturiy tizimlar kerak bo'ladi.

## Internet xizmatlari, Internet protokollari

Hozirgi kunda Internet tarmog'ida inson faoliyatining ixtiyoriy sohasiga oid deyarli barcha ma'lumotlarni topish mumkin. Borgan sari internetning axborot va xizmat ko'lami ortib bormoqda. Bu yerda har bir sohaga oid oddiy ma'lumotlardan tortib, fan, texnika, madaniyat, sport, san'at, adabiyot va boshqa juda ko'p sohalarga oid qimmatli ma'lumotlarni olish mumkin. Internet tarmog'i daslab ma'lumotlarni uzatish, qabul qilish va

lardagi kitoblar elektron shaklda ham mavjud va bu kutubxonalar internet tarmog'iga ulangan. Elektron kutubxonalar haqida [www.vlibrary.freenet.uz](http://www.vlibrary.freenet.uz) sahifasidan ma'lumot olish mumkin. Hozirgi kunda elektron kutubxonalar son-sanoqsiz. Oliy ta'llim muassasalari, litsey, kollej va maktablar, ilmiytadqiqot muassasalari, ba'zi tashkilotlar ham o'zlarining elektron kutubxonalariga ega.

Ba'zi elektron kutubxonalar:

[www.lcweb.loc.gov](http://www.lcweb.loc.gov) – Kongress kutubxonasining elektron ko'rinishi bo'lib, dunyoning eng yirik virtual kutubxonalaridan biridir. Kongress kutubxonasida turli sohaga doir 115 milliondan ortiq kitob va hujjalarni saqlanadi.

[www.vlib.org](http://www.vlib.org) – Virtual kutubxonasi iqtisod, biznes, fan-teknika, ilmiy va boshqa sohalardagi kitoblar bilan to'ldirilgan eng katta kutubxonalardan biri.

[www.zivonet.uz](http://www.zivonet.uz) – O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlari, akademik litsey, kollej talabalari va muktab o'quvchilari uchun xizmat qiluvchi markazlashturilgan eng katta elektron kutubxonalardan biri.

[www.uch2.tashiit.uz](http://www.uch2.tashiit.uz) – ToshTYMI elektron kutubxona tizimi manzili.

Internetning ba'zi tushunchalari:

*Router* – internetda ma'lumotlar oqimini qulay va yaqin yo'l bilan manzilga yetkazishni ta'minlovchi dasturlar majmuasidir.

*Trafik* – intenetdag'i ma'lumotlar oqimining hajmi.

*Proxy serverlar* – internetda ko'pbilik murojaat qiladigan serverlar ma'lumotlari nusxalari saqlanadigan qo'shimcha serverlar.

*Brauzerlar* (browsers) – HTML tilida tayyorlangan Web sahifalarni foydalanuvchiga tushunarli ko'rinishda tasvirlab berish uchun yaratilgan maxsus dasturlar. Bunday dasturlar qatoriga Internet Explorer, Netscape Navigator, Opera, Safari, Firefox brauzerlarini kiritish mumkin.

*URL* (Uniform resource locator) – internet sahifalari elektron manzili va unga kirish usulining to'liq nomi. Masalan, TTYMI web-sayti *URL* adresi quyidagicha: <http://www.tashiit.uz>. Bunda: <http://www> – URL texnologiyasi, tashiit – tashkilot nomi, uz – domen nomi.

Elektron manzillarning domenlariga misollar:

*edu* (education) – ta'llim muassasalari;

*com* (commercial) – tijorat muassasalari;

*org* (organization) – tashkilotlar;

*gov* (government) – hukumat muassasalari;

*net* (network) – telekommunikatsion muassasalar;

*int* (international) – xalqaro muassasalar;

Geografik joylashuvlar bo'yicha domenlar:

uz – O'zbekiston;

us – AQSh;

ru – Rossiya;

uk – Buyuk Britaniya;

ca – Kanada;

de - Germaniya.

*Internet qaydnomalari (protokollari).*

TCP/IP (Transmission control protocol/Internet protocol) – internet tarmog'ida uzatish qaydnomalari majmuasining nomi. TCP/IP tarmoqning dasturlar qismi bo'lib, undagi har bir qism aniq bir vazifani bajaradi.

TCP/IP tarkibiga kiruvchi ba'zi bir qaydnomalar:

TCP – ma'lumotlar uzatilishini qo'llab-quvvatlovchi qaydnomasi;

IP – ma'lumotlar almashinuvini ta'minlaydi.

RIP (Routing information protocol) – ma'lumotlarni kerakli manzilga yetkazish uchun eng maqbul yo'lni tanlovchi qaydnomasi;

ARP (Address resolution protocol) – tarmoqdagi kompyuterning sonli manzilini aniqlaydi.

DNS (Domain name system) – tarmoqdagi kompyuterning domen manzilini aniqlaydi.

FTP (File transfer protocol) – fayllar uzatilishini ta'minlaydi.

NFS (Network information service) – lokal tarmoqlarda mavjud bo'lgan katalog va fayllardan foydalanishni ta'minlaydi.

SMTP (Simple mail transfer protocol) va POP (Post Office Protocol) – elektron pochta ma'lumotlarining uzatilishini ta'minlovchi qaydnomalar.

### **Internet Explorer brauzeri, elektron pochta**

Internet Explorer 1995 yildan ishlab chiqarila boshlangan bo'lib, dunyodagi ko'pchilik abonentlar mazkur brauzerdan foydalanishadi. Odatda u *Пуск-Bce программы-Internet Explorer* menyular ketma-ketligi orqali ishga tushiriladi.

Natijada Internet Explorer brauzeri oynasi hosil bo'ladi va bunda uy sahifasi ham avtomatik yuklanadi (59-rasm).



#### 59.-rasm. Internet Explorer brauzeri oynasi

Internet Explorer brauzerining ba'zi buyruqlari quyidagilar:

## **Файл menyusi:**

**Новое окно (Ctrl+N) – новое окошко открыть:**

**Открыть(Ctrl+O) – kerakli saytni ochish:**

**Сохранить(Ctrl+S)** – joriy sahifasini saqlash.

Печать(Ctrl+P) – йорік сабіғасынің chop qilish-

Правка тексту:

**Копировать(Ctrl+S) – sahifaning belgilangan qismpidan nusxa olish:**

**Выделить все(Ctrl+A)** – sahifani to ‘lig belgilash:

**Hañtu(Ctrl+F)** – sahifadan kerakli ma'lumotni qidirish:

#### *Bud menyusii*

**Панели обозревателя** → **Избранное** (Ctrl+Shift+I) – tanlangan sahifalarni ko'rish;

**Панели обозревателя** → **Журнал** (**Ctrl+Shift+H**) – hafta davomida va undan oldingi ochilgan barcha sahifalar va fayllar ro'yxatini ko'rish va ularni ochish;

**Переход→Назад**(Alt+←) – oldingi ochilgan sahifaga o'tish;

**Переход→Вперед**(Alt+→) – keyingi ochilgan sahifaga o'tish;

**Переход→Домашняя страница (Alt+Home) – uy sahifasiga o'tish;**

**Остановить (Esc) – qidiruvni to‘xtatish;**

**Обновить (F5) – qidiruvni yangilash;**

**Источник** – sahifaning HTML tilidagi kodini ko‘rish;

## *Сервис menyusi:*

Удалить журнал обозревателя – jurnalidan keraksiz fayl va sahfalarini o'chirish;

**Свойства обозревателя** – uy sahifasini o'matish, internetga ulanish, brauzering ishslash parametrlarini o'zgartirish kabi ko'plab ishlarni.

bajarish mumkin.

Odatda Internet Explorer brauzeri ishga tushirilganda qidiruv tizimlaridan biri ham avtomatik yuklanadi. Hozirgi kunda juda ko'p qidiruv tizimlari mavjud. Masalan, rus tilida muloqot qila oladigan abonentlar uchun [www.rambler.ru](http://www.rambler.ru), [www.mail.ru](http://www.mail.ru), [www.vandex.ru](http://www.vandex.ru), [www.google.ru](http://www.google.ru), [www.anort.ru](http://www.anort.ru), ingliz tilida muloqot qila oladigan abonentlar uchun [www.yahoo.com](http://www.yahoo.com), [www.altavista.com](http://www.altavista.com), [www.hotbot.com](http://www.hotbot.com), [www.britanisa.com](http://www.britanisa.com), o'zbek tilida muloqot qila oladigan abonentlar uchun [www.google.uz](http://www.google.uz) qidiruv tizimlari xizmat ko'rsatadi. Bu tizimlarning har biri qulay interfeyslarga ega bo'lib, ma'lumotlarni qidirishning turli usullarini taklif etadi. Ko'pgina qidiruv tizimlari ma'lumotlarni qidirishdan tashqari boshqa saytlarga kirish, ihtiyyoriy sohadagi Web-sahifalarni ochish, elektron pochta bilan ishlash kabi ko'plab qulayliklarni yaratadi.

Elektron pochta (E-mail) – internet tarmog'ining asosiy xizmat turalaridan biri bo'lib, ma'lumotlarni masofadan turib elektron ko'rinishda uzatish usulidir. Hozirgi kunda 120 milliondan ortiq elektron pochta abonentlari mavjud. Elektron pochta oddiy pochta tizimining avtomatlash-tirilgan ko'rinishidir. Uning oddiy pochtaga nisbatan o'ta tezkor ekanligi asosiy ahamiyatga ega. Bundan tashqari oddiy pochtada ishlaydigan ko'plab kishilarning ishini elektron pochtadagi bir necha kishi boshqarib turishi hisobiga kattagina ishchi kuchlari va mablag'lar tejab qolinmoqda. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, elektron pochta oddiy pochta tizimining yo'qolib ketishiga olib kelmaydi. Elektron pochtaning oddiy pochtadan yana bir farqli jihatni shuki, bunda nafaqat matnli ma'lumotlarni, balki ixtiyoriy ko'rinishdagи OLE turidagi va kalta hajmdagi axborotlarni jo'natish imkoniyati ham mavjud.

Elektron pochta bilan ishlaydigan ko'plab dasturlar mavjud. *MS Exchange*, *MS Mail*, *MS Outlook Express* dasturlari shular jumlasidandir. Bu dasturlar elektron pochta bilan ishlash uchun juda qulay bo'lib, ajoyib interfeysga ega. Masalan, manzillar kitobi, jo'natilgan va qabul qilingan xatlar ro'yxati kerakli parametrlari bilan birlgilikda tartiblangan holatda bo'ladi. Bu dasturlar orqali Internet Explorer brauzeri bo'limganda ham elektron pochtadan foydalanish mumkin.

Odatda ko'pchilik bevosita Internet qidiruv tizimlaridan biridagi elektron pochta tizimiga murojaat qilishadi. Masalan, [www.rambler.ru](http://www.rambler.ru), [www.mail.ru](http://www.mail.ru), [www.yandex.ru](http://www.yandex.ru), [www.yahoo.com](http://www.yahoo.com) qidiruv tizimlari qulay elektron pochta muhitlarini taqdim etadi.

Elektron pochta abonentlari o'zlarining maxsus adreslariga ega bo'lishi lozim. Bu adreslarning har biri dunyo bo'yicha takrorlanmas va original ko'rinishda bo'ladi. Adreslar maxsus dasturlar yordamida tekshirib boriladi

hamda bir xil tuzilishga ega manzillar yaratilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Elektron pochta adreslarining umumiyl tuzilishi quyidagicha:

<nom@<taskkilot>.domen>

Elektron pochta manzili yaratish uchun qidiruv tizimlaridan birortasiga kirib, E-mail bo'limidagi Registratsiya buyrug'i bosiladi. Natijada elektron pochta abonentining kerakli ma'lumotlarini kiritish uchun so'rov nomalaydi bo'ladi. Bu so'rov nomalayda yangi abonentning familiyasi, ismi, login, parol, manzili kabi ma'lumotlar kiritilib, Registratsiya buyrug'i bosiladi. Natijada elektron pochta muvaffaqiyatli yaratilganligi yoki ma'lumotlar kiritishda xatolikka yo'l qo'yilganligi to'g'risida xabar paydo bo'ladi.

Elektron pochta muhitiga kirish uchun qidiruv tizimidagi E-mail bo'limidan login va parol kiritilib, OK tugmasi bosiladi. Hosil bo'lgan elektron pochta interfeysida quyidagi bo'limlar eng ko'p ishlataladi:

**Входящие** – qabul qilingan xatlar;

**Отправленные** – jo'natilgan xatlar;

**Написать писмо** – yangi xat yozish va jo'natish.

Yangi kelgan xatlarni ko'rish uchun **Входящие** buyrug'i bosiladi. Natijada **Прочитанные** va **Непрочитанные** bo'limlari paydo bo'ladi. **Непрочитанные** buyrug'ini bosib, ro'yxatdagi xatlarni tanlash yordamida olib ko'rish mumkin.

Yangi xat yozish va uni jo'natish uchun **Написать писмо** buyrug'i bosiladi. Bunda xat yozish uchun qulay interfeys paydo bo'ladi. Oynaning **Кому** darchasiga jo'natilayotgan adres yoziladi. **Прекрепить** buyrug'i yordamida xatga ixtiyoriy fayllarni ilova qilish mumkin. Xat tayyor bo'lgandan so'ng **Отправить писмо** buyrug'i bosiladi. Agar xat manzilga yetib borgan bo'lsa, **Писмо успешно отправлено** xabari paydo bo'ladi. Pochta bilan ishlab bo'lgandan so'ng har doim **Выход** buyrug'i yordamida elektron pochta interfeysidan chiqish lozim.

## WWW, HTML till operatorlari

**WWW** (World wide web – butunjahon o'rgimchak to'ri) tizimi internet tarmog'ining eng asosiy xizmat turlaridan birdir. WWW tizimi 1989-1991 yillarda yaratilgan bo'lib, oddiy foydalanuvchilar uchun ham tarmoqdan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. Bunda maxsus HTTP (Hyper text transfer protocol – gipermatnlarni uzatish protokoli) deb nomlangan protokol yaratilgan bo'lib, TCP/IP protokoli tarkibiga kiritildi.

WWW tizimi barcha ma'lumotlarning foydalanuvchilar uchun Web-sahifalar ko'rinishida ekranga chiqishini ta'minlaydi. Bu tizimda ma'lumotlar **gipermatnlar** ko'rinishida namoyon bo'ladi. Hozirgi kunga kelib

internet tarmog'ida ma'lumotlarning mul'timedia turlari ortib bormoqda. Ya'ni, matnli ma'lumotlardan tashqari rasm, grafik, animatsion obyekt, audio hamda video ma'lumotlar paydo bo'lmoqda. Gipermatnli ma'lumotlar tizimi mul'timedia tizimlari bilan takomillashtirilib, **gipermEDIA** tizimini hosil qiladi. Web tizimida ma'lumotlar brauzerlar tomonidan o'qiladi. Brauzerlarga joylashtirilgan gipermEDIA ma'lumotlari **Web sahifalar** deb ataladi. Biron sohaga oid Web sahifalar majmuasi **saytlar** deb ataladi. Foydalanuvchilarga turli interaktiv xizmatlar ko'rsatuvchi yirik saytlar **portallar** deyiladi. Saytlar va portallar maxsus kerakli qurilmalar va dasturlar bilan jihozlangan kompyuterlar – **Web serverlarga** joylashtiriladi. Provayderlar Web serverlarning uzlusiz ishlashini ta'minlab turadi.

Saytlar Front Page, PHP, Dreamweaver kabi dasturlash vositalari orqali yoki bloknot yordamida sof HTML tilida yaratiladi. HTML (Hyper text markup language – gipermatnini belgilash tili) ma'lumotlarni gipermatn va gipermEDIA ko'rinishlarida tayyorlashga mo'ljallangan maxsus tildir.

Bloknot yordamida HTML tilida sayt tuzish uchun *Пуск – Все программы – Стандартные – Блокнот* menyular ketma-ketligi bosiladi. Natijada bloknot matn muharriri hosil bo'ladi. Bu fayl **Файл** menyusining **Сохранить как** buyrug'i yordamida .htm yoki .html kengaytma bilan saqlanadi. Bu holda fayl saqlangan joyda brauzer yordamida ochiladigan Web sahifa fayli hosil bo'ladi. Web sahifa ochilib, **Вид** menyusining **Источник** yoki **В виде HTML** buyrug'i bosiladi. Natijada dastlabki yaratilgan bloknot Web sahifaga bog'langan holda ochiladi. Bu yerda HTML tilida kerakli buyruqlar va ma'lumotlar kiritiladi. Bajarilayotgan amallarning natijalarini ko'rib borish uchun **Файл** menyusining **Сохранить** (**Ctrl+S**) buyrug'i bosilib, brauzer oynasiga o'tiladi hamda **Вид** menyusining **Обновить(F5)** buyrug'i bosiladi.

HTML tilida yoziladigan dastur strukturasi quyidagicha bo'ladi:

```
<html>
<head>
Sarlavha satriga oid operatorlar va ma'lumotlar
</head>
<body>
```

Dasturning tana qismi bo'lib, sahifa ko'rinishi uchun kerakli operatorlar va ma'lumotlar joylashtiriladi.

```
</body>
</html>
```

Bunda < (ochilgan "teg") va > (yopilgan "teg") belgilari buyruqlarni (operatorlarni) ajratib turish uchun ishlataladi. Bu buyruqlar toki shu buyruq teg ichida "/" (slesh) belgisi yordamida yopilmaguncha amal qiladi.

Teglar har doim juft (ochilgan va yopilgan) holatda bo'ladi hamda operatorlaming bosh va kichik harflarda yozilishi farqlanmaydi.

HTML tilining ba'zi operatorlari:

<title> ... </title> – sarlavha satridagi yozuvni aniqlaydi.

Masalan, <title>Bosh sahifa</title>

Dastur tana qismida dastlab ochilgan <body> tegi ichida sahifa foni (bgcolor) va unda yoziladigan ma'lumotlar rangi (text) parametrlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Masalan, <body bgcolor=silver text=red>.

Bu parametrlar yozilmasa, sahifa oq, yozuv qora rangda bo'ladi.

Bunda sahifa foni sifatida biror rasmni o'rnatish ham mumkin. Masalan, <body background="D:\Photo\1-rasm.jpg">.

<h1> ... </h1> – eng katta o'lchamli shriftdagи sarlavhani aniqlaydi.

Bundan tashqari <h2>, <h3>, ..., <h6> kattaliklardagi shriftlar ham mavjud bo'lib, shrift o'lchamlari mos ravishda kichiklashib boradi. Bu teglarda tartiblash (align) parametrini ko'rsatish ham mumkin.

Masalan, <h1 align="center"> TTYMI </h1>

Align parametrining center (markazga) qiymatidan tashqari left (chap tomonidan), right (o'ng tomonidan), justify (ikki tomondan ham tekislash) qiymatlari ham mavjud.

<p>...</p> – matnni alohida abzatsdan yozishni ta'minlaydi. Bunda abzatsni tartiblash parametrini kiritish ham mumkin.

Masalan, <p align=justify> Matn </p>.

<br> – kursov pozitsiyasini yangi qatorga o'tkazadi.

<hr> – gorizontal chiziq qo'yadi. Bunda teg ichida chiziq rangi (color), qalinligi (size), uzunligi (width), tartiblanishi (align) parametrlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Masalan, <hr color= green size=2 width=80% align=center >

Bu misolda chiziq sahifa kengligining har doim 80 foiz qismini egallaydi. Sahifa kengligini aniq piksel hisobida berish ham mumkin. Masalan, <hr width=800>.

<i> ... </i> – matnni kursiv ko'rinishda yozadi.

<b> ... </b> – matnni qalin shriftda yozadi.

<u> ... </u> – tagiga chizilgan matnni aniqlaydi.

<font>...</font> – teg orasiga yozilgan matn shrifti, o'lchami, rangi, turini aniqlaydi.

Masalan, <font size=7 color=green face="Arial"> Bu matn 7 kattalikdagi shriftda, yashil, Arial shriftida yozilgan</font>

<center> ... </center> – qator markazidan yozishni ta'minlaydi.

<sub> ... </sub> – quyi indeksga yozishni bildiradi.

&nbsp; – tegsiz yoziladigan bu buyruq bo'sh joy tashlanishini bildiradi.

<input> ... <input> – ma'lumotlarni kiritish uchun darcha ochadi.

<marquee> ... </marquee> – yuruvchi matnni aniqlaydi. Bunda ekranga nisbatan foiz hisobida yoki piksellar hisobida yuruvchi matn sohasi o'lchamini ko'rsatish mumkin.

Masalan, <marquee width=50% height=10> Saytimizga hush kelibsiz! </marquee>

<img> – sahifaga rasm joylashtirishni ta'minlaydi. Rasm sifatida .gif, .jpg, .jpeg, .bmp kengaytmali fayllardan foydalanish mumkin.

Masalan, .

Bunda rasmning kengligi (width), balandligi (height), ramka qalinligi (border), tartiblanishi parametrlarini ko'rsatish ham mumkin.

Masalan, 

<a>...</a> – sahifaga gipermurojaat o'matish. Bunda web-sahifada teg o'rtaida yozilgan matn yoki obyekt bosilganda ko'rsatilgan ixtiyoriy web-sahifa ochiladi yoki faylga mumkin bo'lgan tarzda murojaat qilinadi.

Masalan,

<a href = "D:/Sayt/2-sahifa.htm"> 2-sahifaga kirish</a>;

<a href = "D:/Documents/inform.rtf"> Informatika </a>

<a href = "http://tashiit.uz"> ToshTYMI sayti </a>

<bgsound> – sahifa joriy holatida .mid yoki .wav kengaytmali audio lovushlarni namoyish etish imkonini beradi.

Masalan, <bgsound src="D:\musics\m1.wav">

<table> ... </table> – jadvalni chizishni ta'minlaydi. Bunda <table> tegi ichida jadval chegaralari qalinligi (border), kengligi (width), balandligi (height), tartiblanishi (align), yachevkalar orasidagi masofa (cellpadding), yachevka chegarasidan ichidagi yozuvgacha bo'lgan masofa (cellspacing) parametrlarini kiritish mumkin.

Masalan, <table border=2 width=80% height=30% align=center cellpadding=5 cellspacing=10> ... </table>.

Jadval kengligi va balandligini piksel hisobida berish ham mumkin.

Masalan, <table width=600 height =400> ... </table>.

<caption> ... </caption> – jadval sarlavhasini aniqlaydi.

<tr> ... </tr> – jadvaldagagi bitta satrni aniqlaydi. Yopiluvchi </tr> tegi zarur emas. Bunda navbatdagagi <tr> tegi keyingi qatorni bildiradi.

<th> – jadval ustuni sarlavhasini aniqlaydi. Bu teg <tr> ... </tr> teglari orasida kelishi zarur.

<td> ... </td> – jadval qatoridagi bitta yachevkani aniqlaydi. Yopiluvchi </td> tegi zarur emas. Bunda navbatdagagi <td> tegi keyingi yachevkani bildiradi.

Yacheyka o'lchamini jadval o'lchamini buzgan holda o'zgartirish mumkin. Masalan, <td width=150 height=50>.

Yacheyka forinini ochiluvchi <td> tegida ko'rsatish mumkin.

Masalan, <td bgcolor=yellow> 1-yacheyka </td>.

Agar ustundagi bir nechta yacheykani birlashtirish lozim bo'lsa, <td> tegi ichida rowspan parametrini qo'llash lozim.

Masalan, <td rowspan=3>yacheyka1</td>.

Agar satrdagi bir nechta yacheykani birlashtirish lozim bo'lsa, <td> tegi ichida colspan parametrini qo'llash lozim.

Masalan, <td colspan=4>yacheyka2</td>.

Misol. Bizga quyidagi jadval berilgan bo'lsin.

Yacheyka1	Yacheyka3	Yacheyka4	Yacheyka5
Yacheyka2	Yacheyka6		
Yacheyka7	Yacheyka8		o'ngga tartiblash

Bu jadvalni ifodalash uchun dastur tanasida quyidagilarni kiritish lozim bo'лади:

```
<table border="1">
  <tr>
    <td rowspan=2>Yacheyka1</td>
    <td rowspan="3">Yacheyka2</td>
    <td>Yacheyka3</td> <td>Yacheyka4</td>
    <td rowspan="2">Yacheyka5</td>
  </tr>
  <tr>
    <td colspan=2>Yacheyka6</td>
  </tr>
  <tr>
    <td>Yacheyka7</td> <td>Yacheyka8</td>
    <td colspan=2 align=right>o'ngga tartiblash</td>
  </tr>
</table>
```

Bu misoldan ko'rinib turibdiki, <tr> tegi bilan keyingi qatorga o'tilganda <td> tegi yangi qatordagiga o'zlashtirilmagan yacheykani aniqlaydi.

Brauzer oynasida bir nechta Web-sahifalar joylashtirish lozim bo'lsa, u holda freymlardan foydalanadi. Freymlar dastur tanasi o'mida ishlatalib, <frameset> tegi bilan boshlanadi. Teg ichida freymlarning sonini, o'lchamini ko'rsatish lozim.

Masalan, <frameset rows="60%, 40%"> yozilsa, bu teg ekranning ikki

qatorli freymga bo'linishini, 1-freym ekranning 60 foizini, 2-freym 40 foizini egallashini anglatadi.

Masalan, <frameset cols="30%, 50%, 20%"> yozilsa, bu teg ekranning uch ustunli freymga ajratilishini, 1-freym ekranning 30 foizini, 2-freym 50 foizini, 3-freym 20 foizini egallashini anglatadi.

Masalan, <frameset cols="150, \*, 100"> yozilsa, bu teg ekranning uch ustunli freymga ajratilishini, 1-freym 150 piksel kenglikda, 3-freym 100 piksel kenglikda, 2-freym ekranning o'rtadagi qolgan qismini egallashini anglatadi.

<frameset> yordamida freymlar strukturasi yozilgandan so'ng <frame> tegidan foydalanib, freymlarning har biri uchun joriy freymda ochiladigan sahifa yoki fayl nomi ko'rsatib o'tiladi.

Masalan, <frame src="f2.htm"> <frame src="f3.htm">.

<frameset> yordamida ochilgan freymlar strukturasi </frameset> tegi yordamida yopilishi lozim.

Umuman olganda <frameset> ... </frameset> teglari ichida yana <frameset> strukturasini qo'llash mumkin.

## Foydalaniilgan adabiyotlar

1. Степанов А.Н. Информатика: Учебник для вузов. 4-изд. – СПб.: Питер, 2006. 684 с.
2. Романова Ю.Д. и др. Информатика и информационные технологии: Учебное пособие. –М. Эксмо, 2008. 592 с.
3. Фаронов В.В. Delphi 2005. Язык, среда, разработка приложений. СПб. Питер. 2005г.
4. Кандзюба С.П., Громов В.Н. Delphi 5. База данных и приложения. изд. Диасофт. Киев. 2001 г. 592 с.
5. Гарнаев А.Ю. Использование MS EXCEL и VBA в экономике и финансах. Санкт-Петербург.1999 й.
6. Арипов М.М., ва б. Информатика Ахборот технологиялари. 2-кисм. Тошкент,2003. 425бет.
7. Арипов М.М.,Мухаммадиев Ж.У. Информатика ва Информацион технологиилар. Тошкент. 2004й. 278 бет.
8. Ходматов Т.Х., Тайлоков Н.И., Назаров У.А. Информатика. Тошкент. 2003й. 256 бет.
9. Shodimetov X.M., Xolboev O'.N. Axborot texnologiyalari. Uslubiy ko'rsatma. T. 2007.
10. Shodimetov X.M., Xolboev O'.N. Excel elektron jadvali va unda masalalar yechish. Uslubiy ko'rsatma. Toshkent. 2009 y. 80 b.
11. Eshdavlatov B., Abduqayumov B., Xolboyev O'.N. Informatika. Uslubiy ko'rsatma. Toshkent 2011 y.
12. Xodjayeva N.Sh., Xolboyev O'.N., Qodirova Ye.V. Delphi muhitida dasturlash. Uslubiy ko'rsatma. Toshkent. 2006 y.
13. [www.ph4s.ru](http://www.ph4s.ru) sayti.
14. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org) sayti.
15. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) sayti.

Informatika asoslari, EHMLar va shaxsiy kompyuterlar .....	3
Kompyuteming dasturiy ta'minoti .....	10
Windows operatsion tizimi .....	11
Sanoq sistemalari .....	14
Algoritmlar .....	18
Takrorlanuvchi algoritmlarga doir misollar .....	21
Delphi dasturlash tili va muhiti, Delphida konsol ilova, strukturasi, elementlari, alifbosи va nomlar .....	23
Turlar, o'zgarmaslar, o'zgaruvchilar, standart funksiyalar .....	26
Operatorlar, o'zlashtirish operatori, tarkibiy va bo'sh operator, ma'lumotlarni kiritish va chiqarish protseduralari .....	29
Shartli operator, o'tish operatori .....	34
Tanlash operatori .....	37
Parametrali takrorlanish operatori .....	39
Sharti oldin va sharti keyin beriladigan takrorlanish operatorlari .....	40
Massivlar, bir o'lchovli massivlar .....	45
Ikki o'lchovli massivlar .....	49
Dinamik massivlar .....	50
Protsedura va funksiyalar .....	54
Funksiya qism dasturi .....	56
Fayllar bilan ishslash .....	56
Delphi ning vizual imkoniyatlari, Delphi dasturlash muhiti .....	60
Sinflar va komponentlar .....	63
Label, Edit, Memo matnli komponentlari, Button tugmasi .....	67
Label, Edit, Memo va Button komponentlari yordamida dasturlar tuzish .....	70
Grafik-tasvirlar yaratishga mo'ljalangan sinf va buyruqlar .....	72
Image, Shape, Paintbox, Timer komponentlari .....	75
Image va Timer komponentlari yordamida dasturlar tuzish .....	77

Chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini yechishning Gauss usuli .....	79
Eng sodda taqribiy integrallash formulalari.....	85
Differensial tenglamalarni taqribiy yechish usullari .....	93
Axborot texnologiyalari .....	99
Microsoft Word matn muharriri, dastur interfeysi .....	99
PowerPoint dasturi, slaytdlar va taqdimotlar .....	107
PowerPoint dasturida taqdimot yaratish .....	108
Excel elektron jadvali, Excel interfeysi .....	114
Ma'lumotlarni kiritish va tahrir qilish .....	118
Excelda formula va funksiyalar .....	121
Adreslar .....	123
Excelda diagrammalar qurish va ularni tahrirlash .....	128
MBBT, Access dasturi, Access interfeysi .....	130
Accessda jadval tuzish .....	133
Access da forma yaratish .....	137
Accessda so'rov tuzish .....	140
Accessda ma'lumotlarni izlash, saralash, filrlash .....	143
Accessda hisobot tayyorlash .....	144
Kompyuter tarmoqlari, Internet .....	145
Internet xizmatlari, Internet protokollari .....	147
Internet Explorer brauzeri, elektron pochta .....	150
WWW, HTML tili operatorlari .....	153
Foydalanilgan adabiyotlar .....	159

**Xolmatvoy Maxkamboevich Shodimetov,**

**Botir Niyazkulovich Abdukayumov,**

**O'tkir Nurullaevich Xolboev**

## **INFORMATIKA VA AXBOROT TEKNOLOGIVALARI**

**O'quv qo'llanma**

**Muharrir: Yunusova Z.K.**

**Texnik muharrir va sahifalovchi: Tashbaeva M.X.**

Nashrga ruxsat etildi 17.12.2012 y.

Qog'oz bichimi 60x84/16. Hajmi 10 b.t.

Adadi 50 nusxa. Buyurtma №6-2/2012

ToshTYMI bosmaxonasida chop etildi

Toshkent sh., Odilxo'jaev ko'chasi, 1uy

Toshkent temir yo'l muhandislari instituti, 2012y.